

ISSN 2010-9601

MOLIYA

ILMIY JURNAL



Научный журнал «Финансы»

«Finance» scientific journal



3
2025

TOSHKENT

MOLIYA

Muassis: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Tahririyat ijodiy jamoasi:

Bosh muharrir: *A.Karimov*

Bosh muharrir o‘rinbosari: *G‘.Tashmanov*

Texnik muharrir: *K.Rasulova*

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2008 yil 24 martda 0519-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

2008 yildan nashr qilinadi, bir yilda 6 marta chiqadi.

O‘zbekiston hududida tarqatiladi.

«Moliya» ilmiy jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komis- siyasi Rayosatining 2013 yil 13 dekabrda 201/3-sonli qaroriga binoan iqtisod fanlari bo‘yicha fan doktori ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan ilmiy maqolalari e‘lon qilinishi zarur bo‘lgan ilmiy jur- nallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Veb-sayt: www.tfi.uz/Issues/Jmoliya

e-mail: moliya@tfi.uz Obuna indeksi – 1204

Tahririyat manzili: 100084, Toshkent sh., A.Temur ko‘chasi, 60^a-uy Tel.: (+998 71) 234-66-89

TAHRIR KENGASHI RAISI:

T.Z.Teshabayev – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori,
iqtisod fanlari doktori, professor.

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI:

A.A.Karimov – Bosh muharrir, iqtisod fanlari doktori, professor.

G'.D.Tashmanov — Bosh muharrir o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

G.Q.Abduraxmanova — Ilmiy ishlar va innovasiyalar bo'yicha prorektor iqtisodiyot fanlari doktori, professor

N.X.Xaydarov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

T.S.Malikov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

E.G'.Nabiyev — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

G.N.Axunova — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

K.B.O'razov - iqtisodiyot fanlari doktori, professor

B.E.Toshmurodova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.Z.Abdullayeva – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.Z.Avloqulov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.I.Karimqulov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.A.Allayarov- iqtisodiyot fanlari doktori, professor

F.T.Muxamedov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

D.R.Rustamov – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

X.M.Shennayev — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

I.K.Ochilov — iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

M.M.Tulaxodjayeva — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Z.A.Sagdullayeva — iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

X.Qobulov — iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

I.G'.Kenjayev – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

D.A.Mirzayev — iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Asif Mahbub Karim– Malayziya, Bayneriy menejment va tadbirkorlik universiteti professori

Adriana Grigoressu – Ruminiya, Siyosiy tadqiqotlar va davlat boshqaruvi milliy universiteti professori

Y.B.Maley – Belorussiya, Polosk davlat univesiteti dotsenti

Elcin Aykas Alp – Turkiya, Istanbul Tijorat Universiteti professori

Tae-Hyoung Mun — Janubiy Korea, Mokvuon universiteti professori

N.K.Muraviskaya — Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti professori

K.Taygashinova – Qozog'iston, Almata iqtisodiy-gumanitar universiteti professori

M U N D A R I J A

Betlar

D.A.Abdullayev , Jismoniy shaxslar daromad solig'ini hisoblash mexanizmini takomillashtirish	4
D.Tojiboyeva , Mehnat bozori va unga institutsional yondashuv	12
I.I.Erkinxojiyev , Agrar sohada moliyaviy xatarlarni kamaytirishda sug'urtalash tizimini takomillashtirish	23
G.'A.Ibragimov , Yashil buxgalteriya hisobining nazariy asoslari	28
A.A.Ismailov , Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashning dolzarb masalalari	36
J.E.Kurbanbaev , Buxgalteriya hisobi milliy standartlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish (Hisob siyosati misolida)	44
X.M.Mamatov , Oliy ta'lim muassasalarida mehnat haqi auditini takomillashtirish	55
G.N.Nigmatova , Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi	67
G.A.Nosirova , Using insurance to minimize risks in project financing	74
S.M.Oripova , Xalqaro loyihalarda risklarni boshqarish amaliyoti va takomillashtirish yo'nalishlari	79
Z.Z.Kaxxarov , Strategik boshqaruv hisobi doirasida aktivlar bilan bog'liq xarajatlarni optimallashtirish	84
Z.Z.Kaxxarov , Aktivlarning foydalanish muddati asosida amortizatsiya siyosatini strategik darajada tanlash	90
X.M.Raimov , Nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlarini takomillashtirishda yangi xizmat turlari	98
M.S.Rustamov, M.O.Egamberganov , Elektron pullarni rivojlantirish yo'llari	103
A.H.Sotiboldiyev , "O'zbekistonda inklyuziv rivojlanish konsepsiyasi doirasida kambag'allikni kamaytirish va mahalla institutlari rolini kuchaytirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash"	114
U.G.Kakhramonova , Digital economy and its role in economic growth	123
B.N.Urinov , Yaxshi korporativ boshqaruv va korporativ ijtimoiy mas'uliyat strategiyalarini birlashtirish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish	130
A.A.Каримов, Ф.К.Камолова , Перевод долга-как ускоренный метод возврата дебиторской задолженности	141
У.С.Матчанов , Мировой опыт повышения инвестиционной привлекательности энергопредприятий и его применение в отечественной практики	147
N.O.Raxmatullaeva , Aksiyadorlik jamiyatlarida strategik menejmentni amalga oshirishda boshqaruvtizimidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	157
F.T.Temirov , Improvement of accounting forms in multi-industry farms	167
M.Zaxirov , O'zbekistonda lombardlarning roli va moliyaviy ko'rsatkichlari	173
F.Q.Boboxo'jayeva , Zamonaviy bank marketingida mijoz sodiqligini shakllantirish strategiyalari	179
B.N.Boboxo'jaev , Assortiment siyosatining o'zbekistonni jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonidagi ahamiyati	183

Abdullayev Dilmurod Aliyar o'g'li
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti mustaqil izlanuvchisi
dilmurod_a@list.ru

JISMONIY SHAXSLAR DAROMAD SOLIG'INI HISOBLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Абдуллаев Дилмурод Алияр угли
PhD, независимый исследователь
Ташкентского государственного
экономического университета
dilmurod_a@list.ru

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ИСЧИСЛЕНИЯ НАЛОГА НА ДОХОДЫ ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ

Abdullayev Dilmurod Aliyar ugli
PhD, Independent researcher
at Tashkent State University of Economics
dilmurod_a@list.ru

IMPROVING THE MECHANISM FOR CALCULATING PERSONAL INCOME TAX

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblashning amaldagi holati va mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi o'rni, mazkur soliq turi bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar, soliq tushumi va budjet daromadlaridagi ulushining o'zgarishi tadqiq qilingan. Shuningdek, tadqiqot natijasi asosida xulosalar shakllantirilgan holda jismoniy shaxslar daromad solig'ini hisoblash tartibini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar: budjet, mahalliy budjet, jismoniy shaxs, daromad, daromad solig'i, soliq stavkasi.

Аннотация: В статье рассматривается современное состояние исчисления налога на доходы физических лиц и его роль в формировании доходов местных бюджетов, реформы, проводимые в отношении данного вида налога, изменения в поступлениях налога и его доля в доходах бюджета. Также по результатам исследования сделаны выводы и разработаны научные предложения и практические рекомендации по совершенствованию порядка исчисления налога на доходы физических лиц.

Ключевые слова: бюджет, местный бюджет, физическое лицо, доход, подоходный налог, налоговая ставка.

Abstract: This article examines the current state of personal income tax calculation and its role in the formation of local budget revenues, the reforms implemented in this type of tax, changes in tax revenue and its share in budget revenues. Also, based on the results of the research, scientific proposals and practical recommendations aimed at improving the procedure for calculating personal income tax were developed.

Keywords: budget, local budget, person, income, income tax, tax rate.

Kirish

Hozirgi iqtisodiy integratsiyalashuv hamda xalqaro maydonda kuzatilayotgan murakkab iqtisodiy vaziyatda aholining farovonligini oshirish uchun iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta'minlash hukumatlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotni taraqqiy ettirishda mamlakatning biznes faoliyatini amalga oshirish uchun yaratilgan sharoitlarini yaxshilash asosida tadbirkorlikni rivojlantirish lozim. Aynan biznes subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport hajmini oshirish va aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratishga erishiladi.

Hozirda mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida kelgusi yillarda ham milliy iqtisodiyotning izchil rivojlanishini ta'minlash va barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2030 yilgacha mamlakatimizni yanada rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish 2030 yilgacha erishiladigan asosiy maqsadli ko'rsatkichlar sifatida belgilangan[3]. Mazkur natijalarga erishish uchun yurtimizda tadbirkorlarning erkin faoliyat yuritishi uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish zarur. Bunda korxonalarining soliqlarni hisoblab chiqarish, hisobotlarni tuzish va yuborishga ketadigan vaqtini hamda xarajatlarini kamaytirgan holda ularga ko'proq vaqtini biznes faoliyatini amalga oshirish uchun sarflashga imkoniyat yaratib berish lozim. Bugungi kunda korxonalar jismoniy shaxslarning daromad solig'ini hisoblab chiqarib, budjetga to'lab beradi. Shu bois, faol biznes muhitini shakllantirishda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash tartibini soddalashtirish va soliq hisobotini qisqartirish muhim hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Jismoniy shaxslar daromad solig'ini hisoblash amaliyotini takomillashtirish masalalari ko'plab iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida keng yoritilgan. Xususan, Professor M.Usmonova o'zining dissertatsiya ishida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga ta'rif bergan. Shunga muvofiq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, bu – qonun asosida o'rnatilgan miqdorda va muddatda davlat budjetiga jismoniy shaxslarning soliq solinadigan daromadlaridan undiriladigan majburiy to'lovdir[6]. Professor A.Islamkulovning ta'kidlashicha mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash, mahalliy budjetlar zimmasiga yuklatiladigan vazifalarni mablag' bilan ta'minlash maqsadida respublika va mahalliy budjetlar o'rtasida jismoniy shaxslar daromad solig'ining muayyan ulushlarda taqsimlanishini joriy etish lozim[7]. Iqtisodchi olim A.Bozorov o'zining tadqiqot ishida jismoniy shaxslar o'zlariga tegishli bo'lgan ko'chmas mulkini sotishdan olingan daromadlarni soliqqa tortishni takomillashtirish hamda ko'chmas mulklar bo'yicha soliqqa tortiladigan daromadlarni chiqarmasdan (yashirib) sotilishining oldini olish maqsadida sotiladigan mulklarning egallagan maydoniga nisbatan joylashgan joylari bo'yicha eng kam me'yorlar belgilashga e'tibor qaratgan[8]. Dotsent A.Agzamov tomonidan jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishda progressiv soliqqa tortish tizimidan tekis (proporsional) stavkadagi soliqqa tortish tizimiga o'tkazish taklifi ishlab chiqilgan[9]. Tadqiqotchi G'.Ruziyev tomonidan Soliq kodeksida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar Kengashlari, shuningdek xalq deputatlari tumanlar (shaharlar) Kengashlari tomonidan joriy soliq davri uchun ijaraning eng kam me'yorlariga nisbatan, mol-mulk solig'i hamda yashash uchun mo'ljallanmagan obyektlar uchun belgilanadigan shartli qiymatlarga nisbatan qo'llanilgan koeffitsiyentlar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun daromad solig'ining qat'iy belgilangan


soliq stavkalari miqdorlari to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq organlariga har yili 10 yanvarga qadar taqdim etilishini belgilash taklif etilgan[10].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan taqqoslash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, ilmiy abstraksiyalash, jarayonlarni kuzatish, mantiqiy va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Natija va muhokama

Jismoniy shaxslar daromad solig'i budget daromadlarini shakllantiradigan asosiy soliq turlaridan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda mamlakatimizda daromad solig'ini hisoblab chiqarishni soddalashtirish hamda soliq yukini kamaytirish orqali soliq bazasini kengaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2019 yildan daromad solig'ining 4 pog'onali proporsional stavkasi o'rniga yagona 12 foiz stavkasi joriy qilindi hamda dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga soliq stavkasi 10 foizdan 5 foizga pasaytirildi[4]. Shuningdek, 2022 yil may oyidan norezident jismoniy shaxslar uchun soliq stavkasi 20 foizdan 12 foizga kamaytirildi[3]. Natijada, daromad solig'i hisoblab chiqarish soddalashtirildi hamda aholi daromadlaridan olinadigan soliq miqdori sezilarli ravishda kamaydi. Qolaversa, tadbirkorlarga biznes faoliyatini olib borish uchun qulay ishbiarmonlik muhitini shakllantirishga ijobiy ta'sir qildi. Bu esa, soliq bazasini kengaytirgan holda yildan-yilga daromad solig'i tushumlari oshishiga ijobiy ta'sir qilmoqda.



1-rasm. Daromad solig'i va uning Davlat budjeti daromadlaridagi ulushining o'zgarishi tahlili [11]

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda 2019-2024 yillarda daromad solig'i tushumi va uning Davlat budjeti daromadlaridagi ulushi ortib borgan. Xususan, daromad solig'i miqdori ushbu davrda 12 668,5 mlrd.so'mdan 35 384,0 mlrd.so'mga ya'ni 2,8 baravarga oshgan. O'z navbatida uning Davlat budjeti daromadlaridagi ulushi

esa

2019

yilda

11,3 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda 12,9 %ga ko'paygan.

Bugungi kunda jismoniy shaxslar daromad solig'ini hisoblab chiqarish hamda budjetga undirish Soliq kodeksi bilan tartibga solinadi[1]. Mazkur soliq to'lov manbai, deklaratsiya va qat'iy summa metodlari asosida hisoblanadi. Daromad solig'i tushumlarining asosiy qismi to'lov manbai metodiga ya'ni ish beruvchi yuridik shaxslar tomonidan to'langan mablag'lar hissasiga to'g'ri keladi. Sababi, korxonalar xodimlarga to'lanadigan daromatlardan to'lov manbaida soliqni hisoblab chiqargan holda budjetga o'tkazib berishi lozim.

Mamlakatimizda keyingi yillarda jismoniy shaxslar daromad solig'i asosida hududlarni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, 2019 yildan boshlab mahalliy davlat hokimiyati organlarining manfaatdorligini kuchaytirish va ularning daromadlar bo'yicha vakolatlarini kengaytirish maqsadida jismoniy shaxslar daromad solig'i hududlar budjeti o'rtasida taqsimlanishi belgilandi. Hozirda jismoniy shaxslar daromad solig'ining Navoiy viloyatida 66 foizi, Toshkent viloyatida 51 foizi, Toshkent shahrida 12 foizi va qolgan hududlarda 100 foizi mahalliy budjetlarga o'tkaziladi[2]. Mazkur soliq turining hududlar budjetiga o'tkaziladigan ulushining yillar davomida o'zgarishi quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Jismoniy shaxslar daromad solig'ining hududlar budjetiga o'tkaziladigan ulushining o'zgarishi tahlili, %da

№	Hududlar nomi	Yillar							Farqi (+;-)
		2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025	
1	Navoiy viloyati	100	70	62	63	80	55	66	-34
2	Toshkent viloyati	77	34	45	42	63	38	51	-26
3	Toshkent shahri	10	5	5	5	8	11	12	2
4	Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa viloyatlar	100	100	100	100	100	100	100	0

Manba: O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi Qonunlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2019-2025 yillarda mamlakatimizda jismoniy shaxslar daromad solig'ining hududlar budjetiga o'tkaziladigan ulushi Navoiy viloyatida 100 %dan 66 % ga ya'ni 34 %ga va Toshkent viloyatida 77 %dan 51% ga ya'ni 21 %ga kamaygan bo'lsa, bu ko'rsatkich Toshkent shahrida 10 %dan 12% ga ya'ni 2 %ga oshgan. Boshqa hududlarda esa mazkur normativ o'zgarmagan va to'liq ushbu hududlar budjetiga o'tkazilgan.

Respublikamizda mahalliy budjetlar daromadini oshirish maqsadida 2020 yildan davlatimiz qonunchiligiga asosan tashkil etilgan yuridik shaxslar uchun 25 nafardan ortiq xodimlari mavjud alohida bo'linmalari va filiallari bo'yicha daromad solig'i hisobotini mazkur alohida bo'linmalar va filiallar hisobda turgan joydagi soliq organiga taqdim etish tartibi joriy qilindi. Shuningdek, ushbu amaliyot 2022 yilning iyul oyidan yirik soliq to'ovchilar toifasiga kiradigan korxonalarga ham tadbiq etildi[3]. Shunga muvofiq, hozirgi davrda korxonalar

25 tadan ko'p ishchilari bo'lgan har bir bo'linma hamda filial uchun daromad solig'i hisobotini ular joylashgan joydagi soliq organiga har oyda alohida-alohida taqdim etadi. Fikrimizcha, mazkur tartib hududlar daromadini oshirishga ijobiy ta'sir qiladi, biroq korxonalar uchun jismoniy shaxslar daromad solig'i ma'muriyatchiligini murakkablashtiradi. Chunki, 25 tadan ortiq xodimi bor hududlarga alohida-alohida har oyda hisobot yuboradi. Xuddi shunday, soliq to'lovlarini ham amalga oshiradi. Shu bilan birga, ish beruvchilar 25 nafardan ortiq xodimlari mavjud alohida bo'linmalari hamda filiallari bo'yicha fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy jamg'arib boriladigan pensiya badallarini hisoblab chiqaradi va ular joylashgan joydagi Xalq banki filialiga o'tkazilgan summalar uchun xodimlar reestrini taqdim etadi. Bu borada ushbu amaliyot tadbiriq etiladigan soliq to'lovchining soliq hisobotlarini tahlil qilish muhimdir. Shunga muvofiq, Aksiyadorlik tijorat Xalq banki tomonidan hududlarga taqdim etilgan jismoniy shaxslar daromad solig'i hisoboti quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Aksiyadorlik tijorat Xalq banki tomonidan filiallari bo'yicha taqdim etilgan jismoniy shaxslar daromad solig'i hisoboti tahlili

№	Yillar	Oylar											
		yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentabr	oktabr	noyabr	dekabr
1	2022	1	1	1	1	1	1	1	1	186	184	184	184
2	2023	184	184	184	184	175	175	175	175	175	173	175	175
3	2024	175	90	90	90	90	90	92	91	90	90	90	90
Farqi (+;-)		174	89	89	89	89	89	91	90	-96	-94	-94	-94

Manba: Aksiyadorlik tijorat Xalq banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Xalq banki tomonidan 2022-yilning yanvar-avgust oylarida 1 ta hududga soliq hisobotini taqdim etgan, 25 nafardan ortiq xodimlar mavjud filiallar bo'yicha soliq hisobotini ular hisobda turgan joydagi soliq organiga yuborish amaliyoti joriy qilinishi natijasida 2022-yilning sentabrida 186 ta va qolgan oylarida esa har oyda 184 ta soliq inspeksiyasiga hisobot taqdim etgan. Shuningdek, 2022-yilning sentabr oyidan 2024-yilning dekabr oyiga qadar filiallar bo'yicha taqdim etilgan jismoniy shaxslar daromad solig'i hisoboti soni 186 tadan 90 taga kamaygan. Fikrimizcha, soliq hisobotining kamayishining asosiy omili hududlardagi filiallar sonining qisqarishi bo'lgan.

Ish beruvchilar uchun 25 nafardan ortiq xodimlari mavjud alohida bo'linmalari hamda filiallari bo'yicha soliq hisobotining alohida taqdim etilishi hududlardagi ishchilarning daromadi va undan hisoblanadigan daromad solig'ining alohida hisobini yuritishni taqozo qiladi. Bu daromad solig'ini hisoblab chiqarishni qiyinlashtiradi va soliq hisobotlarini shakllantirish hamda yuborish jarayonida xato-kamchiliklarga yo'l qo'yishga sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yurtimizda jismoniy shaxslar daromad solig'i budget daromadlarini shakllantiradigan muhim soliq turlaridan biridir. So'nggi yillarda mamlakatimizda aholi daromadlariga soliq yukini kamaytirish va biznes muhitini yaxshilash maqsadida daromad solig'ini hisoblashni soddalashtirish hamda soliq stavkalarini pasaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Bu esa, daromad solig'i tushumining ko'payishiga hamda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, mazkur soliq turini Navoiy va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrida belgilangan normativlar doirasida, qolgan hududlarda to'liq mahalliy budgetlarga yo'naltirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu o'zgarishlar natijasida hududlarning budget daromadlari oshgan holda ularning iqtisodiyoti barqaror sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Bundan tashqari, yuridik shaxslar tomonidan 25 tadan ortiq ishchilari bor alohida bo'linma va filiallar uchun daromad solig'i hisobotini ushbu tarkibiy bo'linmalar joylashgan joy bo'yicha berilishi hududlar daromadini oshiradi. Biroq, mazkur tartib tadbirkorlar uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sababi, alohida bo'linma va filiallarga ega bo'lgan korxonalar soliq hisobotini ushbu bo'linma va filiallarning har biri bo'yicha har oyda alohida tuzadi va soliq organlariga yuboradi. Natijada yuridik shaxslar ko'proq vaqtini daromad solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash uchun sarflashga majbur bo'ladi. Shu bois, soliq agentlari uchun soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish maqsadida korxonalarning 25 tadan ortiq ishchilari bor alohida bo'linma va filiallar bo'yicha jismoniy shaxslar daromad solig'ini hisoblash mexanizmini takomillashtirish zarur. Bundan tashqari, soliq agentlari tomonidan jismoniy shaxslarga daromadlar natura shaklida berilganda daromad solig'i natura tarzidagi to'lov amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida to'lanishi lozim. Daromad solig'i hisobotida natura shaklida to'langan daromadlar ajratib ko'rsatilmaganligi sababli soliqning belgilangan vaqtida to'lanishini nazorat qilish imkoniyati mavjud emas. Shunga asosan, natura shakldagi daromad bo'yicha soliqni to'lash muddatini to'lov manbaida hisoblab chiqarilgan soliq summasini to'lash muddati bilan bixillashtirish maqsadga muvofiq.

O'ylaymizki, ushbu takliflarning amaliyotga tadbiiq etilishi mamlakatimizda biznes subyektlari uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga, milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlanishi hamda uning raqobatbardoshligini oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrda "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-1011-son Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 26-iyulda "Soliq va bojxona qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish to'g'risida" O'RQ-785-son Qonuni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyunda "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son Farmoni
6. Усманова М.С. Жисмоний шахсларнинг даромадларини декларация усулида солиққа тортишни такомиллаштириш: иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2021.

7. Исламкулов А.Х. Бюджетлараро мутаносибликни таъминлашда солиқлар тизимини такомиллаштириш: иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси Автореферати. – Тошкент, 2020.
8. Bozorov A.A. O'zbekistonda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi Avtoreferati. – Toshkent, 2023.
9. Агзамов А.Т. Жисмоний шахсларни солиққа тортиш амалиётини такомиллаштириш: иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси Автореферати. – Тошкент, 2019.
10. Рузиев Ғ.У. Жисмоний шахсларни солиққа тортиш тизимини такомиллаштириш масалалари. “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, 2025-yil, 1-son, 214-223 бетлар.
11. <http://www.imv.uz/> - Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti.

Dilorom Tojiboyeva

Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti "Iqtisodiyot nazariyasi
kafedrası professori
dtajiboeva@mail.ru;

MEHNAT BOZORI VA UNGA INSTITUTSIONAL YONDASHUV

Дилором Таджибаева

Ташкентский государственный
экономический университет, Профессор кафедры
«Экономической теории»
dtajiboeva@mail.ru;

РЫНОК ТРУДА И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ ПОДХОД К НЕМУ

Tashkent State University of Economics,
Professor of the Department of "Economic Theory",
Doctor of Economics
dtajiboeva@mail.ru

LABOR MARKET AND INSTITUTIONAL APPROACH TO IT

Annotatsiya. Mazkur maqolada mehnat bozorining bozor sifatida boshqa bozorlar bilan umumiy tomonlari, shu bilan birga qator tubdan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlari: birinchidan, o'zining mavqei, jamiyat hayotida tutgan roli, ahamiyati jihatidan markaziy o'rin egallashi; ikkinchidan, bozor subyektlarining manfaatlari doimo mos kelavermasligi; uchinchidan, bu bozorning eng muhim xususiyati, uning tezda talabga moslasha olmasligi, bu uzoq vaqt talab qilishi; muhimi, to'rtinchidan, bozorning sog'likni saqlash va ta'lim xizmatlari bilan chambarchas bog'liqligi, bular o'z navbatida mehnat bozoriga davlatning faol aralashuvini obyektiv zaruriyatga aylantirishi va undagi munosabatlarni tartibga solishga institutsional yondashuv orqali nazariy jihatdan ko'rsatishga qaratilgan.

Tayanch so'zlar: mehnat bozori, ishchi kuchi, mehnat, bozor talabi, mehnat xizmati, ishga yollash, shartnoma, ish haqi.

Аннотация. В данной статье рассмотрены общие аспекты рынка труда действующими с другими рынками экономики, а также ряд его отличительных особенностей: во-первых, его положение и роль в жизни общества, что он занимает центральное место по своей значимости; во-вторых, интересы субъектов рынка не всегда совпадают; в-третьих, важнейшей особенностью этого рынка является то, что неспособность быстро адаптироваться к спросу, для осуществления его требуется определенное время; в-четвертых, что немаловажно, рынок тесно связан с услугами здравоохранения и образования, что в свою очередь делает активное вмешательство государства на рынок труда объективной необходимостью и направлена на то, чтобы

теоретически показать регулирование социально-экономических отношений в ней посредством институционального подхода.

Ключевые понятие: рынок труда, рабочая сила, труд, рыночный спрос, трудовая услуга, наём на работу, контракт, заработная плата.

Abstract. This article examines the general aspects of the labor market operating with other economic markets, as well as a number of its distinctive features: firstly, its position and role in the life of society, that it occupies a central place in its importance; secondly, the interests of market participants do not always coincide; thirdly, the most important feature of this market is the inability to quickly adapt to demand, which requires a certain amount of time to be realized; fourthly, and this is no less important, the market is closely linked to health care and education services, which in turn makes active state intervention in the labor market an objective necessity and is aimed at theoretically showing the regulation of socio-economic relations in it through an institutional approach.

Key words: labor market, labor force, labor, market demand, labor service, hiring, contract, wages.

KIRISH

“Inson iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, ne’matlarni yaratuvchisi va iste’molchisigina emas, shu jarayonning barcha bosqichlarida yagona qaror qabul qiluvchi va uni amalga oshiruvchi hamdir”[2]. Bu jarayonlarning barchasi uning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyatning iqtisodiy munosabatlari tizimida aks etadi. Iqtisodiy munosabatlar tizimida esa mehnat munosabatlari alohida ahamiyatga ega, chunki ular yaratuvchilik, inson hayotining fundamental asoslari sohasidagi munosabatlardir. Bu munosabatlar mehnatning har bir shaxs hayotida, jamiyat hayotida tutgan o‘rni va roli bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim qanday shaklda bo‘lishidan qat’i nazar mehnatsiz hech narsa qilib bo‘lmaydi. XVII asrda yashagan buyuk iqtisodchi U. Petti aytganiday, boylikning onasi yer bo‘lsa, otasi – mehnatdir. Keyinchalik mehnat munosabatlari va bozorini kelib chiqishi tarixda nom qoldirgan klassik siyosiy iqtisodning buyuk vakillari F.Kene, A.Smit, D.Rikardo, K. Marks kabi allomalar nomi bilan bog‘liq.

Ular bozorga ishlab chiqaruvchi nuqtai nazaridan yondashib, qiymatning mehnat nazariyasiga asos soldilar. Keyinchalik mehnat munosabatlari

Y. Shumpeter, J.Keyns, M.Fridman, Ya.Kornai va boshqa mashhur iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Mehnat munosabatlari muammosi fikrimizcha, adog‘i yo‘q muammo, chunki resurslar cheklangan, ehtiyojlar cheksiz.

Mehnat bozori va bandlikka bag‘ishlangan tadqiqotlar, maqolalar turli-tuman va turli nuqtai nazardan yondashilgan. Xorijiy va O‘zbekistonlik iqtisodchilar mehnat bozorini nazariy jihatdan tahlil etishda boy tajribaga ega bo‘lishiga qaramasdan ilmiy doiralarda “mehnat bozori” tushunchasi bo‘yicha qizg‘in bahs-munozaralar davom etmoqda. Ayniqsa, “Ishchi kuchi bozori” va “mehnat bozori” tushunchalari tarafdorlari o‘zlarining haq ekanliklarini isbotlash uchun turli dalillar bilan isbotlashga harakat qilsalar, mehnat bozorining mazmuni ta’riflarida esa har bir tadqiqotchi o‘zining nuqtai nazarini ilgari suradi.

“Inson iqtisodiyotni asosiy harakatlantiruvchi kuchi, shuning uchun har qanday iqtisodiy o‘zgarishlar, munosabatlar jarayonining markazida turadi”[2]. Shuningdek, bozor munosabatlari, ayniqsa, mehnat bozori munosabatlarida ham.

Shu nuqtai nazardan yondashadigan bo‘lsak, nashr etilgan tadqiqotlarni, maqolalarni qator guruhlariga bo‘lishimiz mumkin. Bular ish bilan bandlikni ta’minlash va uning muammolariga;

norasmiy bandlik va uni qisqartirish muammolariga; mehnat bozori infrastrukturasini va uni takomillashtirish masalalariga; mehnat migratsiyasi masalalari va mehnat bozori bilan bog'liq boshqa muammolar tadqiq etilgan maqolalar, tadqiqotlarga ajratish mumkin.

Buning asosiy sabablaridan biri mehnat bozori bozor iqtisodiyotining fundamental iqtisodiy kategoriyalaridan biri va shu bilan birga boshqa kategoriyalarning ishtirokini ham nazarda tutuvchi murakkab kategoriya.

Ko'rinib turibdi, bir tomondan, nashrlarning yo'nalishlari ko'pligi, ikkinchi tomondan ularning nihoyatda dolzarbligi tufayli turli nuqtai nazardan yondashib yozilgan ilmiy ishlarining, jumladan ilmiy maqolalarning ko'pligi tufayli ularni tahlil qilib, fikr bildirish qiyin. Bundan tashqari keyingi paytlarda internetda respublikamizda mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari, ish haqidagi o'zgarishlar, ish o'rinlari (vakansiyalar) haqida muntazam axborot beruvchi saytlar vujudga keldi va ular ko'payib bormoqda [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shu nuqtai nazardan ilmiy tadqiqotlarning ayrimlari haqida to'xtalamiz. Diqqatimizni tortgan nashrlardan biri M.M. Mirzakarimova va Sh. Jumaqulovning "Innovatsion iqtisodiyot sharoitida aholi ish bilan bandligi tarkibining rivojlanish tendentsiyalari va ustuvor yo'nalishlari" nomli monografiyasi [4] bo'lib, unda mamlakatimiz iqtisodiyotini isloh qilish va diversifikatsiyalash, faol investitsiya siyosati yuritish hisobiga aholi bandligi sohasida davlat siyosatini amalga oshirishda erishilgan natijalar chuqur tahlil etilgan. Yangicha yondashuvlarni joriy etish, shu jumladan, davlat va xususiy biznes o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan holda mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish, ishsiz aholini, ayniqsa, yoshlarni ishga joylashtirishda samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, norasmiy bandlikni bartaraf qilish masalalari bo'yicha tahliliy mushohadalar yuritilgan va mualliflar tomonidan qator takliflar berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makro-iqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutining bosh ilmiy xodimi, i.f.d. S.V. Chepel o'z maqolasida [5] iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri mehnat sarflari ko'rsatkichi asosida an'anaviy makroiqtisodiy modellardan foydalanish imkoniyatlari tahlil etilgan. O'zbekiston misolida mehnat bozori bo'yicha mavjud statistik hisobotlarning to'liq emasligi va sifati pastligi tufayli bunday yondashuvni qo'llash cheklanganligi asoslangan. Ishonchliroq statistik hisobotga va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan sotsiologik tadqiqotlar natijalariga yo'naltirilgan muqobil yondashuvlar taklif etilgan.

Pankin P. V. o'z monografiyasida mehnat bozorini o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda mehnat migratsiyasini tartibga solish masalalariga diqqat qaratgan [6]. Uning fikricha aynan migratsiya, eng avvalo mehnat migratsiyasi globalizatsiya va iqtisodiyotning rivojlanishi tezlashuvi sharoitida mehnat bozori holati va uning rivojlanishi tendentsiyasiga katta ta'sir o'tkazmoqda. Bu o'z navbatida mehnat bozorini istiqbolda samarali rivojlanishi uchun uni tartibga solish muammosi birinchi navbatdagi dolzarb muammolardan biriga aylanadi. Ularni yechish uchun monografiyada amaliy tavsiyalar berilgan.

Ishsiz aholini o'qitish bo'yicha O'zbekiston kollejlarning infratuzilmasi va salohiyatini yaxshilash Yevropa Ittifoqining TACIS Institutsional rivojlanish bo'yicha hamkorlik dasturi asosida tayyorlangan "Mahalliy mehnat bozori talablarini qanday tadqiq etish kerak" nomli metodik qo'llanmada ta'lim muassasalari tomonidan mahalliy (lokal) mehnat bozorini baholashga o'rgatish mo'ljallangan. Unda "Mehnat bozori tahlili" metodologiyasidan foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi [7].

M.X. Saidova o'z tadqiqotida respublikamiz yoshlarini ish bilan ta'minlash masalalarining bozor iqtisodiyoti sharoitida dolzarbligi ko'rsatilib, yoshlar o'rtasida kasbiy bilimlarning, zarur

mehnat ko'nikmalari va tajribalarning etishmasligi yoshlar ishsizligining omillari sifatida qaraladi. Muammolarni hal qilish uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan [8].

Shu bilan birga tadqiqotchilarning asosiy fikri ishsizlar va bandlik masalalarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, mehnat bozori va undagi munosabatlarni nazariy jihatdan o'rganishga qaratilgan maqolalar nisbatan juda kam. Masalan, D. Mamaturdiyevaning tadqiqoti mehnat bozorida ishchi kuchi va uning o'rniga, ishchi kuchi kategoriyasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib berishga qaratilgan [9]. Z.R. Xudayberdiev o'z ilmiy maqolasida milliy va xorijiy tadqiqotlar asosida mehnat bozori obyektiga o'z munosabatini bildirgan va o'z fikrlari, gipotezalarini ilgari surgan [10].

Odatda mehnat bozori haqidagi munozara markazida aynan ana shu nazariy jihatdan talqin qilish masalalari turadi-ki va u oxir-oqibat mehnat bozoriga berilgan ta'riflarda ham aks etadi.

Mehnat bozoriga berilgan ta'riflarni ikki katta guruh – keng ma'nodagi va tor ma'nodagi ta'riflarga bo'lish mumkin. Keng ma'nodagi ta'riflar mehnat bozoriga ish kuchining takror yuzaga kelishining barcha bosqichlari: ijtimoiy-demografik, ishchi kuchi talabi va taklifi orasida iqtisodiy aloqalar, ish kuchi mehnatidan foydalanilishini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar va boshqalarni qamrab olgan holda ta'rif beriladi [11, 12]. Tor ma'noda berilgan ta'riflarda asosiy diqqat ishchi kuchi-tovarni sotish, sotib olish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida ta'riflanadi [13,7]. Ya. A. Saenko esa qisqagina qilib "mehnat bozori mehnatga talab va taklifni shakllantirish sohasidir"-deb ta'rif berali [14]. D. Tojiboyeva tadqiqotida agrar sektor unda bandlik va investitsion faoliyatning o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan va ularni hisobga olgan holda agrar sektorda investitsion muhit yaratish orqali ish o'rinlari yaratish bo'yicha takliflar berilgan. [15].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani yozishda mehnat bozorini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy-amaliy ishlarni o'rganish, qiyosiy tahlil qilish, talqin qilish usullari, ilmiy abstraktsiya, induktsiya, deduktsiya, mantiqiy xulosa chiqarish va boshqa metodlardan foydalanildi. Mehnat bozori muammolariga bag'ishlangan turli adabiyotlarni o'rganish asosida ularni guruhlariga ajratilgan holda sharhi berilgan va uning natijalariga ko'ra mazkur masalaning o'rganilmagan qirralari aniqlangan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mehnat bozori bir tomondan bozor iqtisodiyotining fundamental iqtisodiy kategoriyalaridan biri; ikkinchi tomondan, boshqa kategoriyalarning ishtirokini ham nazarda tutuvchi murakkab kategoriya. U ishchi kuchi, mehnat, mehnat resurslari, bandlik, ishsizlik, ish haqi, shartnoma, demografik asoslar kabilarni qamrab oladi. Shu bilan birga demografik holat, ishchi kuchi migratsiyasi, sog'dikni saqlash xizmatlari va ta'lim xizmatlari ko'rsatish va boshqalar bilan chambarchas bog'liq.

Nashr etilgan talqiqotlarni o'rganish asosida shunday xulosa chiqarish mumkin. **Deyarli barcha tadqiqotchilar:**

1. Mehnat bozori boshqa bozorlar kabi talab va taklif qonuni asosida faoliyat yuritishi jihatidan umumiy xususiyatlarga ega bo'lishi, shu bilan birga ulardan o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turishi;

2. U o'quvchilar va mustaqil ravishda ish (uy ishlari) bilan bandlardan tashqari barcha ish haqi olib ishlovchilar va ish o'rinlariga talabgorlarni qamrab olishi;

3. Ma'lum ishlab chiqarish jarayoni amalga oshishi natijasida, ya'ni ishchi kuchi avval iste'mol etilib, so'ngra uning haqi mehnatni bajarib bo'lgach to'lanishi, ish haqining rag'batlantiruvchi roli kattaligiga alohida urg'u berilishi;

Shu bilan birga **tadqiqotda qo'yilgan maqsadlarga ko'ra:**

bozor (birinchi marta mehnat faoliyatini boshlaganlar), ikkilamchi bozor (bandlik xizmati tavsiyalariga ko'ra qayta tayyorlovdan o'tganlar) ni ham kiritish mumkin.

— mehnat bozoriga turli tamoyil, mezonlar, printsiplar asosida tabaqalashuviga ko'ra yondashsak, tarmoqlar, mutaxassisliklar, oddiy va murakkab va hokazo mehnat bozorlari tarzida tahlil qilish mumkin.

Bulardan tashqari boshqa mezonlar, tamoyillar orqali mehnat bozorini tahlil qilib uning muammolarini aniqlash mumkin. Bulardan umumiy xulosa chiqaradigan bo'lsak, mazkur bozorning nihoyatda murakkabligiga va muammolarning vujulga kelishi sabablari xilma-xilligiga yana bir bor amin bo'lamiz.

Jadval ma'lumotlari asosida: a) mehnat munosabatlarini muvofiqlashtirish, tartibga solish uchun davlat nazoratining naqadar zarurligini his qilamiz; b) mehnat munosabatlarini tartibga solishda davlat siyosatini amalga oshirish uchun birinchi navbatda rasmiy institutlar va institutsional muhit yaratilishini talab qilishini tushunamiz; v) ularni qabul qilishda mehnat bozorining obyekti, qo'yilgan maqsad, mavjud muammo va uni yechish va boshqalarni mikro, makro miqyos jihatidan o'rganish va umumiy xulosa chiqarishni talab qilishi namoyon bo'ladi.

Keyingi yillarda qator mehnat munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan rasmiy institutlar yaratishga alohida diqqat qaratildi. Jumladan, "Mehnat kodeksi"¹

"Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni² yangilangan tahriri e'lon qilindi. "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'R Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.³ "Kasaba uyushmalari to'g'risida"⁴ qonun qabul qilindi.

O'R Prezidentining "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁵ «Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi⁶ qarorlari qabul qilindi.

Mehnat bozorida vujudga kelgan mummolarni bartaraf qilish uchun mehnat bozorining boshqa bozorlardan tubdan farq qilishini, uning o'ziga xos jihatlariga alohida diqqat qaratishni obyektiv zarur qilib qo'yadi.

Mehnat bozori ma'lum darajada boshqa bozorlar bilan o'xshashligi bo'lsada, ulardan mazmun-mohiyati bilan tubdan farq qiladi. Tadqiqotimiz natijasi sifatida uni quyidagicha aks ettirish mumkin (1-jadval):

2-jadval.

Mehnat bozorining boshqa bozorlar bilan umumiy va tubdan farq qiluvchi jihatlari va xususiyatlari

Mehnat bozori va boshqa bozorlarning umumiy tomonlari:
1. Mehnat bozori boshqa bozorlar kabi ijtimoiy-iqtisodiy tizimning alohida muhim unsuri va resurslar taqsimotining muhim mexanizmi;
2. Bozorlar, jumladan, mehnat bozori talab va taklif qonuni asosida faoliyat yuritadilar;
3. Barcha bozorlarda, shuningdek mehnat bozorida ham munosabatlar sub'-ektlarning ixtiyoriy, ongli ravishdagi tanlovlari asosida amalga oshiriladi;
4. Tomonlar mavjud institutlar doirasida erkin tanlov asosida o'zaro kelishuv – shartnoma orqali

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>

² <https://www.lex.uz/ru/docs/-5055690?ONDATE=30.04.2023>

³ <https://lex.uz/docs/-3031427>

⁴ <https://lex.uz/docs/-4631281>

⁵ <https://lex.uz/acts/-3824637>

⁶ <https://lex.uz/uz/docs/4997972>

o‘z maqsadlarini amalga oshiradilar;		
5. Tanlov va qaror qabul qilishda har ikki tomon huquqlari teng va ular muhofaza qilinadi.		
Mehnat bozori va boshqa bozorlarning tubdan farq qiluvchi jihatlari		
Mezonlar	Mehnat bozori	Boshqa bozorlar
Talab	Firmalar tomonidan	Aholi tomonidan
Taklif	Mehnat resurlari tomonidan	Firmalar tomonidan
Qatnashuvchi subyektlar	Mehnat xizmatini taklif qiluvchilar va unga talabgor firmalar	Tovar va xizmatlarni taklif etuvchi firmalar va aholi
Oldi-sotdi obyekti	Ishchi kuchini sarflab, amalga oshiriladigan mehnat xizmat-lari	Turli mahsulotlar, xizmatlar
Mulk huquqi	Mulk huquqi o‘zida qoladi	Mulk huquqi almashadi.
Natija	Ish beruvchi mehnat natijalari egasiga aylanadi. Mehnat qilgan ish haqi oladi.	Xaridor tovar, xizmat ega-siga, sotuvchi pul egasiga aylanadi.
Bozor talabiga moslashuvchanlik	Bozor talabiga tezda mosla-shib bo‘lmaydi. Vaqt kerak.	Bozor talabiga tezda moslashish mumkin.
Boshqaruv munosabatlari	Asimmetrik. qaror qabul qilish huquqi bir tomonda.	Simmetrik. qaror qabul qilishda har ikki tomon teng.
Agentlik munosabatlari	Topshiriq (buyruq) beruvchi – prinsipal, bo‘ysinuvchi, top-shiriqni bajaruvchi – agent	Har ikki tomon teng, buyruq beruvchi va bo‘ysinuvchi topshiriq bajaruvchi yo‘q.
Mehnat bozorining o‘ziga xos xususiyatlari	Mehnat bozorining demografik xususiyatlari.	
	Aholining iqtisodiy faollik darajasi bilan bog'liq xususiyatlari.	
	Ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq xususiyatlari.	
	Mehnat bozorining ijtimoiy fondlar, jumladan, Pensiya jamg‘armasi, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi, mehnat muhofazasi va shu kabilar bilan bog‘liqligi	
	Ta‘lim va sog‘likni saqlash tizimi bilan chambarchas bog‘liqligi	
	Kasaba uyushmalarining muhim rol o‘ynashi	
	O‘z-o‘zini band qilish munosabatlari	

2-jadval ma'lumotlariga diqqat qaratsak, mehnat bozorining bir tomondan boshqa bozorlarga ma'lum darajada o'xshashligini; ikkinchi tomondan esa tubdan farq qilishini; shu bilan birga **mehnat bozorining o'ziga xos xususiyatlari** borligini ko'ramiz. Bu esa mehnat munosabatlarini tartibga solishda mehnat bozorining ana shu jihatlari hisobga olishni zarur qilib qo'yadi. Boshqa bozorlarda talabni odamlar, aholi, taklifni esa firmalar shakllantiradi. Mehnat bozorida jarayon, vaziyat boshqacha, ya'ni aholi, to'g'rirog'i mehnat resurslari o'z mehnat xizmatlarini taklif qiladilar. Firmalar turli – tuman tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish uchun ish kuchiga muhtoj. Demak talabni ular shakllantiradi. Mehnat qilish qobiliyatiga ega kishilar esa o'z navbatida ularga o'z ko'nikmalari, malakalari bilan xizmat ko'rsatishga tayyor, ya'ni ular taklifni shakllantiradilar.

O'z navbatida talab va taklifga turli-tuman omillar ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat bozorida eng munozarali mavzu – bu oldi-sotdi obyekti, ya'ni nima sotiladi, degan savolga javob xususida bo'lib, tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan fikrlarni inobatga olgan xolda birinchi navbatda ishchi kuchi tushunchasiga diqqat qaratamiz.

Ishchi kuchi – bu insonning jismoniy va intellektual qobiliyatlari-ning majmui, jamul-jami bo‘lib, uni insondan ajratib bo‘lmaydi. Demak, uni tom ma’noda oldi-sotdi ob’ekti sifatida ko‘ra olmaymiz. Ishchi kuchini klassiklar, xususan K. Marks tomonidan tovar sifatida talqin qilishning bosh maqsadi – bu ishchini kapitalist tomonidan ekspluatatsiya qilinishini, uni yollanma qullik ekanligini asoslab berishga qaratilgan.

Ishchi kuchini inson-xodimdan ajratib bo‘lmas ekan, u doimo uning egasi va tasarruf qiluvchisi bo‘lib qoladi.

Mehnat esa bu jarayon, ya’ni ishchi kuchi, boshqacha aytganda insonning jismoniy va aqliy qobiliyati asosida energiyasini sarflab, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga ko‘ra ko‘zlagan natijasiga erishish jarayonidir. Insonning mehnat layoqati, boshqacha aytganda potentsial imkoniyatini ishga solishdir. Demak mehnat ham oldi-sotdi manbai bo‘laolmaydi.

Mehnat bozorining o‘ziga xos xususiyati shundaki, **birinchidan**, bu yerda oldi-sotdining obyekti mehnatning o‘zi emas, balki mehnat xizmatlari va uning natijasidir. Ishchi kuchini egasidan ajratib bo‘lmaydi, uning o‘zida qoladi u kuchini sarflagan mehnat xizmatlari natijasi sotiladi. Ana shu natijaga ega bo‘lish uchun firma ma’lum bir muddatga mehnat xizmatlari ko‘rsatuvchining roziligini olishi va u huquqiy jihatdan mustahkamlanishi zarur. Manfaatlarning doimo mos kelavermasligi uni huquqiy jihatdan mustahkamlashni talab qiladi. Ikkinchi tomondan, mehnat xizmatlari ko‘rsatuvchi o‘z mehnati natijasi evaziga haq olishi, ya’ni taqdirlanishi asosida rozilik beradi va u ham uni huquqiy jihatdan mustahkamlanishi tarafdori. Ana shu asosda har ikki tomonning ixtiyoriy ravishdagi roziligi, kelishuvi aks etgan huquqiy hujjat – shartnoma tuziladi. Ishga yollash munosabatlari va uning har ikki tomon – ishga yollovchi va yollanuvchi o‘rtasidagi o‘zaro kelishuv munosabatlari va o‘zaro tuzilgan mehnat shartnomasi – bitimda ifodalanishi va uning amalga oshirish munosabatlarini ifodalaydi.

Bu bitimlar odatda ko‘pincha kunlik yoki juda qisqa muddat uchun og‘zaki, uzoq muddat yoki muddati ko‘rsatilmagan shartnomalar yozma ravishda tuziladi. Shu bilan birga mehnat xizmatlari ko‘rsatuvchi – ya’ni xodimga ish beruvchi bilan munosabatlarini o‘z xohishiga ko‘ra to‘xtatish imkoni qoladi.

Ikkinchidan, mehnat resurslari miqdori, tarkibi, mutaxassisligi, kompetentligini bozor talabiga tezda moslashtirib bo‘lmaydi. Buning uchun uzoq vaqt kerak. U demografiya, sog‘likni saqlash, ta’lim – kadrlar tayyorlash bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun talab va taklifni moslashtirish sekinlik bilan amalga oshadi.

Mehnat bozorini tartibga solishda davlatning aralashuvining obuektiv zaruriyati uni demografik siyosat, ijtimoiy xizmatlar bozori, eng avvalo sog‘likni saqlash va ta’lim xizmatlari bilan bog‘liqligida ham ko‘rish mumkin.

Uchinchidan, mehnat bozori boshqa bozorlardan farqli ravishda boshqaruv va agentlik munosabatlari, boshqaruv-bo‘ysinish munosabatlariga tayanadi. U asimmetrik bo‘lib, qaror qabul qilish huquqi bir tomonda bo‘ladi. o‘zaro hamkorlik munosabatida boshqarish-bo‘ysinish munosabati asosiy hisoblanadi. Tomonlardan biri o‘z xohish-irodasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruq shaklida bildiradi, bu esa ikkinchi tomon uchun ruxsat etilgan harakatlarni cheklashni o‘z ichiga oladi. Shuni yodda tutish kerakki, munosabatlarning bunday shakli tomonlarni majbur qilish orqali emas, ularning ixtiyoriy, ongli ravishdagi tanlovlari natijasidir.

Amerikalik taniqli iqtisodchi Frenk Xeyneman Nayt fikricha, ishga yollanuvchilar bu riskdan qochuvchilar, tadbirkorlar esa – riskka neytrallar va ishqibozlardir. Ishga yollanuvchilar barqaror ish haqi olish, turli o‘zgarishlar, tasodifiy tebranishlardan saqlanish evaziga tadbirkorlar nazoratiga bo‘ysinib ishlashga rozi bo‘ladilar [15].

Neonstitutsional nazariyasi nuqtai nazaridan yondashsak, mehnat bozorining markazida – ikki tomonning: ishga yollovchi va yollanuvchining kelishuvi asosida tuzilgan shartnoma orqali o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirishlarini tartibga solish munosabatlari turadi.

Bu murakkab mehnat bozorida boshqa munosabatlarga e‘tibor berilmaydi degani emas, buni 1-rasm ma‘lumotlari ham ko‘rsatib turibdi.

Respublikamizda mehnat munosabatlari **O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi [1]** (kuchga kirish sanasi 30.04.2023) va boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlar orqali tartibga solinadi. Kodeks xodimlar, ish beruvchilar va davlat manfaatlarining muvozanatini ta‘minlash hamda ularni muvofiqlashtirish asosida yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Ushbu kodeksning 12-bobi mehnat shartnomasi munosabatlariga qaratilgan bo‘lib, uning 103-moddasida **Mehnat shartnomasining tushunchasi va taraflari bayon qilinadi**: “Mehnat shartnomasi xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi taraflarning o‘zaro huquqlari hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuv bo‘lib, unga muvofiq xodim ish beruvchining manfaatini ko‘zlab, ushbu kelishuvda belgilangan mehnat vazifasini uning rahbarligi va nazorati ostida shaxsan bajarish, ichki mehnat qoidalariga rioya etish majburiyatini, ish beruvchi esa xodimga shartlashilgan mehnat vazifasi bo‘yicha ish berish, xodimga ish haqini o‘z vaqtida hamda to‘liq miqdorda to‘lash, mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda va ushbu kelishuvda nazarda tutilgan mehnat sharoitlarini ta‘minlash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi”[1]

Davlat ish haqi darajasiga aralashmaydi, lekin **ish haqining minimal darajasini belgilash orqali uning yashash minimumiga mos kelishini nazorat qiladi**. Masalan, 2023 yil 1 dekabrda boshlab O‘zbekiston hududida mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori — oyiga 1 050 000 so‘m belgilangan bo‘lsa,⁷ 2024 yil 1 sentyabrdan boshlab — oyiga 1 155 000 so‘m etib belgilandi.⁸

Hozirda eng muhim mummolardan biri ana shu minimum darajasini belgilashdir. Bu borada ham iqtisodchilar o‘rtasida munozara davom etmoqda.

Lekin, bundan tashqari bevosita kontrakt-shartnoma munosabatlari qo‘llanaverilmaydigan o‘zini-o‘zi bandligini ta‘minlash, yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish, xususiy, oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik kabilar borki, ularda ham mehnat munosabatlari asosiy o‘rin tutadi.

Mehnat bozori atamasini qo‘llashning asosiy sabablaridan biri Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan rasman qabul qilingani (xalqaro atamashunoslikda tasdiqlanishi);

2. Mehnat bozori tushunchasi eng avvalo undagi barcha munosabatlarning mehnat jarayoni bilan bog‘liq ekanligini ifodalashi;

3. Bozorda yollovchi va yollanuvchilar mustaqil, ixtiyoriy ularning manfaatlari doimo birlariga mos kelavermaydi. Mehnat bozori esa o‘zida yollovchi va yollanuvchilar manfaatiga muvofiq keluvchi ijtimoiy munosabatlar tizimini aks ettiradi va bu munosabatlar bu borada davlat siyosati: bevosita va bilvosita ta‘sir etuvchi tadbirlar orqali tartibga solinishini nazarda tutadi. Shuningdek, o‘zini-o‘zi bandligini ta‘minlash, yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish, xususiy, oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik va boshqalarni ham.

Neonstitutsional nazariya vakillari ixtiyoriy tuzilgan mehnat shartnomasini har ikki tomon ish beruvchilar va ishga yollanuvchilar tomonidan suiste‘mol qilinishi mumkinligini asoslab beradilar.

Mehnat bozori quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

⁷ <https://lex.uz/ru/docs/6665682?ONDATE=01.02.2024>

⁸ <https://lex.uz/docs/7059431>

- ishga yollovchi va ishga yollanuvchilar uchrashuvini tashkil etish;
- mehnat bozorida ish beruvchilar va ish izlagan xodimlar o'rtasida raqobatni ta'minlash;
- talab va taklifga ko'ra ish haqining muvozanatli stavkalarini belgilash;
- bandlik masalalarini hal etish;
- ijtimoiy qo'llab quvvatlash va boshqalar.

Shunday qilib, institutsional yondashuv mehnat bozorini ixtiyoriy kelishuv – shartnoma asosida har ikki tomonning mehnat natijalariga bo'lgan munosabatini, ya'ni huquqning almashinuvi va bu almashish bahosi ish haqi ekanligiga diqqat qaratadi. Ish haqi esa har ikki tomon – ish beruvchining ham ishga yollanuvchining ham manfaati bilan bog'liqligi va ular doimo mos kelavermasligi, turli omillarning ta'sir etishi, jumladan har ikki tomonning shartnoma majburiyatlarini suiste'mol qilish imkoniyati mavjudligi uning miqdorini belgilash, mehnat sharoiti masalalarini kun tartibining doimiy dolzarb masalalaridan biriga aylantiradi.

XULOSA

1. Mehnat bozorining barcha bozorlardan tubdan farq qilishi bu bozorga davlatning faol aralashuvini obyektiv zaruriyatga aylantiradi. Mamlakatimizda mehnat bozorining murakkab tarkibini hisobga olgan holda uning barcha bo'g'inlarini hamohang ishlashi uchun qabul qilingan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar – rasmiy institutlar asosida zarur institutsional muhit yaratilmoqda va u borgan sari takomillashtirilmoqda, deb ayta olamiz.

Mehnat bozori nihoyatda murakkab bo'lib, uning eng dolzarb muammolari: 1) ish bilan bandlik; 2) ish haqi darajasi va sharoiti hamda uning mehnat shartnomalarida aks etishi, atrofida uni tuzilgunga qadar va tuzilgach yuz beradigan munosabatlarni tartiblash munosabatlari mexanizmlari turadi.

Ishga yollovchilar bilan yollanuvchilarning manfaatlari mos tushavermasligi natijasida har ikki tomon uchun ham shartnoma majburiyatlarini suistimol qilish imkonitatlari mavjud. Ishga yollanuvchilarga nisbatan yollovchilarning kamligi ularning mehnat bozorida monopol mavqega ega bo'lishlariga olib keladi.

Mehnat shartnomalariga rioya qilinishini ta'minlashda kasaba uyushmalarining rolini yanada oshirish, o'rta va yirik korxonalarda ishlovchilardan tashqari barcha mehnat resurslarini qamrab olishiga ahamiyat berish lozim.

Ish haqi minimumini reallikka yaqinlashtirish, respublikamizda ish kuchiga talabning taklifga nisbatan pastligi ish beruvchilarning monopol mavqeiga ega bo'lishiga va u mehnat shartnomalari tuzishga ham ta'sir etishini hisobga olish, buning uchun oylik **yashash minimumi** darajasini aniqlash va inflyatsiya darajasiga ko'ra yangilab turish zarur. Chunki aholining farovonligi, tabaqalanish darajasi nafaqat bandlik, balki ana shu minimum darajasiga va boshqa qabul qilingan huquqiy-me'yoriy cheklovlariga ham bog'liq. Shuning uchun yangi cheklovlar, o'zgartirishlar kiritishda mehnat bozorining ana shu murakkablik darajasini hisobga olish va ularning mosligini ta'minlashga ahamiya berish kerak.

2. Mehnat bozorida talab mehnat natijasiga qaratilar ekan, kadrlar tayyorlash tarkibi va tez o'zgaradigan bozor talablariga moslashish qiyinligini, mehnat bozorining boshqa bozorlardan tubdan farq qilishini bu erda vaqt omili nihoyatda muhim rol o'ynashini hisobga olgan holda yoshlarni fundamental bilim olishiga, ayniqsa, maktab hamda maxsus o'rta ta'lim bo'g'ini orqali professional kompetentli ishchi kuchi tayyorlashga diqqatni kuchaytirish kerak.

Ma'lumki, 1997 yili "Ta'lim to'g'risida" qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilingunga qadar bu vazifani maxsus o'rta ta'lim beruvchi texnikumlar bajargan va muvofiq ravishda kadrlar tayyorlashi bilan amaliyotda o'zini oqlagan. Yangi qonun qabul qilinishi bilan kollejlarda va

akademik litseylar tashkil etildi va ularni majburiy o'rta maxsus ta'limga aylantirildi. Amaliyot sinovida bu tizimning kamchiliklari aniqlandi va mehnat bozorining xususiyatlarini hisobga olish darkorligi yana bir bor isbotlandi.

O'R Prezidentining 2019 yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5812-son Farmoniga⁹ ko'ra tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rin egallashlaridagi kamchiliklar hisobga olinib, uch darajada: kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlar darajasida tayyorlanadigan bo'ldi. Amaliyotda mehnat bozorining naqadar murakkabligi va o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, bu tizim ham zamonaviy bozor talabini qonlira olmayotgani, tayyorlanayotgan kadrlarning tarkibi va sifatini ana shu talablarga moslashtirish zaruriyatini hisobga olib, barcha kollej va kasb-hunar maktablarini texnikumlarga aylantiriladigan bo'ldi, Bu o'zgarishlar nafaqat xorij, balki uzoq yillar davomida to'plagan o'z milliy tajribamizni ham hisobga olish imkonini beradi.

3. Raqamli iqtisodiyotga o'tish sezilarli darajada **mehnat bozorini o'zgartiradi.** Mutaxassislar fikricha hayotning barcha sohalariga axborot texnologiyalarining kirib kelishi bilan ish beruvchilar nuqtai nazaridan raqamli ko'nikmalar juda muhim ahamiyatga ega va bu borada keng ko'lamli o'zgarishlar kutilmoqda.

Asosiy kompetentsiya kelajakdagi kompaniyalarning raqobatdosh ustunliklarini aniqlash katta ma'lumotlar (ingl.. big data) tahliliga aylanadi. Bu o'z navbatida kelajakda qanday mutaxassisliklarga talab ortadi? Yoshlarni qanday kasblarga o'rgatish zarur?

Bu muammolarni yechish hamda ish haqining real darajasini belgilash uchun ilmiy tadqiqot institutlarini keng jalb etish zarur, chunki individual tadqiqotchilarning imkoni cheklangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksi. <https://lex.uz/docs/6257288>
2. Tojiboeva D. Institutsional iqtisodiyotda inson modeli – barkamollikka intilishning asosi sifatida. / Zamonaviy ta'lim/ Sovremennoe obrazovaniya. 2022, №9. 10, 15-bet.
3. https://cbu.uz/upload/iblock/169/p382l89iqnhlj0be4p0dh43tfzkgv726/Mehnat-bozori-sharhi_2-chorak-2024-y..pdf; <https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-mehnat-bozorining-asosiy-korsatkichlari>; <https://ru.linkedin.com/pulse/-antal-biglova-hnzxc>; https://cbu.uz/upload/iblock/bff/dk3w8ofpcoj56r47i1h40j1v60vcj4fy/Rynok_Truda_2023g..pdf
4. Mirzakarimova M.M., Jumaqulov Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida aholi ish bilan bandligi tarkibining rivojlanish tendentsiyalari va ustuvor yo'nalishlari. //Monografiya. –T.: "Navro'z" nashriyoti, 2021.
5. Чепель С.В. Проблемы анализа и прогнозирования занятости в странах с формирующимися рынками: пример Узбекистана // Социальные новации и социальные науки. – 2024. – № 2. – С. 49–62.
6. Панькин П. В. Регулирование рынка труда с учетом особенностей трудовой миграции: Монография. Издательство: Елецкий государственный университет им. И. А. Бунина, 2019. -198 с.
7. Как исследовать потребности местного рынка труда https://www.dvv-international-central-asia.org/fileadmin/files/central-asia/documents/Publications_and_other_media/Publications/art-ru.pdf
8. Саидова М.Х. Молодёжная безработица на рынке труда Узбекистана: проблемы и некоторые пути решения./ Иқтисод ва молия / Экономика и финансы. № 9, 2019. -с. 43-47

⁹ <https://lex.uz/uz/docs/4500926?ONDATE2=04.07.2023&action=compare>

9. Mamaturdieva D. R. Mehnat bozorida ishchi kuchi kategoriyasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansy, № 5, 2011. -B. 78 – 83.
10. Xudayberdiev Z.R. Mehnat bozorining ob’ekti xususida ilmiy yondashuvlar, gipoteza va xulosalar. / Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansy. № 12, 2018. -B. 31-38.
11. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. -T.: “Mehnat”, 2009. – 105-b; Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Darslik. -T.: “Fan va texnologiya” 2012 . 95-b.;
12. Экономика труда: Учебник /Под ред. проф.П.Э.Шлендера, проф. Ю.П.Кокина. - М.:Юрист 2002; Шлендер П.Э., Кокин Ю.П. -М.: Магистр, 2010. -686.
13. Тула Н.Б. Рынок труда - важный сектор рыночной экономики / *“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2015 йил;*
14. Саенко Я.А. Теоретические основы регулирования рынка труда и занятости. *Электронное научное издание «Ученые заметки ТОГУ» 2018, Том 9, № 1, С. 100 – 104*

Erkinxojiev Ismoiljon Ikromjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ismoiljon.erkinkhojiev@gmail.com

mustaqil izlanuvchisi

AGRAR SOHADA MOLİYAVIY XATARLARNI KAMAYTIRISHDA SUG'URTALASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Эркинхожиев Исмоилжон Икромжон угли

Ташкентского государственного экономического университета

ismoiljon.erkinkhojiev@gmail.com

соискатель

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАХОВАНИЯ ПРИ СНИЖЕНИИ ФИНАНСОВЫХ РИСКОВ В АГРАРНОЙ СФЕРЕ

Erkinkhojiev Ismoiljon

Tashkent state university of economics

ismoiljon.erkinkhojiev@gmail.com

researcher

IMPROVEMENT OF THE INSURANCE SYSTEM WHILE REDUCING FINANCIAL RISKS IN THE AGRICULTURAL SECTOR

Annotatsiya: Ushbu maqolada agrar sohada sug'urta tizimining amaldagi holati va mamlakatimizda agrar sohasida sug'urta xizmatlarini ommalashtirish, ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda hosilni sug'urtalash tizimini takomillashtirish zaruriyati xususida fikrlar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: sug'urta, moliya, kredit, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, imtiyoz, sug'urtalash tizimi.

Аннотация: В статье рассматривается современное состояние системы страхования в аграрном секторе, а также необходимость популяризации страховых услуг в аграрном секторе в нашей стране и совершенствования системы страхования урожая на основе передового зарубежного опыта.

Ключевые слова: страхование, финансы, кредит, государственная поддержка, льготы, система страхования.

Abstract: The article examines the current state of the insurance system in the agricultural sector, as well as the need to popularize insurance services in the agricultural sector in our country and improve the crop insurance system based on advanced foreign experience.

Keywords: insurance, finance, credit, government support, benefits, insurance system.

KIRISH

Agrar sohaning ishlab chiqarish uzluksizligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda xatarlarni boshqarishning eng samarali usuli bu sug'urta ekanligini ko'rsatmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar hosiliga zarar yetkazuvchi (tabiiy ofatlar oqibati) hamda nobud qiluvchi (kuchli yomg'ir, do'l, suv toshqini, dovul yoki zararkunandalar) omillar sabab jiddiy

moliyaviy zarar ko'rmogda. Sohada asosan kreditni qaytarmaslik xavfini sug'urtalash amaliyoti keng foydalanilayotgan bo'lsada, bunday sug'urta faqat imtiyozli kreditlarni qaytarilishiga xizmat qilib, yetishtiriladigan hosil sug'urtasiz qolib ketmogda. Mamlakatimizda 2030 yilga kelib ularning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi 1,2 baravar ortishi taxmin qilinmogda. Bugungi kunda butun dunyoda kuzatilayotgan global iqlim o'zgarishi sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda turli qiyinchiliklar yuzaga kelmogda. Xususan, 2023 yilgi qish mavsumidagi anomal sovuq harorat ta'sirida respublikadagi 9,1 ming gektar bog', 4 ming gektar uzumzorni sovuq urushi oqibatida 207 ming tonna hosil nobud bo'lgan.

2020-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri tarmoqni boshqarishda davlatning rolini kamaytirish va investitsiya jozibadorligini oshirishdan iborat. Bu yo'nalishda agrar soha tarmog'larining strategik ustuvor yo'nalishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kreditlash va sug'urtalash mexanizmlarini takomillashtirishdek vazifalar turibdi.

Jahonda mamlakatlarida milliy iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida sug'urta faoliyatidan samarali foydalanishga yo'naltirilgan qator tadqiqotlar olib borilmogda. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavf xatarlar kuchayishi, ekstremal va texnogen hodisalar natijasida qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligining pasayishi, chorva yaylovlarining qisqarib borishi hamda chorva hayvonlari uchun ozuqa bazasining kamayishi bilan bog'liq hodisalardan sug'urtalash, agrar soha korxonalari faoliyatini sug'urtalashning huquqiy manfaatlarini himoyalashning metodologik asoslarini ishlab chiqish, agrosug'urta sohasida ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari bo'yicha tabaqalashtirilgan tariflarni ishlab chiqishda aktuar hisobni yuritish, agrar soha korxonalarini sug'urtalashni strategik jihatdan rivojlantirish borasidagi ilmiy-tadqiqotlar ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Xorij davlatlarining iqtisodchi olimlaridan Y.N.Paraxin, A.V.Nikitin, N.V.Kirillova, N.M.Yashina, G.A.Nasirova, M.V.Arshba, D.I. Yegorov, A.A.Nazarova, V.V.Pokidova, I.P.Xominich, Y.V.Dik, V.B.Gomellya, Y.T.Axvlediani, T.I.Prosandeeva, Y.A.Spletuxov va boshqalar tomonidan ham agrar sohani turli risklardan sug'urtalash holati o'rganilganligi, agrar soha korxonalarini sug'urtalashda subsidiyalashni amalga oshirish yo'llari va agrar sohani barqaror rivojlantirishda sug'urta tizimini rivojlantirishning ayrim yo'nalishlari tadqiq etilgan.

O'zbekistonda sug'urta faoliyatini rivojlantirish masalalari doirasida mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Q.A.Chariyev, X.M.Shennaev, S.A.Umarov, Q.M.Qo'ldoshev, R.S.Azimov, A.U.Burxanov, T.M.Baymurotov, A.S.Nurullaev, I.X.Abduraxmonov, X.I.Boev, N.A.Mavkulova, I.G'.Kenjaev, G.T.Xalikulova, B.O'.Haqberdiev, D.N.Baymirzaev, J.T.Nosirov, D.A.Baratova, A.R.Vaxobovlarning ilmiy ishlarida umumiy sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari tadqiq etilgan. Mamlakatimizda agrar soha korxonalarini sug'urtalash faoliyatini rivojlantirish muammosining dolzarbligi va mazkur muammoning tadqiqot ishlarida hamda sohaga tegishli ilmiy ishlarda yetarli darajada o'rganilmaganligi ushbu muammoni tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqot metodologiyasining asosini agrar sohada moliyaviy xatarlarni kamaytirishda sug'urtalash tizimini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot olib borgan yetakchi mahalliy va xorijiy iqtisodchilarning ishlari tashkil etadi. Nazariy kuzatish, ilmiy abstraksiya va qiyosiy tahlil, statistik, monografik kuzatuv va boshqa tadqiqot usullaridan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA.


Agrar sohani sug'urtalash qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishini ta'minlash vositalaridan biri bo'lib, unga nafaqat qishloq xo'jaligi subyektlarining iqtisodiy ahvoli, balki qishloq aholisining ijtimoiy ahvoli ham bog'liq. Qishloq xo'jaligi, ayniqsa, qishloq xo'jaligi ekinlari tavakkalchiligini sug'urtalashni tashkil etish, maqbul shart-sharoitlar va modellarni topish, shuningdek, butun qishloq xo'jaligi sug'urtasi tizimini ham, qishloq xo'jaligini sug'urtalash tizimini ham optimallashtirish masalalari muhim ishlab chiqarish, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati sharoitlari va natijalarining tasodifiy, birinchi navbatda, ob-havo omillariga chambarchas bog'liqligi tufayli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarixan O'zbekiston milliy iqtisodiyotining yuqori xavfli tarmoqlaridan biri bo'lib kelgan. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish elementi sifatida agrar soha sug'urtasi tizimini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega.

Bugungi kunda respublikada qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha faqat ikkita sug'urta kompaniyasi – «O'zagrosug'urta» AJ va «Semurg Insurance» kompaniyasi xizmat ko'rsatmoqda. Ta'kidlash joizki, «O'zagrosug'urta» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi O'zbekistondagi yirik universal sug'urta kompaniyalaridan biri bo'lib, keng filiallar tarmog'i, jumladan, 13 ta hududiy direksiya, 174 ta tuman va shahar bo'limlari hamda 20 ta sug'urta agentliklarining sho'ba korxonalari orqali samarali faoliyat yuritmoqda. «SEMURG INSURANCE» AJ QK sug'urta sohasini rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston bozorining yangi hamkori hisoblanadi. Bu xalqaro darajadagi professionallar va mahalliy sug'urta mutaxassislariga ega universal sug'urta kompaniyasi bo'lib, Respublikamiz hududlarida 25 ta filiallari mavjud. 2016-2020 yillar davomida faqat «O'zagrosug'urta» AJda sug'urta holatlari 50 foizga qisqardi va 7,0 ming birlikdan sal ko'proqni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda esa sug'urta to'lovlari 1,2 baravarga oshishi bilan kompaniyaning rentabelligi 2016 yildagi 20,9 foizdan 2020 yilda 51,3 foizgacha oshdi. Ushbu kompaniyalarning asosiy xizmatlari qo'yidagilardan iborat:

- bog'larning past mahsuldorligi natijasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy yo'qotishlarini sug'urtalash;
- do'l yog'ishi natijasida hosilning pastligi sababli qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy yo'qotishlarini sug'urta qilish;
- noqulay tabiat hodisalari, shu jumladan ayoz;
- sug'orish manbalarida suv yetishmasligi va suv sathining pastligi; kasalliklar va zararkunandalar;
- yong'in va chaqmoq urishi;
- uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari va boshqa xavflar;
- past hosildorlik natijasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy yo'qotishlarini sug'urta qilish;
- tabiiy ofatlar natijasida daraxtlar, tokzorlar va ularning ko'chatlari shikastlanishi yoki nobud bo'lishidan sug'urta qilish va hokazolar.

Mamlakatimizda hozirgi kunda sug'urta xizmatlarini taqdim etib kelayotgan asosiy sug'urta kompaniyasi bu – «O'zagrosug'urta» AJ sanaladi. Tahlillarga ko'ra, qishloq xo'jaligi sug'urta xizmatlari bozoriga ta'sir qilgan bir qancha omillar xizmatlar hajmi va qoplash darajasini keskin tushish holatida ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, 2012 yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini sug'urtalash xizmatlari bo'yicha jami 8,6 mlrd. so'mlik sug'urta mukofotlari tushumi shakllantirilgan. Ushbu ko'rsatkich 2016 yilgacha o'sish tendensiyasida bo'lgan va ushbu davrda 45,6 mlrd. so'mgacha o'sgan. 2020 yil yakunida dunyoda yuzaga kelgan pandemiya natijasida

mamlakatimizda qishloq xo'jaligini sug'urtalash xizmatlari hajmida keskin kamayish tendensiyasi boshlangan. Ushbu keskin o'zgarish agrosug'urta bozori konyunkturasini tubdan o'zgartirib yuborganligini ko'rish mumkin (1-rasm).



1-rasm. “O‘zagrosug‘urta” AJda 2012-2023-yillarda qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi xizmatlarini ko‘rsatishdan tushgan sug‘urta mukofotlari tushumi va sug‘urta to‘lovlari hajmi, mln.so‘mda.

2022-2023 yillarda sohaga taqdim etilgan sug'urta mukofotlari hajmi ortgan va ularning deyarli 90 foizi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga ajratilayotgan jami imtiyozli kredit mablag'larini sug'urtalash xizmatlari natijasida shakllantirilgan. Bundan tushunish mumkinki, hosil va ishlab chiqarishni bevosita sug'urtalash bozor uchun o'z jozibadorligini yo'qotgan. Buning asosiy sababini o'tgan yillarda yuzaga kelgan bozor talabi pasayishi moliyaviy yo'qotishlarni keltirib chiqarishi bilan izohlanadi. Ushbu holat qishloq xo'jaligining o'ziga xos talab va xususiyatlarini e'tiborga olgan holda alohida yondashuvlarni ishlab chiqish zaruriyatini asoslaydi. Sug'urta mukofotlari bo'yicha yuzaga kelgan ushbu salbiy tendensiyani sug'urta to'lovlari hajmidagi o'zgarishlarda ham ko'rish mumkin. Masalan, sug'urta shartnomalari 2012 yilda 37 443 donani, 2023 yilda esa deyarli 5

barobar pasayib 7 320 donani tashkil etgan. Shartnomalarning soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 2016 yilda qayd etilgan bo'lib, 58 048 donani tashkil etgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agrar sohada qishloq xo'jaligi sug'urtasining rivojlanmaganligining asosiy sabablari quyidagilardir: optimal va moslashtirilgan sug'urta tizimining yo'qligi, sug'urtalashda mintaqaviy, hududiy va tarmoq xususiyatlarining to'la hisobga olinmasligi, qishloq xo'jaligi sug'urtasi tizimlarining normativ-huquqiy va iqtisodiy jihatlar haqida bilimlarning yetishmasligi, qishloq xo'jaligi sug'urtasini amalga oshirish tizimi va mexanizmining rivojlanmaganligi, qishloq xo'jaligini sug'urtalash tizimida raqamlashtirish va IT-texnologiyalar tizimini joriy etishning past darajasi, innovatsion sug'urta usullarining rivojlanmaganligi, sug'urta subyektlarining sug'urta kompaniyalari majburiyatlarini bajarishga ishonchining yo'qligi, dasturlarni to'lashda kechikish, ya'ni sug'urta hodisasi sodir bo'lgandan keyin 6-8 oy o'tgach, ishonchli statistik ma'lumotlarni yig'ish bilan bog'liq qiyinchiliklar, barcha ekinlar bo'yicha ishonchli statistik ma'lumotlar yo'qligi sababli bir nechta ekinlarni qamrab oluvchi cheklangan sug'urta dasturi, barcha ekinlar bo'yicha doimiy monitoring va statistik ma'lumotlarni to'plashning yo'qligi va boshqalar.

XULOSA.

Hozirgi holatda, bizningcha, agrar soha sug'urta tizimidagi manfaatlari himoyasini ta'minlash, sug'urta xizmatlari sifatini oshirish maqsadida: qishloq xo'jaligi mahsulotlariga oid eksport shartnomalarini siyosiy-tijorat risklaridan sug'urtalash; kooperativlar, meva-sabzavotchilik klasterlari va fermer xo'jaliklarining mahsulotlar eksporti bo'yicha shartnomalari sug'urta mukofotlarining 50 foizini mahalliy va davlat budjetlari mablag'lari hisobidan qoplash, shuningdek, sug'urta shartnomalarini soddalashtirish asosida shaffofligini ta'minlash uchun amaldagi sug'urta qoidalari va namunaviy sug'urta shartnomalarini qayta ko'rib chiqish, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urta qilishda agrotexnik tadbirlarga rioya qilinishi va olingan hosil holatlarini monitoring qilish orqali ko'rilgan zararlar (yo'qotishlar)ni kamaytirish hamda subyektlararo tuziladigan sug'urta shartnomalarini rasmiylashtirishni raqamli elektron dasturlar orqali amalga oshirish muhim chora-tadbirlar bo'lib hisoblanadi. 2019-2023 yillarda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishga oid davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar natijasida yo'nalish va tarmoqlar kesimida 80 turdan ortiq subsidiyalar, soliq, kredit va bojxona sohalarida sug'urta imtiyozlari taqdim etilgan.

Qishloq xo'jaligini yuqorida keltirilgan yo'nalishlarda davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash o'zining ijobiy samarasini berayotgan bo'lib, sohada moliyaviy mablag'lar zahiralari shakllanishiga hamda turli havf-xatarlardan moliyaviy jihatdan himoyalaniishga imkoniyat yaratmoqda. Shunga qaramasdan, tahlillar asosida amaliyotda davlat tomonidan berilayotgan moliyaviy imtiyozlar, subsidiya va turli preferensiyalar sug'urtalanuvchi xo'jaliklar manfaatlarini himoya qilish nuqtai-nazardan o'zining kutilgan ijobiy samarasini bermayotganini qayd etish joizdir. Xorijiy davlatlar, shu jumladan, Rossiya, Belorussiya, Ozarbayjon, Turkiya, Xitoy va Qozog'iston davlatlarining sug'urta xizmatlari sohasida qo'llayotgan innovatsion mexanizmlari, sug'urta munosabatlari va tizimini samarali tashkil etish borasidagi foydali va ahamiyatga molik tajribalari va yutuqlarini respublikamiz qishloq xo'jaligi agrosug'urta tizimida joriy etish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 iyundagi "Paxta xom ashyosi va boshqoli don ekinlarining bo'lg'usi hosilini sug'urtalash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 505-sonli Qarori. <https://lex.uz>
2. Q.A.Nosurullayev. Qishloq xo'jaligida sug'urtalash mexanizmini takomillashtirish. Avtoreferat-2025y.5-26 betlar. <https://ziyonet.uz>
3. I.I. Erkinxojiyev. Moliyaviy resurslarni jalb etish orqali agrar soha tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash. Moliya ilmiy jurnali.1-son.2025yil.49-54 betlar. www.tfi.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari. <https://gov.uz/agro>
5. "O'zagrosug'urta" aksiyadorlik jamiyati ma'lumotlari. <https://agros.uz>

Ibragimov Gayratjon Artikovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Moliyaviy tahlil” kafedrası dotsenti,
gibragimov1963@gmail.com

YASHIL BUXGALTERIYA HISOBINING NAZARIY ASOSLARI

Ibragimov Gayratjon Artikovich
доцент кафедры «Финансовый анализ»
Ташкентского государственного
экономического университета.
[e-mail: gibragimov1963@gmail.com](mailto:gibragimov1963@gmail.com)

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЗЕЛЕННОГО БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА

Ibragimov Gayratjon Artikovich
Associate Professor of the Department
of Financial Analysis of the Tashkent State
University of Economics.
gibragimov1963@gmail.com

THEORETICAL BASIS OF GREEN ACCOUNTING

Annotatsiya: Atrof-muhit o'zgarishlari natijasida vujudga kelayotgan salbiy oqibatlarni oldini olish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar moliyaviy, moddiy va mehnat xarajatlarining salmoqliligi sababli buxgalteriya hisobi va tahliliga yangi yondashuvlarni talab qiladi. Buxgalteriya hisobi tamoyillariga kiritilayotgan o'zgartirishlar xarajatlar samaradorligini, resurslarning qayta tiklanishini va ishlab chiqaruvchi kuchlarni yanada oqilona taqsimlashni ta'minlash muammolarini hal qilishga bo'ysundirilishi kerak. Buxgalteriya hisobini yuritish nazariyasini takomillashtirish so'nggi yillarda paydo bo'lgan yoki endigina shakllanayotgan yashil hisob elementlarini kengroq qo'llash tendentsiyasiga ega. Yashil iqtisodiyot tarkibiy qismlarining xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini boshqarishni adolatli, tezkor va oqilona axborot bilan ta'minlash bo'yicha talablari ham hisobga olinishi zarur.

Tayanch so'zlar: Iqlim o'zgarishi, “yashil buxgalteriya”, ekologik xarajatlar, resurslarning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi, chiqindilarni boshqarish, ekologik xavflar, yashil biznes, “yashil aktivlar”, ekologik majburiyatlar.

Аннотация: Осуществляемые меры предотвращения последствий экологических изменений требуют новых подходов в учете и анализе в силу значимости трудовых, финансовых и материальных затрат. Поправки принципам ведения бухгалтерского учета должны быть подчинены решению задач по обеспечению эффективности расходов, возобновляемости ресурсов, более рациональному размещению производительных сил. Совершенствование теоретических основ ведения бухгалтерского учета имеет тенденцию более широкого применения элементов зеленого учета, которые появились в последние годы или только формируются. Также должны быть учтены требования составляющих зеленой

экономики в части обеспечения управления деятельностью хозяйствующих субъектов справедливой, оперативной и рациональной информацией.

Ключевые слова: Климатические изменения, «зеленая бухгалтерия», экологические затраты, истощение ресурсов, загрязнение окружающей среды, управление отходами, риски экологического характера, экологически чистый бизнес, «зеленые активы», экологические обязательства.

Abstract: The measures taken to prevent the consequences of environmental changes require new approaches to accounting and analysis due to the importance of labor, financial and material costs. Amendments to the principles of accounting should be subordinated to solving the problems of ensuring the efficiency of expenses, the renewability of resources, and a more rational allocation of productive forces. Improvement of the theoretical foundations of accounting tends to a wider application of green accounting elements that have appeared in recent years or are just being formed. The requirements of the green economy components in terms of ensuring the management of economic entities with fair, prompt and rational information should also be taken into account.

Key words: Climate change, green accounting, environmental costs, resource depletion, environmental pollution, waste management, environmental risks, green business, green assets, environmental liabilities.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo global isish tahdidlarining haqiqiy ta'sirini tez-tez va yaqqol his qilmoqda. 2024 yil oktyabr oyida Ispaniya sharqida kuchli yog'ingarchilik (bir yillik yog'ingarchilik miqdori bir sutkadan kamroq vaqt ichida yog'di) natijasida yuzaga kelgan, 220 kishining hayotiga zomin bo'lgan suv toshqinlari va 2024 yil sentyabr oyida AQShning janubi-sharqida yuzaga kelgan 4-toifali "Helene" dovulining keng ko'lamli vayronagarchilik va halokatlarga olib kelishi ekologik muvozanatdagi chuqur o'zgarishlar oqibatini to'laqonli namoyish qildi. Global iqlim o'zgarishining bunday tahdidi, asosan, global isish va uning oqibatlarida juda aniq ko'rinib, ekologik xavflarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish xarajatlari mamlakatlar va korxonalar uchun sezilarli darajaga yetganida ham o'z isbotini topmoqda. Korxona miqyosida o'zgarishlar uning barcha jihatlariga va funktsiyalariga, shu jumladan buxgalteriya hisobiga ham ta'sir qiladi. "Yashil" asosda amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyatini hisobga olish tamoyillariga o'tayotgan kompaniyalar sonining ko'payib borishi buxgalteriya hisobini tashkil etish kontseptsiyasini aniqlashtirish va uning funktsiyalarini o'zgartirish vazifasini qo'yimoqda.

"Yashil buxgalteriya hisobi" (ekologik hisob yoki barqaror rivojlanish hisobi deb ham yuritilmoqda) tushunchasi "atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha tashkiliy sa'y-harakatlar va investitsiyalarni kuzatish va o'rganish" sifatida tavsiflanadi. [1, 2-b.]

Bugungi kunda yashil buxgalteriya hisobi mamlakatlar milliy iqtisodiyotiga ta'sir qiluvchi vositaga aylana borib, barqaror iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyasini yaratishni ham o'z ichiga olmoqda. "Yashil buxgalteriya hisobi (ekologik buxgalteriya hisobi deb ham nomlanadi) - ekologik xarajatlarni an'anaviy moliyaviy buxgalteriya hisobiga qo'shadigan innovatsion yondashuv. U biznes faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini hisobga olgan holda, iqtisodiy operatsiyalarga odatiy qarashlardan farq qiladi. Bunday yaxlit qarash korxonalarga o'z faoliyatining haqiqiy xarajatlarini, jumladan, resurslarning kamayishi, ifloslanish va chiqindilarni boshqarishni tushunishga yordam beradi" [2, 1-b.]

Shuni ta'kidlash kerakki, yashil (ekologik) buxgalteriya hisobi korxonalarning atmosferaga chiqariladigan karbonat angidridni kamaytirish bo'yicha harakatlari, ekologik xavflarni kamaytirish va atrofimizdagi tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar va ekologik toza biznes

loyihalariga investitsiyalarni hisobga olish usulidir. Bunday korxonalar mahsulot xususiyatlarini yaxshilash hisobiga sotish hajmini oshirish imkoniyatiga ega. Bu yaxshilanish iste'molchilarga mahsulot haqidagi o'z tasavvurlarini ishonchli va barqaror brend bilan uyg'unlashtirishga imkon beradi, salohiyatli investorlar esa "yashil" biznesga sarmoya kiritish masalasini kun tartibiga qo'yishlari mumkin. Ko'plab kompaniyalar ushbu yondashuvni amaliy ishda qo'llaydigan buxgalterlar to'plagan tajribadan foydalangan holda "yashil" buxgalteriya tamoyillari va usullarini joriy etish imkoniyatlarini o'rganishni boshlashdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzu bo'yicha materiallarni o'rganish yashil buxgalteriya hisobining korporativ darajadagi quyidagi turlarini aniqlashtirishga imkon beradi:

1. Ekologik moliyaviy hisob kompaniyaning moliyaviy natijalari to'g'risida tashqi manfaatdor tomonlarga zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish uchun ishlatiladi. Buxgalteriya hisobining bu turi kompaniyalarga investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun moliyaviy hisobotlarni tayyorlash imkonini beradi.

2. Atrof-muhitni boshqarish hisobi ichki biznes strategiyasi bo'yicha qaror qabul qilishga qaratilgan. Buni quyidagicha ta'riflash mumkin: "...ichki qarorlar qabul qilish uchun quyidagi ikki turdagi:

a) energiya, suv va materiallardan (shu jumladan chiqindilar) foydalanish, ularning oqimlari va foydalanish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar va

b) ekologik xarajatlar, daromadlar va jamg'armalar to'g'risidagi moliyaviy ma'lumotlarni aniqlash, to'plash, tahlil qilish va ulardan foydalanishga qaratilgan hisob». [3, 2-b.]

Bu holat ekologik boshqaruv hisobi (EBH) barcha ekologik xarajatlarni hisobga olishi kerakligini anglatadi.

Yashil buxgalteriya hisobi (ekologik hisob yoki barqaror rivojlanish hisobi) milliy va xalqaro darajada ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan, milliy ekologik hisob (MEH) milliy yoki mintaqaviy miqyosda sanoatning yoki butun iqtisodiyotning faoliyati oqibatlarini (ekologik va iqtisodiy) hisobga olishi kerak.

Amaliy nuqtai nazardan, yashil buxgalteriya moliyaviy operatsiyalarning ekologik va ijtimoiy jihatlarini birlashtirish jarayonidir. Yashil buxgalteriya hisobining maqsadi atrof-muhitga ta'sir qilish natijasida olingan iqtisodiy ko'rsatkichlarning uzoq muddatli barqarorligini aks ettirishdir. Buxgalteriya hisobining bu turi iqtisodiyotda, xususan, korporativ dunyoda yangi tendentsiya hisoblanadi. Fikrimizcha, bu biznes yuritishning odatiy usuli bo'lib, ushbu usul orqali korxonalar kapital hajmini oshirishdan tashqari, manfaatdor tomonlar (steykxolderlar) uchun qiymat yaratish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar.

Dastlabki qarashda, agar buxgalteriya hisobi haqida umumiy tushunchani olsak, yashil buxgalteriya hisobining tarkibiy qismlari joriy an'anaviy moliyaviy hisob elementlaridan deyarli farq qilmaydi. Yashil buxgalteriya hisobida ham aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromadlar, xarajatlar, foyda tushunchalari mavjud. Biroq, har bir element bo'yicha yashil buxgalteriya hisobini joriy an'anaviy moliyaviy buxgalteriya hisobidan ajratib turadigan ba'zi muhim jihatlar mavjud. Quyida ularni ko'rib chiqamiz.

Aktivlar va resurslar nuqtai nazaridan barqaror va toza (ekologik nuqtai nazardan) faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi kompaniyalar yashil aktivlarni sotib olish va ularga sarmoya kiritish uchun mas'uldirlar.

"Kompaniyaning majburiyatlari nuqtai nazaridan esa, ular ijtimoiy va ekologik majburiyatlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ular har qanday mahsulot yoki xizmatlarni atrof-

muhitga bevosita ta'sir ko'rsatishini (chiqindilarni boshqarish, uglerod chiqindilari va boshqalar) hisobga olgan holda loyihalashtirishlari kerak bo'ladi". [4, 1-b.]

Shuningdek, "yashil" biznesni yurituvchi korxona barqaror rivojlanishni, uning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga va foyda olishga ta'sirini ta'minlash uchun o'z faoliyatining shaffofligini ta'minlashi kerak.

Korxona barqaror rivojlanish siyosatini amalga oshirish xarajatlarini hisobga olishi kerak. Ularga xom ashyoni chuqur qayta ishlash xarajatlari, ekologik audit o'tkazish xarajatlari, ifloslanish oqibatlarini kamaytirish, resurslardan samarali va maqbul foydalanish, atrof-muhitga zarar yetkazishni oldini olish va yetkazilgan zarar oqibatlarini bartaraf etish xarajatlari va boshqa xarajatlar kiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, "yashil buxgalteriya" hisobini yuritish orqali to'ldiriladigan hisobot shakllari yoki barqaror rivojlanish hisoboti tarkibini ko'rib chiqish mumkin.

Kompaniyalar tomonidan qo'llaniladigan yashil buxgalteriya hisobi atrofimizdagi tabiiy muhitga o'zlarining salbiy ta'sirini cheklash natijasida yuzaga keladigan barcha xavf va imtiyozlarni hisobga olishi kerak. Bu holat buxgalteriya hisob-kitoblarini amalga oshirish va korxonalarining moliyaviy natijalarini aniqlashda iqlim qulayligiga alohida e'tibor qaratilishi tufayli "yashil buxgalteriya hisobi"ni buxgalteriya hisobining boshqa turlaridan ajratib turadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari uchun qo'shimcha xarajatlarning paydo bo'lishi korxonalarni yanada samarali qarorlar qabul qilish uchun rag'batlantirishni talab qiladi. Ushbu yechimlar ishlab chiqarish chiqitlarini kamaytirish, energiya sarfini tejash va zararli chiqindilarni kamaytirish yo'nalishida bo'lishi mumkin. Yashil buxgalteriya tamoyillariga rioya qilish ushbu sa'y-harakatlarning natijalarini aniqlash uchun sharoit yaratishi va hisobot berish uchun asos bo'lishi kerak, bu esa korxonalarining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun amalga oshirayotgan o'z harakatlarini namoyish etishini osonlashtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola mavzusi bo'yicha tadqiqotlar jarayonida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobini yuritish metodologiyasi va tamoyillari, kiritilayotgan o'zgartirishlar xarajatlar samaradorligini, resurslarning qayta tiklanishini va ishlab chiqaruvchi kuchlarni yanada oqilona taqsimlashni ta'minlash muammolarini hal qilish maqsadida umumlashtirish, guruhlashtirish, qiyosiy tahlil, tahliliy amallarni bajarish, induktiv va deduktiv, jarayonlarni kuzatish kabi ilmiy usullardan foydalanilgan. Shuningdek, buxgalteriya hisobini yuritish nazariyasini takomillashtirish uchun so'nggi yillarda joriy etilgan va endi shakllanayotgan, yashil hisobni yuritish xususiyatlarini o'z ichiga olgan elementlar keng qo'llanilgan. Yashil iqtisodiyot tarkibiy qismlarining xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini boshqarishni adolatli, tezkor va oqilona axborot bilan ta'minlash bo'yicha talablari ham hisobga olingan.

NATIJA VA MUHOKAMA

"Yashil buxgalteriya hisobi" tamoyillariga rioya qilish va moliyaviy amaliyotning barqarorligi korxonalarga rentabellik va ekologik javobgarlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, shuningdek, o'zlarining ijtimoiy majburiyatlarini bajarish imkonini beradi. Ushbu yondashuv korxonalarining o'z resurslarini mas'uliyat bilan boshqarishini, barqaror, doimiy iqtisodiy foydani ta'minlashi va bir vaqtning o'zida ekologik tadbirlarni amalga oshirishini ta'minlashi kerak. Muhim afzallik sifatida korxonalarining korporativ imidjini oshirishni keltirish mumkin bo'ladi. "Yashil buxgalteriya hisobi" tamoyillariga amal qiluvchi sub'ektlar ishonchliroq, iste'molchilar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar ularga ko'proq sodiqdir. Bunday ijobiy qabul qilish kompaniyaning

obro'sini oshirishga, brend tan olinishiga, mijozlarning sodiqligini oshirishga va bozorda mustahkam mavqega olib keladi.

Yashil yoki ekologik buxgalteriya hisobini yuritish natijasida yuzaga keladigan bir nechta fikrlarni shakllantirish mumkin, ular buxgalteriya hisobini yuritishning boshqa turlari bilan solishtirilganda, qo'shimcha afzalliklar sifatida tavsiflanishi mumkin.

Birinchidan, "yashil buxgalteriya" moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash va biznesning bozordagi qiymatini oshirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, "yashil buxgalteriya hisobi"ni yuritish usullariga rioya qilish iqlim sharoitining o'zgarishiga va atrof-muhitning ifloslanishiga olib kelishi kutilayotgan xavf-xatarlar darajasini pasaytirish va atrof-muhitga zararni minimallashtirish imkonini beradi.

Uchinchidan, ushbu yo'nalishda ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida korxona obro'sini va bozor qiymatini oshirish mumkin. Atrof-muhitni muhofaza qilishga yordam beradigan tadbirlarni amalga oshirish tadbirkorlik sub'ektiga o'xshash korxonalardan ajralib turishga yordam beradi va uning potensial investorlar orasidagi jozibadorligini oshiradi.

To'rtinchidan, ekologik kontseptsiyalarga rioya qilish xodimlarning korxonaga sodiqlik darajasini oshiradi va buxgalteriya xizmatlarini outsorsing qilish, sertifikatlangan iqtisodchilardan maslahat olish va boshqa shu kabi yo'nalishlarda eng yaxshi mutaxassislarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Beshinchidan, oqilona ekologik siyosatni amalga oshirish iste'molchilarning sodiqlik darajasi, sotish hajmi va daromadlarining oshishiga olib keladi. Bu uglerod chiqindilarini kamaytirishga qo'shgan hissasini biladigan va "yashil" mahsulotlarni sotib olish salohiyati ko'proq bo'lgan yangi mijozlarni jalb qilish imkoniyatini yaratadi.

Va nihoyat, ishchilarning mehnat unumdorligini oshirish ham muhim o'rin tutadi. Jamiyat manfaati yo'lidagi dolzarb vazifalarni amalga oshirishga daxldorlikni anglash tufayli mehnatga ilhom paydo bo'ladi, odamlar qilayotgan ishidan mamnun bo'lsa, mehnat unumdorligi oshadi.

"Yashil" buxgalteriya hisobi iqlim o'zgarishi bo'yicha ortib borayotgan tashvishlarning muqarrar natijasidir va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha harakatlar, shubhasiz, muhimroq bo'lib bormoqda. Ko'rib chiqilgan omillar buxgalteriya mutaxassislarga o'zlarining kasbiy darajasini muvaffaqiyatli oshirishga, yanada maqbul qarorlar qabul qilish uchun sharoit yaratishga va korxonaning ish tizimini o'zgartirish uchun zarur choralarni ko'rishga yordam beradi.

Barqaror rivojlanish bo'yicha qarashlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, muhokamalar asosan "yashil" buxgalteriya tamoyillaridan foydalangan holda buxgalteriya hisobi natijalari to'g'risida hisobot berishga qaratilgan. "Barqarorlik hisobotlari bir nechta standart formatlardan birini olishi mumkin bo'lsa-da, ular odatda atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv amaliyotlari va ularning ta'siriga oid ma'lumotlarni o'z ichiga oladi". [5, 3-b.]

Barqaror rivojlanish yoki "yashil buxgalteriya hisobi" sohasidagi hisobot bir nechta tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi, ulardan asosiylarini ko'rib chiqamiz. Umuman olganda, ular standart hisobot elementlari hisoblanadi.

Birinchidan, biz "yashil buxgalteriya" hisobotining ekologik komponentini yoki ekologik tarkibiy qismini ko'rib chiqamiz. Yashil buxgalteriya hisobi (boshqacha aytganda barqaror rivojlanish faoliyati natijalari) orqali olingan ma'lumotlar, asosan, kompaniyaning atrofimizdagi atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha harakatlari natijalarini aks ettiradi. Tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari hisobotda o'z aksini topadi va undan yerdan foydalanish rejalari, ishlab chiqarishda uglevodorodli xom ashyodan foydalanish natijasida chiqariladigan zararli gaz va chiqindilarni kamaytirish, xom ashyoning muqobil (kamroq zararli) turlarini izlash, jalb qilingan

investitsiyalarning ekologik samaradorligi, iqlim o'zgarishiga bog'liqlikdan xalos bo'lish, toza ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha korxona tashabbuslari haqida ma'lumotlar o'rin oladi.

Hisobotning keyingi komponenti hisobotning ijtimoiy komponentidir. Barqaror rivojlanish bo'yicha hisobotlar kompaniyaning ijtimoiy muammolarni hal qilish bo'yicha ichki amaliyotini va shunga o'xshash muammolar bilan bog'liq tashqi ta'sirlarni ochib berishi kerak. Ma'lumotlar odatda ijtimoiy barqarorlikka qaratilgan va ishchilar xavfsizligini ta'minlash, ularning sog'lig'ini saqlash va yaxshilash standartlarini qamrab oladi. Shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini, sog'liqni saqlash xizmatidan foydalanish va malaka oshirish imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha ko'rilgan choralar ham yoritilishi kerak. Korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xavfsizligi va mavjudligi ko'rsatkichlari, manfaatdor tomonlarning qoniqmasligi, shuningdek, korxonani boshqarish amaliyoti natijalari ham hisobotda aks ettirilishi kerak.

Hisobot boshqaruv elementi deb ataladigan elementni ham o'z ichiga olishi kerak. Bunga korxonaning korporativ boshqaruvi natijasiga ularning ichki boshqaruv usullarining ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobotlarda taqdim etish orqali erishiladi. Shunga ko'ra, korxonaning korporativ boshqaruvi bo'yicha hisobot tayyorlanadi. Hisobot korxonaning buxgalteriya hisobi va soliq amaliyotini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni, ishbilarmonlik etikasi, ayrim tomonlarning manfaatlarini himoya qilish holatlarini o'z ichiga olishi kerak. Shuningdek, korxona rahbarlarining mehnatiga haq to'lash va ular qabul qilgan qarorlar natijalari darajasi, ijro etuvchi organlarning shakllanishi va hilma-hilligi tamoyillari, korporativ beqarorlikka olib keladigan sabablar va omillarni aks ettirish kerak.

Muhim jihat moliyaviy hisobdan ekologik moliyaviy hisob (EMH) va boshqaruv hisobidan ekologik boshqaruv hisobiga (EBH) o'tish bilan bog'liq bo'lib, ekologik (atrof-muhit bilan bog'liq) menejment hisobi sifatida belgilanishi mumkin.

Aytish mumkinki, EMH moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi ekologik operatsiyalar va hodisalar bo'yicha hisob va hisobotlarni yuritishga qaratilgan. Alohida hisobvaraqlarning debeti va krediti bo'yicha har bir operatsiya bo'yicha buxgalter uning atrof-muhitga ta'sirini hisobga olishi kerak. Bunga asosiy xarajatlar atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatishini va ular korxonaning moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilarning qarorlariga ta'sir qilishi yoki yo'qligini aniqlash orqali erishiladi.

O'z navbatida, ekologik boshqaruv hisobi (EBH) (yoki ekologik menejment hisobi) ekologik xarajatlar va daromadlarni hisobga oladi. Ular korxonaning energiya iste'moli, xatarlarni boshqarish va xom ashyodan foydalanishni o'rganish natijalariga ko'ra ushbu xarajatlarni aniqlash, tahlil qilish, boshqarish va kamaytirishga yordam berishi kerak.

XULOSA

Xulosa qilib, shuni ta'kidlash mumkinki, "EMH va EBH kabi yashil buxgalteriya yondashuvlari uchun mustahkam ichki poydevor yaratish ekologik javobgarlikka sodiq bo'lgan kompaniyalar uchun muhim bo'lsa-da, sa'y-harakatlar shu bilan tugamaydi. Milliy ekologik hisob (MEH) ni biznes amaliyotiga kiritish ham o'ta muhimdir". [6, 2-b]

Yuqorida ta'kidlanganlar asosida yashil buxgalteriya hisobining nazariy asoslarini yaratish va takomillashtirish bo'yicha qilingan xulosalar, amaliy tavsiyalarni keltirib o'tamiz:

1. Milliy ekologik hisob (MEH) mamlakatlarning yashil tashabbuslarini ularning iqtisodiy ko'rsatkichlarini, iqtisodiy o'sishini va resurslardan foydalanishni baholash, shuningdek, mamlakat darajasida atrof-muhitga ta'sirni boshqarish amaliyotini o'rganish orqali qo'llab-quvvatlashi kerak. Ma'lumki, an'anaviy milliy buxgalteriya hisobi yoki milliy hisoblar tizimi mamlakatning yalpi ichki

mahsuloti (YaIM) va sof ichki mahsulot (SIM) ko'rsatkichlarini hisobga oladi, MEH esa bizni o'rab turgan atrof-muhitni ham hisobga oladi. Ushbu holat ekologik ichki mahsulot (EIM) deb nomlangan yangi ko'rsatkichning paydo bo'lishiga olib keldi.

2. SIM aniqlashni standart formulasidan farqli o'laroq, EIMga ishlab chiqarilgan iqtisodiy aktivlarning, ishlab chiqarilmagan iqtisodiy aktivlarning va ishlab chiqarilmagan tabiiy aktivlarning sof to'planishi qo'shiladi. Bu shuni anglatadiki, bizning atrof-muhitni muhofaza qilish va saqlashga investitsiyalar va xarajatlarimiz hisob-kitobga kiritilib, formulaning bir qismiga aylanadi. Ushbu qadam mamlakat va nazorat qiluvchi organlarning atrof-muhitni muhofaza qilish, tegishli organlar tomonidan ekologik qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish, mamlakatning barqaror rivojlanishiga ko'maklashish va EIMni oshirish uchun har bir mamlakatning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari va fuqarolariga ekologik imtiyozlarni taqdim etish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olishiga olib keladi. [7, 3-b.]

3. Ko'rib chiqilgan material atrof-muhitga ta'sirni baholash uchun "yashil buxgalteriya" korxonaning xomashyodan foydalanishini, ishlab chiqarish chiqindilarini boshqarishini, shuningdek, ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarni hisobga olishi kerak degan xulosaga kelishga imkon beradi. "Umumiy sertifikatlangan buxgalterlar assotsiatsiyasining (ACCA) 2021 yil uchun hisobotiga ko'ra, buxgalteriya hisobi va moliya sohasidagi mutaxassislarning 75 foizi ularni iqlim o'zgarishini oldini olish bo'yicha korporativ sa'y-harakatlarga qo'shish kerak deb hisoblaydi". [8, 3-b.]

Odatda bu ishda buxgalterlar asosiy rol o'ynaydi. Shu bilan birga, samarali yashil buxgalteriya hisobi butun korxonaning ekologik ishi hisoblanadi. Shuningdek, u manfaatdor tomonlarga (mahalliy hamjamiyat) ta'sir darajasini va hukumat ko'rsatmalari va qoidalariga rioya qilinishini baholaydi.

4. "Yashil buxgalteriya hisobi" iqlim bilan bog'liq ofatlarning kuchayib borayotgan to'lqinini sekinlashtirish, hukumat ko'rsatmalari va qoidalariga javob berish, potentsial investorlar, iste'molchilar, mijozlar kompaniyalari va xodimlarning chaqiruvlariga javob berish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar atrofimizdagi tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha harakatlar uchun mas'ul deb hisoblaydigan faoliyat sifatida ta'riflanishi mumkin.

Fikrimizcha, barqaror rivojlanish faoliyati yoki ekologik hisob korxona samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish orqali ishlab chiqarilgan mahsulot yoki xizmatlar sifatini yaxshilashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hilbert College. Green Accounting and Sustainability Reporting. / Gilbert Kolleji. Yashil buxgalteriya hisobi va barqaror rivojlanish hisoboti. <https://online.hilbert.edu/blog/green-accounting-and-sustainability-reporting/>
2. Shane McMahon. Green Accounting: The Environmental Benefits of Switching to Invoice Automation. / Sheyn MakMaxon. Yashil buxgalteriya: Schet-fakturani avtomatlashtirishga o'tishning ekologik afzalliklari.
3. <https://kefron.com/2024/08/green-accounting-the-environmental-benefits-of-switching-to-invoice-automation/?switch=us>
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Environmental_accounting
5. LPC London Premier Centre. UK Training Provider. Green Accounting: Integrating Sustainability into Financial Reporting. / LPC London Premier Center. Buyuk Britaniya ta'lim provayderi. Yashil buxgalteriya hisobi: barqaror rivojlanishni moliyaviy hisobotga integratsiyalash. <https://www.lpcentre.com/articles/green-accounting-integrating-sustainability-into-financial-reporting>

6. Hilbert College. Green Accounting and Sustainability Reporting. / Gilbert Kolleji. Yashil buxgalteriya hisobi va barqaror rivojlanish hisoboti. <https://online.hilbert.edu/blog/green-accounting-and-sustainability-reporting/>
7. Shella Mae Fronda. Green Accounting: Emerging updates in the Accounting Industry. / Shella Mae Fronda. Yashil buxgalteriya: Buxgalteriya hisobidagi so'nggi o'zgarishlar. <https://scrubbed.net/blog/going-green-what-it-means-for-your-businesss-accounting-practices/>
8. Shella Mae Fronda. Green Accounting: Emerging updates in the Accounting Industry. / Shella Mae Fronda. Yashil buxgalteriya: Buxgalteriya hisobidagi so'nggi o'zgarishlar. <https://scrubbed.net/blog/going-green-what-it-means-for-your-businesss-accounting-practices/>
9. Hilbert College. Green Accounting and Sustainability Reporting. / Gilbert Kolleji. Yashil buxgalteriya hisobi va barqaror rivojlanish hisoboti. <https://online.hilbert.edu/blog/green-accounting-and-sustainability-reporting/>

Ismailov Alisher Agzamovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Professor, Tadqiqotchi.
alisher_bankir595@mail.ru

**KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI KREDITLASHNING DOLZARB
MASALALARI.**

Исмаилов Алишер Агзамович
Ташкентский государственный
экономический университет
Профессор, соискатель.
alisher_bankir595@mail.ru

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ КРЕДИТОВАНИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА.

Ismailov Alisher Agzamovich
Tashkent State University of Economics
Professor, researcher.
alisher_bankir595@mail.ru

CURRENT ISSUES OF CREDITATION TO SMALL BUSINESSES

Annotatsiya

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish ular faoliyatining barqarorligini ta'minlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Buning sababi shundaki, tijorat banklarining overdraft kreditlari kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining uzluksizligini ta'minlash imkonini bersa, uzoq muddatli investitsion kreditlar ular faoliyatini yangi texnik va texnologiyaar bilan qayta qurollantirish imkonini beradi. Maqolada kichik tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar aniqlangan va ularni hal qilish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar: kichik tadbirkorlik, tijorat banki, kredit, investitsion kredit, overdraft, foiz stavkasi.

Аннотация

Улучшение практики кредитования малого бизнеса является необходимым условием обеспечения устойчивости его деятельности. Это связано с тем, что в то время как овердрафтные кредиты коммерческих банков позволяют малому бизнесу продолжать свою деятельность, долгосрочные инвестиционные кредиты позволяют им переоснастить свою деятельность новыми методами и технологиями. В статье обозначены актуальные проблемы, связанные с совершенствованием практики кредитования субъектов малого предпринимательства, и разработаны научные предложения по их решению.

Ключевые слова: малый бизнес, коммерческий банк, кредит, инвестиционный кредит, овердрафт, процентная ставка.

Annotation

Improving the practice of lending to small businesses is a prerequisite for ensuring the stability of their activities. This is explained by the fact that overdrafting loans allow for the uninterrupted operation of small businesses, and long-term investment loans allow for the re-equipment of their activities with new techniques and technologies.

The article identifies current problems associated with improving the practice of lending to small businesses and develops scientific proposals for solving these problems.

Key words: small business, commercial bank, loan, investment loan, overdraft, interest rate.

KIRISH.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida **tadbirkorlik sub'ektlarining doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish**, 2026 yilga borib tadbirkorlik sub'ektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning zaruriy shartlari sifatida e'tirof etilgan [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 sentyabrdagi PQ-306-sonli "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida Biznesni rivojlantirish bankiga kichik tadbirkorlik sub'ektlarini o'rganishdan boshlab moliyalashtirish va ishlab chiqarishni barqaror yo'lga qo'ygunga qadar bo'lgan jarayonda moddiy va texnik qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish, ijobiy kredit tarixiga ega kichik tadbirkorlik sub'ektlariga soddalashtirilgan kreditlash tizimini joriy qilaish, «biznes ipotekasi» amaliyotini joriy qilish va hududlarning master-rejasini ishlab chiqib, kommunikatsiya va infratuzilmaga ulangan ob'ektlarni ipotekaga berish ko'zda tutilgan [2].

Yuqorida qayd etilgan holatlar kichik tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

A.Staxnyukning fikriga ko'ra, kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tijorat banklari kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish bilan bog'liq bo'lgan asosiy muammolar quyidagilardan iboratdir:

- kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmini yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- garov ob'ektlari sifatining past ekanligi;
- mijozning oshkora emasligi ("xufyona" daromadlar darajasining yuqori ekanligi; mijozning moliyaviy holatini, uning kredit to'loviga layoqatliligini ob'ektiv baholash uchun zarur bo'lgan ishonchli manbalarning yetarli emasligi; joriy hisobraqamlar bo'yicha aylanmalarning mavjud emasligi; tushumning asosiy oqimlarini naqd pullarda o'tayotganligi va boshq.);
- iqtisodiy (moliyaviy) bilimlarning yetarli emasligi (biznes-rejalarning sifatini past ekanligi; kreditlash maqsadlari, bank mahsulotlarining mohiyatini aniq tushunishning, bank bilan ishlash tajribasining mavjud emasligi; buxgalteriya hisobini yuritishning to'liq emasligi va boshq.);
- iqtisodiyotning real sektoridagi bir yildan ortiq muddatdagi investitsiyalar uchun zarur bo'lgan resurslarning, ayniqsa, arzon va uzoq muddatli resurslarning yetarli emasligi;
- kreditorlarning huquqlarini himoya qilish borasidagi qonunchilikning takomillashmaganligi banklarga yuqori riskli bitimlarni moliyalashtirish imkonini bermayotganligi [9].

M.Yunusning xulosasiga ko'ra, endi ish boshlayotgan kichik biznes sub'ektlarini kreditlashda asosiy e'tibor kreditlashning ijtimoiy samarasiga qaratilishi kerak. Tadbirkorlik sub'ektlarining

moliyaviy imkoniyatlari kengaygandan so'ng, ular bozor stavkalarida beriladigan kreditlarga bo'lgan talabning oshishiga sababchi bo'lishadi [10].

J.Sinki yozadiki, AQShda kichik biznesga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish sohasida tijorat banklari yetakchilik qiladi va ularning moliyaviy xizmatlari tarkibida muddatli kreditlar berish, lizing kreditlari berish va ularni kredit liniyasi ochish yo'li bilan kreditlash muhim o'rin egallaydi [5].

Y.Shumpeterning fikriga ko'ra, innovatsiya tadbirkorlik ruhi bilan yo'g'rilgan ishlab chiqarish omillarining yangi ilmiy-tashkiliy uyg'unligidir va davlat tomonidan innovatsion jarayonlar qo'llab-quvvatlanishi lozim [6].

L.Zoyirovning fikriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida lizing ob'ektini qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilmagunga qadar tijorat banklarining lizing kreditlariga foiz hisoblashning mumkin emasligi, Respublika valyuta birjasiga konvertatsiya uchun tashlab berilgan kreditlarga konvertatsiya amalga oshirilgunga qadar foiz hisoblanmasligi ssuda hisobraqamlaridan foydalanish jarayonida hisobga olinadigan muhim omillardan biri hisoblanadi va kichik biznes sub'ektlarini lizing asosida moliyalashtirishni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi [7].

I.Raxmonovning taklifiga ko'ra, tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish maqsadida respublika Markaziy bankining tijorat banklarining bir yilgacha muddatga jalb qilingan muddatli depozitlariga nisbatan belgilangan majburiy zaxira stavkalarini 50 foizga pasaytirish va mikromoliyalash tashkilotlarining tijorat banklaridagi muddatli depozitlarini Markaziy bankning majburiy zaxira talabnomasidan ozod qilish yo'li bilan tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va shu orqali banklar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ko'rsatiladigan mikrolizing va mikro kredit xizmatlari hajmini oshirish lozim [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqotda huquqiy-hujjatli tahlil, taqqoslama va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Kichik tadbirkorlikni kreditlashga oid davlat qarorlari, strategik dasturlar va amaldagi bank amaliyotlari asos qilib olindi. Kichik biznesga ajratilayotgan kreditlar holati va foiz stavkalari bo'yicha mavjud ochiq manbalar tahlil qilindi. Kreditlashdagi mavjud muammolar aniqlanib, takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

NATIJA VA MUHOKAMA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 avgustdagi PQ-3225-sonli "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi tadbirkorlik sub'ektlarining, shu jumladan, kichik biznes sub'ektlarining tijorat banklari kreditlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish nuqtai-nazaridan jiddiy voqelik bo'ldi:[3]

Mazkur Qarorga muvofiq, davlat jamg'armasining asosiy vazifalari qilib quyidagilar belgilandi


- kichik tadbirkorlik sub'ektlariga mazkur qarorda qayd etilgan maqsadlarga kredit ajratish uchun tijorat banklariga, jumladan, xorijiy kredit liniyalarini jalb qilish hisobidan resurslar ajratish;
- kichik tadbirkorlik sub'ektlariga tijorat banklari kredit miqdorining 50 foiziga, ammo 500 ming AQSh dollaridan ko'p bo'lmagan yoki unga ekvivalent hajmdagi kreditlari bo'yicha kafil bo'lish;
- tijorat banklarining qiymati 1 mln. AQSh dollaridan oshmaydigan miqdordagi kreditlari bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun quyidagi ekvivalentda kompensatsiya berish:

* milliy valyutada – qayta moliyalashtirish stavkasidan oshmaydigan foiz stavkasida – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasining 40 foizigacha bo‘lgan miqdorda;

* xorijiy valyutada – tijorat banklari tomonidan belgilangan foiz stavkasining 40 foizi, ammo 3 foizdan ortiq bo‘lmagan miqdorda [9].

Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish, tashqi bozorlar va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish va mashhur brendlarni jalb etish, xususiyl sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish, makroiqtisodiy o‘shish sur‘atlarining barqarorligini ta’minlashning zaruriyl shartlari sifatida e’tirof etilgan [4].

Kichik biznes sub’ektlarini kreditlash respublikamiz tijorat banklari kreditlash faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, respublikamizda, 2021-2023 yillarda tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan kichik biznes sub’ektlariga berilgan kreditlarning miqdori ham, yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan kreditlarning miqdori ham o‘shish tendensiyasiga ega bo‘ldi.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan kichik biznes sub’ektlariga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan kreditlar, mlrd. so‘m¹

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, respublikamizda, 2020-2024 yillarda tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan kichik biznes sub’ektlariga berilgan kreditlarning miqdori ham, yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan kreditlarning miqdori ham o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

Respublikamiz tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik sub’ektlariga milliy valyutada berilgan kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega

¹ Rasm muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiyl statistik ma’lumotlari asosda tuzilgan.

bo'lgan. Bu esa, kichik tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Chunki, kreditlarning foiz stavkasi ularning bahosi hisoblanadi.

Quyidagi jadval ma'lumotlari orqali respublikamiz banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga berilgan kreditlarning ulushiga baho beramiz (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga berilgan jami kreditlardagi ulushi, foizda²

Ko'rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Kreditlar - jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Kichik tadbirkorlik sub'ektlariga berilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi	39,8	31,7	15,5	13,5	13,4

1-jadvaldan ko'ringayki, 2020-2024 yillarda respublikamiz tijorat banklari tomonidan kichiktadbirkorlik sub'ektlariga berilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, kichik tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, respublikamizda inflyatsiya va Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini yuqori ekanligi banklar tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga milliy valyutada berilgan kreditlarning foiz stavkalarini yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida inflyatsiyaning yillik darajasi va Markaziy bank asosiy stavkasining yillik darajasi³, %


Ko'rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Inflyatsiyaning yillik darajasi	11,1	10,0	12,3	8,8	9,8
Markaziy asosiy stavkalarining darajalari	14,0	14,0	15,0	14,0	13,5

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'ringayki, respublikamizda inflyatsiyaning yillik darajasi 2021 yilda 2020 yilga nisbatan pasaygan, biroq, 2022 yilda 2021 yilga nisbatan yuqori darajada, ya'ni 2,3 foizli punktga oshgan. Shuningdek 2024 yilda 2023 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Markaziy bank asosiy stavkasining yillik darajasi 2022-2024 yillarda pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Biroq, Markaziy bankning asosiy stavkasi 2022 yilda 2021 yilga nisbatan 1,0 foizga oshirilib, 2023 yilda esa 1,0 foizga pasaytirilgan.

Tijorat banklarining uzoq mudatli investitsion kreditlari kichik tadbirkorlik sub'ektlarining investitsion xarajatlarini moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadi.

² Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

³ Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.



2-rasm. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar hajmi, trln. so'm⁴

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamizda kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar hajmi 2021-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq, mazkur investitsiyalarning YaIMga nisbatan darajasi tahlil davrida past bo'lgan.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarida birinchi toifali garov ob'ektlarining yetishmasligi kichik tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish borasidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Dunyo bank amaliyotida birinchi toifali garov ob'ektlari sifatida yer, oltin va boshqa nodir metallar, hukumatning qimmatli qog'ozlari, to'lovi hukumat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog'ozlar e'tirof etiladi. Respublikamizda, kichik tadbirkorlik sub'ektlarining balansida yuqorida qayd etilgan yuqori likvidli garov ob'ektlarining hech qaysisi mavjud emas. Shu sababli, garov asosida kreditlash hajmini oshirish imkoniyati mamlakatimizda cheklangan.

Shuningdek, debitor qarzdorlikning aylanish koeffitsientining past ekanligi kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tijorat banklarining kreditlaridan foydalanish darajasini oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

XULOSA.

Tadqiqot jarayonida kichik tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash bo'yicha quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

*endi ish boshlayotgan kichik biznes sub'ektlarini kreditlashda asosiy e'tibor kreditlashning ijtimoiy samarasiga qaratilishi kerak, kichik tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy imkoniyatlari kengaygandan so'ng, ular bozor stavkalarida beriladigan kreditlarga bo'lgan talabning oshishiga sababchi bo'lishadi;

*innovatsiya tadbirkorlik ruhi bilan yo'g'rilgan ishlab chiqarish omillarining yangi ilmiy-tashkiliy uyg'unligidir va davlat tomonidan innovatsion jarayonlar qo'llab-quvvatlanishi lozim;

*lizing ob'ektini qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilmagunga qadar tijorat banklarining lizing kreditlariga foiz hisoblashning mumkin emasligi, Respublika valyuta birjasiga konvertatsiya uchun tashlab berilgan kreditlarga konvertatsiya amalga oshirilgunga qadar foiz hisoblanmasligi kichik biznes sub'ektlarini lizing asosida moliyalashtirishni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi;

⁴ Rasm muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

*respublikamizda, 2021-2023 yillarda tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan kichik biznes sub'ektlariga berilgan kreditlarning miqdori ham, yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan kreditlarning miqdori ham o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;

*2020-2023 yillarda respublikamiz tijorat banklari tomonidan kichiktadbirkorlik sub'ektlariga berilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan;

*respublikamizda inflyatsiya va Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini yuqori ekanligi banklar tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga milliy valyutada berilgan kreditlarning foiz stavkalarini yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Fikrimizcha, kichik tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Respublikamiz tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga beriladigan kreditlar hajmini oshirish uchun, birinchidan, to'lovga qobillik darajasi yuqori bo'lgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarini ajratib olib, ularga beriladigan overdraft kreditlarining hajmini ko'paytirish kerak; ikkinchidan, kichik tadbirkorlik sub'ektlarining kredit to'loviga layoqatligini baholash uslubiyotiga kreditor qarzdorlikni aylani koeffitsientini, moliyaviy marja koeffitsientini va foiz to'lovlari koeffitsientini kiritish zarur; uchinchidan, kichik tadbirkorlik sub'ektlarini bonifikatsiya usulida kreditlashga e'tiborni kuchaytirish lozim.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda kichik tadbirkorlik sub'ektlarni kreditlashning bonifikatsiya usuli keng qo'llaniladi. Bunda tijorat banki tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga berilgan kreditlarning foiz to'lovlarini bir qismi davlat mablag'lari hisobidan qoplab beriladi. Buning natijasida kichik tadbirkorlik sub'ektlarning kreditlar bo'yicha to'lov yuki kamayadi.

2. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining banklarning investitsion kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish uchun, birinchidan, to'lovga qobillik darajasi yuqori bo'lgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun investitsion tovarlarning import bo'yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarni banklarning muddatli kreditlar hisobidan to'lab berishni yo'lga qo'yish kerak; ikkinchidan, investitsion kreditlar bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish lozim; uchinchidan, bnklarning uzoq muddatli resurs bazasini kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida//www.lex.uz.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 sentyabrdagi PQ-306-sonli Qarori. Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.09.2023 y., 07/23/306/0706-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 avgustdagi PQ-3225-sonli "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori///O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. – №34. – 880-modda.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. 2022-2026 - yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida//www.lex.uz.

5. Сини Д. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Alpina Publisher, 2017. – С. 590-591.

6. Шумпетер Й. Основы предпринимательство. Пер. с нем. – М.: Дело, 1974. – С. 132.

7. Zoyirov L.S. Kichik biznes sub'ektlari faoliyatini lizing asosida moliyalashtirishni takomillashtirish. I.f.n. ilm. dar. ol uch. taqd. et. diss. avtoreferati. – Toshkent, 2011. – B. 14.
8. Raxmonov I.X. O'zbekiston Respublikasida mikromoliyaviy xizmatlarni takomillashtirish yo'llari. I.f.n. ilm. dar. ol uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2011. – B. 16.
9. Staxnyuk A.V. Малые бизнес: проблема доступности кредитов//Деньги и кредит. – Москва, 2010. - №3. - S. 25-26.
10. Muxammad Yunus, Alan Joli. Создовая мир без бедности: социальные бизнес и будущее капитализма. Per. s angl. – M.: Alpina Publishers', 2010. – 307s.

Kurbanbaev Jurabek Eruvbaevich

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti,

“Bank ishi va buxgalteriya hisobi” kafedra dotsenti.

jurabektfi@mail.ru

**BUXGALTERIYA HISOBI MILLIY STANDARTLARINI XALQARO
STANDARTLARGA MUVOFIQLASHTIRISH
(Hisob siyosati misolida).**

Kurbanbaev Jurabek Eruvbaevich

associate professor of the department

of "Banking and accounting"

of Kimyo International University in Tashkent

E-mail: jurabektfi@mail.ru

**MATCHING NATIONAL ACCOUNTING STANDARDS TO
INTERNATIONAL STANDARDS
(In the example of account policy).**

Курбанбаев Джурабек Ерувбаевич

Доцент кафедры “Банковское дело и бухгалтерский учет”

Ташкентского международного университета Кимё.

jurabektfi@mail.ru

**ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА
С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ
(В примере учетной политики)**

Annotatsiya: Maqolada moliyaviy hisobning xalqaro standartlari talablari asosida hisob siyosati bo'yicha milliy standartning (yangi 18-son BHMS) tarkibiy qismi va uning uslubiyotini shakllantirish masalalari keng yoritib berilgan. Shuningdek, hisob siyosatini tanlash, hisob bahosidagi o'zgarishlar va hisob siyosatini qo'llash hamda shakllantirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 8-son BHXS “Hisob siyosati, hisob bahosidagi o'zgarishlar va hatolar” nomli standartda belgilangan me'yorlar va talablar bo'yicha tashkilotlarda hisob siyosatining yangi loyixasi yuzasidan takliflar berilgan.

Tayanch so'zlar: hisob siyosati, hisob siyosatini tanlash, hisob bahosidagi o'zgarishlar, hisob siyosatini qo'llash.

Abstract: The article provides a comprehensive overview of the issues of forming a national standard on accounting policies (new NAS 18) and its methodology based on the requirements of international financial accounting standards. It also provides proposals on the selection of accounting policies, changes in accounting values, and the application and formation of accounting policies in organizations based on the norms and requirements established in the international financial reporting standard IAS 8 “Accounting Policies, Changes in Accounting Values and Errors”.

Keywords: accounting policies, selection of accounting policies, changes in accounting values, application of accounting policies.

Аннотация: В статье подробно рассмотрены вопросы формирования элементов и методологии национального стандарта по учетной политике (новый МСФО (IAS) 18) с учетом требований международных стандартов финансовой отчетности. Также были внесены предложения по новому проекту учетной политики в организациях в соответствии с нормами и требованиями, изложенными в Международном стандарте финансовой отчетности МСФО (IAS) 8 «Учетная политика, изменения в бухгалтерских оценках и ошибки» по выбору учетной политики, изменению бухгалтерских оценок, применению и формулированию учетной политики.

Ключевые слова: учетная политика, выбор учетной политики, изменение бухгалтерских оценок, применение учетной политики.

KIRISH.

Ma'lumki, respublikamizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, ushbu ishlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4611-sonli qarori asosi bo'lib hizmat qilmoqda. O'zbekistonda buxgalteriya hisobi islohotlarining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagi uslubiyotlar olinadi:

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish;
- auditning xalqaro standartlariga o'tish;
- buxgalteriya hisobi milliy standartlarini takomillashtirish;

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, buxgalteriya hisobining milliy standartlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish hamda uni metodologik jihatdan takomillashtirish masalalariga to'xtalib o'tiladi.

Bugungi kunda respublikamizda 1998 yildan boshlab qabul qilingan jami 25 ta buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS)dan 4 ta standart xalqaroga muvofiqlashtirildi, jumladan:

- 1-sonli BHMS «Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati» (2024 yil 6 avgust, №3544);
- 5-sonli BHMS «Asosiy vositalar», (2024 yil 9 avgust, №3546);
- 22-sonli BHMS «Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi», (2024 yil 19 dekabr, №3587);
- 4,5.7 sonli BHMSlarga 22-sonli BHMSdan kelib chiqib o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi, (11.02.2025 yil, №3607).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Respublikamizda hisob siyosati, hisob siyosati uslubiyoti, hisob siyosati amaliyoti kabi tushunchalar korxonalarining amaliyotida qo'llanila boshlandi. O'z navbatida hisob siyosatining xalqaro va milliy darajadagi iqtisodchi olimlar va sohaning amaliyotchi mutaxassisleri tomonidan ko'plab ta'riflar hamda turli yondoshuvlar berilgan. Ushbu ta'riflarning barchasida yagona bir maqsad mujassamlashtirishni ko'rish mumkin, ya'ni hisob siyosati buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishga qaratilgan qoidalar majmuidan iborat.

"Hisob siyosatlari, hisoblab chiqilgan baholardagi o'zgarishlar va xatolar" nomli 8-son BHXSda quyidagi ta'rif shakllantirilgan: *Hisob siyosati* – bu tashkilot tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlashda va taqdim etishda qo'llanadigan muayyan tamoyillar, asoslar, umumqabul qilingan shartlar, qoidalar va amaliy yondashuvlardir [2]. Amaliyotimizda esa bunga biroz boshqacharoq yondoshilganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, milliy standartda: "...Hisob siyosati tashkilot moliyaviy hisobotni tayyorlash va tuzish uchun foydalanadigan maxsus prinsiplarni, konvensiyalarni,

tartib va amaliy yondashuvlarni ifodalaydi” deb ta’rifi berilgan [3]. Ushbu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, bir vaqtning o‘zida buxgalteriya hisobini yuritilishi hamda hisob siyosatini shakllashtirilishiga xo‘jalik sub’ekti rahbari mas’ul shaxs sifatida yondoshilgan. Hisob siyosatiga berilgan ta’riflar va uning mazmunini ifodalab beruvchi fikrlar masalasida xorijiy tajribaga murojaat etiladigan bo‘lsa, hisob siyosati umumiy bir maqsadda xizmat qilishini ko‘rish mumkin. Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida hisob siyosatiga qo‘yidagicha yondoshiladi: “...tashkilotning buxgalteriya siyosati u tomonidan qabul qilingan buxgalteriya hisobi usullari to‘plami - dastlabki kuzatish, xarajatlarni o‘lchash, joriy guruhlash va xo‘jalik jarayonlarini umumlashtirish tushuniladi. Buxgalteriya hisobini yuritish usullariga iqtisodiy faoliyatni guruhlash va baholash, aktivlar qiymatini to‘lash, xo‘jalik jarayonlari, inventarizatsiyani tashkil qilish, buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini qo‘llash, buxgalteriya registrlarini shakllantirish hamda ma’lumotni qayta ishlash va umumlashtirish kabi usullarni o‘z ichiga oladi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur maqolani yozish davomida mantiqiy fikrlash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, monografik kuzatuv, statistika, iqtisodiy tahlil hamda iqtisodiy-matematik tahlil hamda hisob siyosatini shakllantirishdagi buxgalteriya hisobining usullardan foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, buxgalteriya hisobi milliy standartlari, jumladan hisob siyosati bo‘yicha standartni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish uchun quyidagi omillar sabab bo‘ldi:

birinchi, hisob siyosati bo‘yicha milliy standart uzoq yillar davomida konseptual jihatdan o‘zgartirilmay qolganligi, shuningdek, zamonaviy biznes turlari va jarayonlarining rivojlanishi oqibatida korxonalarda shakllantirib kelinayotgan hisob siyosati uslubiy jihatdan talabga javob beray qoldi;

ikkinchi, potensial foydalanuvchilar talablari asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlashga o‘tish munosabati bilan, hisob siyosatida belgilangan qoida va tamoyillar moliyaviy hisobotlarni tuzish va olinadigan olinadigan axborotlarni ishonchli va to‘liq bo‘lishiga kafolat bera olmay qoldi;

uchinchi, respublikaamizda yangi tahrirdagi soliq kodeksining ishlab chiqilishi munosabati bilan moliyaviy instrumentlar, transfer narxlar va rezervlarning yaratilishi, shuningdek, amortizatsiya bo‘yicha yangi normalari kabi yangi mexnizmlar kiritildi. Natijada, korxonaning hisob siyosatida ushbu kiritilgan qoidalar hisobini yuritish bo‘yicha esa uslubiy ko‘rsatmalar yetarli emas;

to‘rtinchi, o‘tgan yillar davomida tadbirkorlik sub’ektlarining barcha qatlamlari, jumladan kichik, o‘rta va yirik korxonalar uchun bir hil hisob siyosatini shakllantirish talabi qo‘yildi. Bunday talab yirik korxonalar, jumladan aksiyadorlik jamiyatlari va yirik soliq to‘lovchilar uchun qulay bo‘lishi mumkin, lekin, kichik va o‘rta korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishga qaratilgan yaxlit hisob siyosati mavjud bo‘lmagan;

beshinchi, hisob siyosatining uslubiy qoidalarini o‘zida to‘liq mujassamlashtirgan va yagona bir tizimlashtirilgan milliy standart mavjud bo‘lmagan, qaytangan moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish maqsadida ishlab chiqilgan standartning bir qismi sifatilda qo‘llanilib kelindi;

oltinchi, korxonalarda hisob siyosatiga bo‘lgan yondashuv, faqat shu bo‘lishi kerak degan tushuncha bilan yashab kelindi, haqiqatda esa, hisob siyosatining asl mohiyati, uning zaruriyati va ahamiyati haqidagi fikrlar ikkinchi darajaga tushib qolgan edi.

Demak, ushbu omillar tufayli, hisob siyosati qoidalari va uni shakllantirish usulbiyotini xalqaro standartlar talablari asosida konseptual jihatdan qayta ko‘rib chiqish zaruratga aylandi.

Korxonalar uchun muhim bo'lgan milliy standartlardan biri bu 1-sonli BHMS «Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati» nomli standart hisoblanadi. Ushbu milliy standart «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuniga asosan ishlab chiqilgan bo'lib, buxgalteriya hisobini me'yoriy tartibga solish elementi sifatida qaraladi. Shuningdek, standart byudjet, sug'urta tashkilotlari, banklar va nobank kredit tashkilotlari hamda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarning oldingi hisobot davrlaridagi moliyaviy hisobotlari va ularni qiyoslanishini ta'minlash maqsadida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va tuzish uchun asos bo'ladi.

Mazkur BHMSda hisob siyosatiga quyidagicha ta'rif berilgan, jumladan: “tashkilotning rahbari buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish uchun qo'llaydigan usullari, ularning prinsip va asoslari bilan birgalikdagi jamlamasi tushuniladi”. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, hisob siyosatining maqsadi, yagona bo'lib, u ham bo'lsa, to'g'ri buxgalteriya hisobini yuritish asosida potensial foydalanuvchilar uchun ishonchli bo'lgan moliyaviy hisobotlarni tuzishga qaratiladi.

Xalqaro standart (8-son BHXS)da esa, hisob siyosatini tuzish maqsadiga quyidagicha yondoshiladi: “hisob siyosatidagi o'zgarishlarni, hisob baholaridagi o'zgarishlarni va xatolarni tuzatishni hisobga olish tartibi va yoritib berish bilan birgalikda, hisob siyosatini tanlash va o'zgartirish mezonlarini belgilashdan iboratdir. Mazkur standart tashkilot moliyaviy hisobotining o'rinaliligi va ishonchliligini hamda oldingi hisobot davrlarining va boshqa tashkilotlarning moliyaviy hisoboti bilan qiyoslanuvchanligini oshirishga qaratilgan”. Xalqaro standartda berilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, hisob siyosatini shakllantirishda, hisob bahodagi o'zgarishlar va xatolarni tuzatishni o'z ichiga oladi. Lekin, xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirilgan 1-son BHMSda bunday tartib mavjud emas.

Hisob siyosati bo'yicha xalqaro va milliy standartlarni taqqosllanadigan bo'lsak. Ular o'rtasida farqli jihatlari va o'zaro bog'liq tomonlarini ko'rish mumkin. Masalan, xar ikkala standartlarning nomlanishida birinchi farqli tomonlari ko'zga tashlanadi:

Xalqaro standartning nomlanishi	Milliy standartning nomlanishi
8-son BHXS Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar	1-son BHMS Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati

Fikrimizcha, hisob siyosatini buxgalteriya hisobi milliy standarti 1-son BHMS tarkibidan chiqarib, alohida milliy standart ko'rinishida ifodalash maqsadga muvofiq. Ya'ni bu yerda 1-son BHMS “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” nomi bilan ifodalanishi va 18 - son BHMS “Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar”. Bu yerda 18-sonli BHMS standartlarning ketma-ketlikdagi tartib raqamlari bo'yicha bo'sh turgan raqamga kiritilishi taklif etilmoqda. Natijada, hisob siyosati bo'yicha me'yoriy hujjat, ya'ni milliy standartni alohida standart sifatida tan olish va uning tartib-qoidalarini xalqaroga to'liq muvofiqlashtirish imkoniyatini beradi. Chunki, amaldagi 1-son BHMSning tarkibiga e'tibor qartadigan bo'lsak, uning asosiy qismi moliyaviy hisobotni tuzish, uning elementlari va qoidalari, taqdim etish hamda moliyaviy hisobotlarda yoritib berish mumkin bo'lgan axborotlarga qaratilgan bo'lib, hisob siyosatini to'liq ochib berish imkoniyatiga ega emas.

Har ikkala standartlarni qo'llash doirasiga to'xtaladigan bo'lsak, quyidagi tushunchalarni ko'rish mumkin:

MHXSda	BHMSda
Qo'llash doirasi:	
Mazkur standart hisob siyosatini tanlash va qo'llashda, shuningdek hisob siyosatidagi	Tashkilotning hisob siyosati tashkilot rahbari tomonidan mazkur BHMS asosida

o'zgarishlarni, hisob baholaridagi o'zgarishlarni va o'tgan davr xatolarini tuzatishni hisobga olishda qo'llanishi lozim.	tashkilot faoliyatining turli yillar uchun tuzilgan moliyaviy hisobotda keltiriladigan moliyaviy ko'rsatkichlari bir-biriga qiyoslanadigan bo'lishi uchun shakllantiriladi.
---	---

Ko'rinib turibdiki, xalqaro standartda izchil hisob siyosatini tanlash, undagi o'zgarishlar va o'tgan davrlarga tegishli xatolarni tuzatish maqsad qilingan. Bizda esa, asosan moliyaviy hisobotlarni tuzish va ularni taqqoslash imkoniyatini beradigan axborotlarni shakllantirishga qaratilgan. To'g'ri, har qanday hisob siyosati yakuni ishonchli bo'lgan moliyaviy hisobotlarni tuzish maqsadida ishlab chiqiladi, leki hisob siyosati hisobot davri davomida o'zgarishi va unda yuzaga kelgan turli xatolarni tuzatishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan amaldagi 1-son BHMSning hisob siyosatiga muvofiq shakllantirilgan qo'llash doirasini quyidagi jumlar bilan to'ldirish kerak deb hisoblaymiz: *“Ushbu standart tashkilotning hisob siyosati - uning turli yillar uchun tuzilgan moliyaviy hisobotda keltiriladigan moliyaviy ko'rsatkichlarini bir-biriga qiyoslanadigan bo'lishi, undagi o'zgarishlar hamda xatolarni tuzatishda qo'llanilishi kerak”*.

MHXSning	BHMSning
Maqsadi:	
Mazkur standart hisob siyosatini tanlash va qo'llashda, shuningdek hisob siyosatidagi o'zgarishlarni, hisob baholaridagi o'zgarishlarni va o'tgan davr xatolarini tuzatishni hisobga olishda qo'llanishi lozim.	Ushbu standart tashkilotning hisob siyosati - uning turli yillar uchun tuzilgan moliyaviy hisobotda keltiriladigan moliyaviy ko'rsatkichlarini bir-biriga qiyoslanadigan bo'lishi, undagi o'zgarishlar hamda xatolarni tuzatishda qo'llanilishi kerak.

Biz tomonimizdan berilgan ushbu yondoshuv esa, hisob siyosati bo'yicha xalqaro va milliy standart qoidalarini uyoqunlashuvi va o'zaro bog'liqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xalqaro standartlardan farqli o'laroq, milliy standartda qo'llaniladigan atama va ta'riflar uchun alohida bandlar ko'rsatilmagan. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, milliy standart asosan moliyaviy hisobotlarni shakllantirish masalalariga qaratilganligi, hisob siyosatini yaxlit ko'rinishda ochib bera olmagan.

Fikrimizcha, hisob siyosatini alohida standart ko'rinishida ifodalab, unda qo'llaniladigan atamalar va tushunchalarni alohida bandlar ko'rinishida berilishi lozim. Masalan, xalqaro standartda (8-son BHXS) atamalar qo'yidagilarni o'z ichiga oladi:

- hisob siyosati;
- hisob bahosidagi o'zgarish;
- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari;
- muhimlik;
- o'tgan davr xatolari;
- retrospektiv qo'llash;
- retrospektiv qayta hisoblash;
- amaliy imkonsiz;
- perspektiv qo'llash;

Taklif etilayotgan milliy standartda quyidagi atamalardan foydalanishi o'z ifodasini topishi lozim:

Hisob siyosati – bu tashkilot tomonidan moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishda qo'llanadigan muayyan tamoyillar, asoslar, umumqabul qilingan shartlar, qoidalar va amaliy yondashuvlar jamlamasidir.

Hisob bahosidagi o'zgarish - tashkilotning aktivlari, xususiy kapital va majburiyatlarining joriy holatini hamda ular bilan bog'liq bo'lgan, kelgusi naflar va javobgarliklarni baholash natijasida ularning balans qiymatini tuzatishdir.

O'tgan davr xatolari - tashkilotning bir yoki undan ortiq o'tgan davrlar uchun moliyaviy hisobotidagi tushirib qoldirishlar va noto'g'ri ko'rsatishlardir.

Retrospektiv qo'llash - yangi hisob siyosatini operatsiyalar, boshqa iqtisodiy hodisalar va holatlarga nisbatan, ushbu hisob siyosatini har doimgidek qo'llashdir.

Hisob siyosatini shakllantirishdagi yana bir muhim masalalardan biri - bu hisob siyosatini tanlash va uning izchilligidir. Bizning milliy standartda bunday bandlar mavjud emas. Ya'ni hisob siyosati qanday tanlanadi va uning izchilligiga qanday erishish mumkin bo'ladi.

Tashkilotda hisob siyosatini tanlash va uni qo'llash masalasi muhim bo'lib, bu tashkilotni hisobot davri davomida buxgalteriya hisobini to'liq va aniq yuritilishini hamda foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotni ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Xalqaro standartda (8-son BHXS, 7-band) hisob siyosatini tanlash va uni qo'llashda quyidagi yondoshuvlar keltirib o'tiladi: "Muayyan operatsiyaga, boshqa hodisa yoki holatga nisbatan ma'lum bir MHXS qo'llansa, hisobning bunday ob'ektiga nisbatan qo'llanadigan hisob siyosati yoki uning qoidalari ushbu MHXSni qo'llagan holda belgilanishi lozim".

Olib borilgan tadqiqotlarda shu narsa ma'lumki, xalqaro standartda operatsiyalar, boshqa hodisalar va holatlarga nisbatan uning qo'llanishi o'rinli va ishonchli ma'lumotni o'z ichiga oladigan moliyaviy hisobot shakllanishiga olib keladigan hisob siyosatini belgilab beradi. Ushbu hisob siyosatini qo'llash ta'siri muhim bo'lmagan hollarda, uni qo'llash talab etilmaydi deb keltirib o'tilgan. Tan olish lozim, amaldagi milliy standart qoidalarida bu kabi alohida moddalar bayoni keltirib o'tilmagan. Demak, BHMS tarkibida ham hisob siyosatini tanlash bo'yicha xalqaro tajribani qo'llash talab etiladi.

Hisob siyosatining izchilligi haqida 8-son BHXSning 13-bandida quyidagi tushunchalar berib o'tilgan; "Agar muayyan MHXSda turli hisob siyosati o'rinli bo'lishi mumkin bo'lgan moddalarni toifalarga ajratish alohida talab etilmasa yoki ruxsat berilmasa, tashkilot o'xshash operatsiyalar, boshqa hodisalar va holatlar uchun hisob siyosatini tanlashi va izchil qo'llashi lozim. Agar muayyan MHXSda moddalarni bunday toiflarga ajratish talab etilsa yoki ruxsat berilsa, har bir toifaga hisob siyosati tanlanishi va izchil qo'llanishi lozim." Demak, soddaroq qilib ta'riflaydigan bo'lsak, "izchil hisob siyosati bir me'yorda va tanlangan aniq bir maqsadli yo'nalishda tashkilotning buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda o'zaro mantiqiy va uzviy bog'liqlikdagi jarayondir". Fikrimizcha xalqaro standartdagi berilgan tushunchani milliy standartlarda to'liq o'z ifodasini topishi lozim.

Tashkilot hisob siyosatidagi o'zgarishlar bo'yicha xam xalqaro va milliy standartlar o'rtasida farqli jihatlari ko'zga tashlanadi.

MHXS bo'yicha	BHMS bo'yicha
Hisob siyosatidagi o'zgarishlar:	
Tashkilot hisob siyosatini faqat quyidagi hollarda o'zgartirishi lozim: - muayyan MHXS tomonidan talab etilsa; - hisob siyosatini o'zgartirish moliyaviy hisobotda operatsiyalarning, boshqa hodisalarning va holatlarning tashkilot moliyaviy holatiga, moliyaviy natijalariga yoki pul oqimlariga ta'siri to'g'risida ishonchli va yanada o'rinli ma'lumotlar aks ettirilishiga olib kelsa.	Tashkilotning hisob siyosatini quyidagi hollarda o'zgartirishi mumkin: - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida yoki buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda o'zgarishlar bo'lganda; - tashkilot qayta tashkil etilganda (qo'shib yuborilganda, bo'linganda, qo'shib olinganda); - mulk egalari almashganda; - buxgalteriya hisobining yangi usullari ishlab chiqilganda; - o'zgartirishlar tashkilotning moliyaviy hisobotlarida axborotni yanada ishonchliroq taqdim etishga ko'maklashganda.

Fikrimizcha, BHMSda keltirib o'tilgan hisob siyosatini o'zgarishi bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida yoki buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda o'zgarishlar bo'lganda" jumlasini "buxgalteriya hisobining yangi usullari ishlab chiqilganda" jumlasini o'z ichiga oladi. Buxgalteriya hisobidagi ishlab chiqilgan yangi usullar bu qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi, shu sababli alohida band sifatida keltirib o'tish zarur emas deb hisoblaymiz.

Shuningdek, bu yerda tashkilot qayta tashkil etilishi (qo'shib yuborilgan, bo'lingan, qo'shib olingan) yoki mulk egalari almashishi hisob siyosatiga ta'sir etmasligi lozim. Xalqaro standartda bunday holatlar nazarda tutilmagan.



1-rasm. Tashkilot hisob siyosatidagi o'zgarishlar sabablari.¹

¹ Muallif ishlanmasi.

Hisob siyosatini qo'llash masalasida xalqaro standartlarda belgilangan "Retrospektiv qo'llash" tartibi BHMSda aks etmagan.

Retrospektiv so'zi (lotincha retro "orqaga" + spectare "qarash, mulohaza yuritmoq") o'tmishga nazar tashlash yoki o'tmishdagi narsalarni ko'rib chiqish ma'nosini anglatib, buxgalteriya hisobida avval sodir bo'lgan voqea va xodisalar hamda operatsiyalarni o'rganadi. Ya'ni hisob siyosatini retrospektiv qo'llash deganda, yangi hisob siyosatini operatsiyalar, boshqa iqtisodiy hodisalar va holatlarga nisbatan, ushbu hisob siyosatini har doimgidek qo'llash tushiniladi.

Hisob siyosatida hisob bahosidagi o'zgarishlar xam aloxida ahamiyatga ega. Xalqaro standartda (8-son BHXS, 32-band) hisob bahosidagi o'zgarishlarga quyidagi yondoshuvlar berilgan: "Xo'jalik faoliyatiga xos bo'lgan noaniqliklar natijasida, moliyaviy hisobotdagi ko'p moddalar aniq baholana olmaydi, balki faqat hisob bahosi orqali baholanishi mumkin. Hisob baholari eng so'nggi va ishonchli ma'lumotga asoslangan mulohazalarni o'z ichiga oladi. Masalan, quyidagilarga nisbatan hisob baholari talab etilishi mumkin:

umidsiz qarzlar;

zaxiralarning jismoniy eskirishi;

moliyaviy aktivlar yoki moliyaviy majburiyatlarning haqqoniy qiymati;

eskirish hisoblanadigan aktivlarning foydali xizmat muddati yoki ularda mujassamlashgan kelgusi iqtisodiy naflarning kutilayotgan iste'moli xarakteri;

kafolat majburiyati".

Ushbu yondoshuvlardan ko'rinib turibdiki, xalqaro standart qoidalari eng ishonchli ma'lumotlar sifatida hisob bahosiga e'tiborni qaratadi. Milliy standartlarda esa, hisob baholaridagi o'zgarishlarning natijalari sof foyda va zararni hisoblashda inoabtaga olinadi va buni quyidagilarda ko'rish mumkin:

hisobot davrida, agar bu o'zgarishlar faqat mazkur davrga ta'sir etgan bo'lsa;

o'zgarishlar yuz bergan hisobot davrida va keyingi hisobot davrlarida, agar o'zgarishlar ularga ham ta'sir o'tkazsa.

Hisob baholari o'zgartirilgan turli davrlardagi moliyaviy hisobotlarni bir-biriga qiyoslashni ta'minlash maqsadida ular moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning ilgari baholash uchun foydalanilgan tasniflangan moddalariga kiritiladi. Shuningdek, joriy davrga jiddiy ta'sir qiladigan hisob baholaridagi o'zgarishlarning mohiyati va qiymati yoki bu o'zgarishlar keyingi davrlarda muhim o'zgarishlarga olib keladigan bo'lsa, ularning mohiyati va qiymati moliyaviy hisobotlarga izohlarda yoritib beriladi.

Hisob bahosidagi o'zgarish		
Balans qiymatiga tuzatish kiritish	Bir nechta davrlarda tan olish	Bu xatoni tuzatishga kiritilmasiligi lozim
Yangi ma'lumotlarni talab etadi		
Umidsiz qarzlar bo'yicha rezerv	Eskirish hisoblash	Kafolat majburiyati

Natijada tashkilotning hisob bahosidagi o'zgarishlar aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalning o'zgarishiga sabab bo'lsa u holda ushbu o'zgarishlar tegishli aktivlar, majburiyatlar yoki xususiy kapital moddasining balans qiymatiga tuzatish kiritish orqali o'zgarish ro'y bergan davrda tan olinadi.

Tashkilot hisob siyosatida belgilangan xatolar xususida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, xalqaro standartlarda oddiygina "xato" so'zi bilan alohida moddalar kiritilgan. Milliy standartlarda esa

“Muhim (jiddiy) xato” termini bilan aks ettiriladi. Bu yerda xalqaro standartda xatoni muhim yoki muhim emasligi haqida chuqur to‘xtalmagan, balki umumiy holda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda yo‘l qo‘yilgan xatolar nazarda tutiladi. Fikrimizda jiddiy xatolik masalasi, asosan auditorlik tekshiruv jarayoniga taaluqli bo‘lgan iqtisodiy atamadir.

MHXSda ifodalangan	BHMSda ifodalangan
Xatolar:	
<i>O‘tgan davr xatolari</i> - tashkilotning bir yoki undan ortiq o‘tgan davrlar uchun moliyaviy hisobotidagi tushirib qoldirishlar va noto‘g‘ri ko‘rsatishlar bo‘lib, quyidagi shartlardagi ishonchli ma’lumotdan foydalanmaslik yoki noto‘g‘ri foydalanish natijasida yuzaga keladi	<i>Muhim (jiddiy) xatolar</i> - joriy hisobot davrida aniqlangan xatolar bo‘lib, ular o‘tgan davrlardagi moliyaviy hisobotlar ishonchli deb hisoblanmasligiga sabab bo‘ladi. Oldingi davrlardagi moliyaviy hisobotlarni tayyorlash chog‘ida yo‘l qo‘yilgan xatolarga kiritilgan tuzatish miqdori (qiymati) hisobot davridagi sof foyda yoki zararga qo‘shiladi.

Demak, tashkilotda moliyaviy hisobotning elementlarini tan olish, baholash, taqdim etish yoki ma’lumotlarni yoritib berishda xatolar yuzaga keladi. Natijada, moliyaviy hisobotda muhim xatolar tashkilotning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul oqimlarini muayyan ko‘rinishda taqdim etishga erishish maqsadida ataylab qilingan muhim bo‘lmagan xatolar mavjud bo‘lsa, moliyaviy hisobotda xato hisoblanmaydi. Tashkilotning joriy davrida aniqlangan xatolari, ulardagi moliyaviy hisobotni e’lon qilishdan avval tuzatilishi talab etiladi. Lekin, ayrim xatolar ba’zida keyingi davrgacha aniqlanmaydi va bunday o‘tgan davr xatolari mazkur keyingi davrning moliyaviy hisobotidagi qiyosiy ma’lumotlarni qayta hisoblash orqali tuzatib boriladi.

1-jadval

Hisob siyosatiga oid xalqaro standart qoidalari bilan taklif etilayotgan milliy standartning farqlari va o‘zaro bog‘liqligi²

Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (8-son BHHS) «Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar»	Taklif etilayotgan O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (18-sonli BHMS) «Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar»
Tarkibiy tuzilishi:	
Maqsadi Qo‘llash doirasi Ta’riflar Hisob siyosatini tanlash va qo‘llash Hisob siyosatini ichzilligi Hisob siyosatidagi o‘zgarishlar Retrospektiv qo‘llash	1-bob. Umumiy qoidalar 2-bob. Qo‘llash doirasi 3-bob. Standartdagi ta’riflar 4-bob. Hisob siyosatini tanlash va uning izchilligi. 5-bob. Hisob siyosatini shakllantirishbob.

² Muallif ishlanmasi.

Hisob baholaridagi o'zgarishlar	6- bob. Hisob siyosatidagi va hisob baholaridagi o'zgartirishlar
Ma'lumotlarni yoritib berish	7-bob. Xatolar
Xatolar	8-bob. Hisob siyosatini retrospektiv qo'llash
Amaliy imkonsiz	9-bob. Moliyaviy hisobotlarda hisob siyosatini yoritib berish
Kuchga kirish sanasi va o'tish qoidalari	10-bob. Standartni kuchga kirish sanasi

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida hisob siyosatini shakllantirishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida, xalqaro va milliy standartlarni chuqur tahlil etgan holda, tashkilot hisob siyosati uchun O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (18-sonli BHMS) «Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar» nomli buxgalteriya hisobi milliy standartning loyihasi ishlab chiqildi va uslubiy jihatdan qo'llash uchun taklif etildi.

Taklif etilayotgan yangi milliy standart tashkilot uchun hisob siyosatini uslubiy jihatdan yanada to'liq va aniq shakllantirish imkoniyatini beradi.

XULOSA.

Taqqoslama ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarga to'xtalib o'tildi:

birinchidan, standartlar bir hil nomga ega, bu esa ularning uslubiy jihatdan o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi, shuningdek, tarkibiy tuzilishi deyarli bir biriga yaqin tushunchalar va qoidalaridan iborat;

ikkinchidan, milliy standartda ilk bora, xalqaroga muvofiq tashkilot hisob siyosatini tanlash va uning izchilligi bayon etilgan, natijada avvallari mavhum bo'lib qolgan standartni tanlash uslubiy jihatdan keng ochib berildi;

uchinchidan, milliy standartda xalqaroga muvofiq, retrospektiv qo'llash masalasi xam alohida bob sifatida keltirildi, bu esa tashkilotda yangi hisob siyosatini turli operatsiyalar, iqtisodiy hodisalar va voqeliklarga nisbatan qo'llashda, ushbu hisob siyosatini har doim qo'llangandek qo'llash imkoniyatini beradi;

to'rtinchidan, milliy standartda moliyaviy hisobotlarni tuzish maqsadida ishlab chiqilgan hisob siyosatini yoritib berish ko'zda tutilgan, xalqaro standartda esa hisob siyosatining muhim qoidalari bo'yicha alohida ma'lumotlarni yoritib berish nazarda tutiladi;

beshinchidan, hisob siyosatini alohida ko'rinishdagi ushbu yangi standart amaldagi moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish bo'yicha milliy standartdan holi bo'lgan shaklda ishlab chiqilgan. Natijada, ma'lum bir standartning taribiy qismi emas, balki metodologik jihatdan mustaqil bo'lgan standart ko'rinishda ifodalanadi, bu esa xalqaro standart talablariga muvofiqlashtirish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahrir). Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024 y., 03/24/1014/1067-son) <https://www.lex.uz/docs/4902?ONDATE=01.01.2024#>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4611-sonli Qarori. 2020 yil 24 fevral. (3-bandi) <https://lex.uz/docs/4746047>
3. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. 8-son BHXS Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar. Rasmiy tarjima. 2022 yil. Rasmiy tarjima.

4. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti. Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati. (1-son BHMS). (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024 yil 6 avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3544). <https://lex.uz/docs/7050497>

5. Kurbonboev J.E. Hisob siyosatini shakllantirishning nazariy asoslari. "Moliya" jurnali. 2025 yil. 1-son. 86-98 bet.

6. Kurbanbaev Jurabek. Improving Accouting Policies in Uzbekistan. Vol. 3 No. 2 (2025): American Journal of Public Diplomacy and International Studies. <https://grnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/view/6819>

7. Kurbanbaev Jurabek. DEVELOPMENT OF ACCOUNTING POLICY IN UZBEKISTAN: THEORY AND PRACTICE. "Ekonomika i sotsium" №1(128) 2025. www.iupr.ru <https://www.iupr.ru/files/2f.pdf?index=true>

Mamatov Xabibulla Mamatovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Audit” kafedrası katta o‘qituvchisi,
xabibulla_1962@gmail.com

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MEHNAT HAQI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

Маматов Хабибулла Маматович,
старший преподаватель кафедры «Аудит»
Ташкентский государственный
экономический университет.
xabibulla_1962@gmail.com

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АУДИТА ЗАРАБОТНОЙ ПЛАТЫ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Mamatov Khabibulla Mamatovich,
Senior Lecturer, Department Audit of
Tashkent State University of Economics
xabibulla_1962@gmail.com

IMPROVING THE AUDIT OF SALARY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda oliy ta'lim muassalarida mehnat haqi hisobi bilan bog'liq operatsiyalar auditini tashkil etish va axborot manbalari bo'yicha hisobda ularning normativ huquqiy hujjatlar asosida aks ettirilganligini tekshirish muammolari yoritilgan. O'zbekistonda oliy ta'lim muassalari (OTM) sonining dinamik o'zgarishi, OTMda ishchi xodimlarga mehnatiga haq to'lash, ularga ustama, qo'shimcha mukofotlar to'lovlarini auditining xususiyatlari, OTM tashkil etilgan sohalar diagrammasi tahlil qilingan hamda oliy ta'lim muassasalarida mehnat haqi auditini takomillashtirish yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan va mavzu yuzasidan xulosalar keltirib o'tilgan. Shuningdek, davlat va xususiy OTMlarda ishchi xodimlarga mehnatiga haq to'lashda mehnat ta'tili uchun to'lovlar hisoblanishi hamda to'lanishi xususiyatlari bilan bog'liq operatsiyalar auditini o'tkazish tartibi yoritilgan.

Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim muassalari (OTM)da mehnatiga haq to'lash operatsiyalari auditini takomillashtirish uchun xizmat qiladi va audit yakuniy natijalari asosida tegishli asosiy professor-o'qituvchilar va tegishli bo'linmalar mas'ul ishchi xodimlarlarining normativ hujjatlarga muvofiq intizomli ish faoliyati olib boshga haqqoniy baho berishga asos bo'ladi.

Tayanch so'zlar: oliy ta'lim muassasasi, xususiy oliy ta'lim muassasi, mehnat haqi, audit, auditorlik tekshiruvi, auditorlik dalillari, moddiy yordam, ustama, mukofot puli, mehnat ta'tili, maqsadli mablag'lari, tijoratlashtirish, moliyaviy hisobot

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы организации аудиторской проверки операций по расчету заработной платы в организациях высшего образования и проверки

правильности их отражения в бухгалтерском учете по источникам информации, основанным на нормативных правовых документах. Также были проанализированы динамика изменения количества высших учебных заведений (ВУЗов) в Узбекистане, особенности аудита оплаты труда работников, премий и дополнительных надбавок в ВУЗах, схема отраслей, в которых организованы ВУЗы, а также разработаны соответствующие рекомендации по совершенствованию аудита заработной платы в ВУЗах и сделаны выводы по теме. Также рассмотрены особенности порядок проведения аудиторских проверок операций, связанных с начислением и выплатой отпускных при оплате труда работников государственных и частных высших учебных заведений.

Это, в свою очередь, будет способствовать совершенствованию аудита расчетно-платежных операций в высших учебных заведениях (ВУЗах) и по результатам итогового аудита даст основу для справедливой оценки дисциплинированной работы соответствующего основного профессорско-преподавательского состава и ответственных работников соответствующих подразделений в соответствии с нормативными документами.

Ключевие слова: высшее учебное заведение, частное высшее учебное заведение, зарплата, аудит, аудиторские доказательства, финансовая помощь, премия, бонус, отпуск по работе, целевые фонды, коммерциализация, финансовый отчет

Abstract: This article discusses the problems of organizing an audit of operations related to payroll accounting in higher education institutions and checking their reflection in accounting according to information sources on the basis of regulatory legal acts. The dynamic change in the number of higher education institutions (HEIs) in Uzbekistan, the features of auditing the payment of salaries, bonuses, and additional bonuses to employees in HEIs, the diagram of the areas in which HEIs are organized are analyzed, and appropriate recommendations are developed to improve payroll auditing in higher education institutions and conclusions are drawn on the topic. It also describes the procedure for auditing operations related to the calculation and payment of vacation pay when paying employees in public and private higher education institutions.

This, in turn, will contribute to the improvement of the audit of settlement and payment transactions in higher education institutions (HEIs) and, based on the results of the final audit, will provide the basis for a fair assessment of the disciplined work of the relevant core teaching staff and responsible employees of the relevant departments in accordance with regulatory documents.

Keywords: higher education institution, private higher education institution, salary, audit, audit evidence, financial aid, award, bonus, work leave, endowment funds, commercialization, financial report.


KIRISH

Mamlakatimizda qabul qilingan qonun hujjatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2025 yil oliy ta'lim muassasalarini yanada tubdan isloh qilish va ularning faoliyatini zamonaviy to'liq kredit-modul tizimiga o'tkazilishi tashkil etildi. Asos sifatida Yevropaning ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System) tizimi qabul qilindi. sohasida jamoatchilik nazorati samaradorligi hamda fuqarolarning demokratik o'zgartirishlardagi faolligini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarda oliy ta'lim muassasalari o'rni beqiyosdir.

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim tizimida yuzaga kelgan muammolarni qisqa muddatda bartaraf etish yuzasidan keyingi yillarda sohani tubdan isloh etish, tizimli islohotlarni amalga oshirish va jahon standartlariga moslashtirish borasida aniq, izchil va keng ko'lamli kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Soha taraqqiyotiga yo'naltirilgan qonunlar, o'nlab muhim farmon, qaror va dasturlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi Farmoni bilan

tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun dasturulamal vazifasini bajarmoqda [9].

O'zbekistonda oliy ta'lim beruvchi xususiy oliygohlar soni har yili bir nechtaga ko'payib borishi va ulardan tashqari davlat OTMlari soni ham tubdan isloh qilinib qayta tashkil etilib bormoqda.



1-rasm. O'zbekistonda OTMlar sonining dinamik o'zgarishi¹].

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotiga ko'ra, Bugungi kunda mamlakatimizda jami 183 ta OTMlari faoliyat yuritib kelmoqda. Nodavlat OTMlar soni 78 taga, xorijiy OTMlar va filiallari esa 30 taga yetgan hamda joriy yillarda ham bir nechta OTM faoliyati tubdan isloh qilinib yangi ochilmoqda yoki qayta tashkil etilmoqda[9].

Shu o'rinda, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar natijasida OTMlar professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlarning samaradorligini oshirish hamda ta'lim sohasida o'zgartirishlarda faolligini oshirishda oliy ta'lim muassasalari moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, ularning o'z mol-mulkiga ega bo'lishi, ya'ni mehnat haqi hisobini yuritish va ularning to'g'ri hisoblanishi ishlatilishi, mavjudligi, saqlanishini, shuningdek hisobdan chiqarilishi auditi muammolariga alohida to'xtalib o'tish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kundan iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida OTMlarida ishchi xodimlarga mehnatga haq to'lash va mehnat ta'tili uchun to'lovlar hisoblanishi hamda to'lanishi xususiyatlari auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish masalalariga iqtisodchi olimlarning asarlarida ayrim jihatlari yoritib berilgan. Jumladan, iqtisodchi olim N.A.Kazakovaning fikricha, mehnat haqi hisobi va to'lovi operatsiyalarida audit amallari muayyan boshqaruv qarorlarini asoslash yoki moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi aloqadorliklarni aniqlash asosida professional fikrni shakllantirish maqsadida ko'rsatkichlarni tahlil qilishdir [6].

R.P.Bulga va M.V.Melnik xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda asosiy ishchi xodimlarga mehnat haqi to'lovi amallarni tahlil qilinuvchi ko'rsatkichlar o'rtasidagi aloqadorliklarni aniqlash maqsadida mehnat haqi auditi tekshiruv usullarini e'tirof etgan [6].

¹ O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlar asosida ishlab chiqildi.

Respublikamizda oliy ta'lim muassasalari soni ortib borishi va o'z-o'zini moliyalashtirish tizimiga o'tgan OTMLar hamda xusuiy OTMLar faoliyatida mehnat haqi hisoblanishi va to'lanishi operatsiyalari auditi keng taraqqiy etmaganligi, shuningdek nisbatan kam o'rganilganligi sababli iqtisodchi olimlarimiz ilmiy asarlarida oliy ta'lim muassasalari umumiy ichki nazorat va auditning ayrim xususiyatlari yoritilgan. Ammo, mamlakatimiz OTMLarida umumiy buxgalteriya hisobini yuritish, ichki nazorat va auditni tashkil etishning nazariy hamda uslubiy jihatlarining muammolari, shu jumladan OTMning buxgalteriya hisobi va auditi, moliyaviy hisobot tuzish xususiyatlari to'g'risida A.A.Karimov, M.Ostanakulov, S.U.Mehmonov, A.X.Pardaev, B.A.Hasanov, E.T.Odilov, K.B.O'razov, Sh.E.Sindarov, A.A.Ostonakulov, Z.U.Hamidova kabi olimlarning ilmiy asarlarida tadqiq qilingan [7,8].

Yuqorida ta'kidlangan fikrlardan ko'rinib turibdiki, iqtisodchi olimlarning fikrlariga asosan OTMLarda mehnat haqi audit xususiyatlarining mohiyati va ularni qo'llash maqsadlari yoritilgan. Biroq, oliy ta'lim muassasalarida mehnat haqi auditini o'tkazish ketma-ketligi va unda auditorlik dalillarining to'plashdagi ahamiyatiga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Maqola mavzusi bo'yicha tadqiqotlar jarayonida OTMda mehnat haqi hisobi auditini takomillashtirishda umumlalashtirish, guruhlashtirish, qiyosiy tahlil, tahliliy amallarni bajarish, induktiv va deduktiv, dalillar olish, jarayonlarni kuzatish kabi ilmiy usullardan foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda OTMda auditorlik tekshiruvlari borasidagi iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda OTMLar faoliyatini yanada rivojlantirish, malakali kadrlar tayyolash va ta'lim jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarni jorish etish kabi muhim o'zgarishlar kiritilmoqda. Buning natijasida OTM ilmiy salohiyatini oshiruvchi asosiy ishchi xodimlar mehnatiga haq to'lash, professor-o'qituvchi xodimlarni iqtisodiy qo'llab quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish tartibi va yo'nalishlari bo'yicha olib borilayotgan siyosat ham o'zgarimoqda.

Ushbu holatni joriy qilish natijasida davlatning ijtimoiy qo'llab quvvatlash va himoya qilish bo'yicha ko'pchilik tadbirlari OTMLarning zimmasiga o'tdi. Chunonchi, ayrim oliy ta'lim muassasalari bu davrda mehnatga haq to'lash shakli, tizimi, miqdori va moddiy rag'batlantirish tartiblarini qonunchilik asosida mustaqil ravishda belgilamoqdalar.

Natijada mehnat haqi tushunchasi o'zgardi, chunki uning tarkibiga ish haqidagi tashqari quyidagi hisoblanadigan va olinadigan quyidagi daromadlar qo'shiladi:

- moliyalashtirish manbaidan qat'iy nazar har xil mukofotlar, qo'shimcha va ustama to'lovlar, ijtimoiy imtiyozlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarning ishlamagan kunlari (ta'til, bayram kunlari va sh.u.) uchun hisoblangan summalar va boshqalar.

OTM xodimlari daromadining tarkibiga, faoliyati davomida innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish va undan olingan mablag'lardan beriladigan moddiy rahbatlantirish pullari (grantlar, innovatsion mulk va xizmatlar sotish) ham qo'shildi.

O'zbekiston OTMLarni barcha jabhalarda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga ega demokratik huquqiy davlatni barpo etishga qaratilgan keng ko'lamli kompleks islohotlarni amalga oshirish va rivojlantirish bo'yicha o'z yo'lini tanladi. Shu sababli, mehnatga haq to'lash bo'yicha

xodimlarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash va himoya qilish bo'yicha o'tkazilayotgan auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishdan maqsad - mehnat munosabatlariga tegishli bo'lgan qonunchilikka rioya qilinishi, ish haqi va turli xil qo'shimcha to'lovlar va mukofotlar, shuningdek, ish haqidan soliqlar va ijtimoiy ehtiyojlar uchun to'lovlar to'g'ri hisoblanishi ustidan nazorat qilishdan iborat.

1-jadval

**OTMlarda mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar auditida
hal etiladigan muammolar²**

№	Muammola mazmuni	Auditda hal etiladigan vazifalar
1	Mehnat qonunchiligiga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlarga rioya qilinishi va ichki nazorat samaradorligining holatini baholash	1.1. Mehnat haqi to'lashni belgilovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlarning mavjudligi va tahlili; 1.2. Jamoa mehnat shartnomalari, xodimlarni mukofotlash va rag'batlantirish to'g'risida nizom mavjudligi; 1.3. Kadrlar, ish vaqti va ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) hisobini hujjatlashtirishning tashkil etilishi o'rganish; 1.4. Haq to'lash va ish haqidan ushlanadigan summalar turlarining klassifikatori (turkumlagich) mavjudligi; 1.5. Ish haqi fondi ustidan nazorat tizimining mavjudligi va holati o'rganish; 1.6. Hisobot ko'rsatkichlarning sintetik va analitik hisob registrlari ma'lumotlariga mosligi tekshirish.
2	Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblarga doir hisob va hisobot ma'lumotlarining ishonchliligini tekshirish.	2.1. Dastlabki hisob hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilishiini tekshirish; 2.2. Haq turlari (ishbay, vaqtbay va h.k.) bo'yicha ish haqi hisoblashning to'g'riligini o'rganish; 2.3. Har xil maqsadlar (mehnat ta'tili va h.k.) uchun o'rtacha ish haqini hisoblashni tekshirish; 2.4. Ish haqidan ushlanadigan summalar to'g'riligi; 2.5. Ish haqi xarajatlarini tannarx tarkibiga qo'shish; 2.6. Ish haqi hisoblash va undan ushlanadigan summalarini hisob-registrlarida aks ettirish; 2.7. Soliqqa tortishda imtiyozlarni qo'llash va jami daromadni hisoblashning to'g'riligi;
3	Budjetdan tashqari fondlar, ijtimoiy soliq to'lov bo'yicha hisob-kitoblarning to'g'riligi	3.1. Ijtimoiy soliq to'lov fondiga ajratmalarni hisoblash bazasi va hisob-kitoblar to'g'riligi o'rganish; 3.2. Ijtimoiy soliq to'lov fondi bilan hisob-kitoblarni hisob va hisobotda aks ettirishning to'g'riligi tasdiqlash;

Auditor tekshiruv chog'ida avvalo hisobot ko'rsatkichlarida jiddiy xatolar yo'qligiga yetarli darajada ishonch hosil qilishi lozim. Bunda dalil isbotlarni to'plash uchun har xil manbalardan shakllanadigan axborot bazasidan foydalaniladi. Shuningdek, mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar auditida 1-jadvaldagi hal etiladigan muammolarni barataraf etish uchun auditni boshlashdan oldin ichki hisob-kitoblarni tekshirish uchun zarur bo'lgan me'yoriy hujjat paketi, sintetik va analitik hisob registrlari bilan boshlang'ich hujjatlarni jamlashi taklif etiladi.

² Muallif ilmiy izlanishlari

Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitob muomilalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish va soliqqa tortish bo'yicha belgilangan qoidalarni tartibga soluvchi me'yoriy-hujjatlar to'plami mijoz korxona faoliyatining xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantirilishi lozim.

Natijada har bir ishchi xodimning mehnat daromadi uning OTM faoliyatiga qo'shgan ulushi va muassasa faoliyatining yakuniy natijasiga bog'liq bo'ladi. Ushbu vaziyatda qo'shimcha daromadlar olishning turlari normativ hujjatlarda asosiy professor o'qituvchilar uchun daromadning yuqori darajasi chegaralanmagan, lekin soliq miqdorining darajasi bilan tartibga solib turiladi. OTMlar asosiy ishchi va boshqa xodimlarning mehnatiga haqining minimal darajasi tegishli qonun hujjatlariga asosan tartibga solib turiladi.

OTMda mehnat haqi hisobini audit jarayoni OTMda quyidagi kategoriyadagi shaxslar ishlashi mumkin:

- doimiy ishchilar (ma'muriy rahbar xodimlar, mehnat daftarchasi OTMda bo'lgan professor-o'qituvchilar,);
- o'rindosh professor o'qituvchilar;
- xo'jalik ishchilari;
- fuqarolik-huquqiy tushuntirish shartnoma tuzilgan shaxslar.

Bundan tashqari, OTMda xorijdan taklif qilingan ko'ngillilar (volontyorlar) ham ishlashlari mumkin. Ko'ngillilar – OTM manfaati uchun tekinga ish bajarish, xizmat ko'rsatish shaklida hayriya qiluvchi jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin.

Audit jarayonida ishchilarni ishga qabul qilish tegishli buyruq (farmoyish) bilan rasmiylashtirilishi lozim va ushbu bilan ishga qabul qilingan ishchi imzo qo'ygan holda tanishib chiqishi lozim.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi OTMlarida mehnat haqi auditini normativ-huquqiy axborot manbalari³

№	Asosiy normativ hujjat	Tegishli normativ hujjatlar davlat raqami va sanasi
1	O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi	21.12.1995 y. 163-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan
2	O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi	O'zbekiston Respublikasi O'RQ№798 sonli Qonuni, 2022 yil 28 oktyabr
3	O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi	O'zbekiston Respublikasi O'RQ-136-sonli Qonuni, 30.12.2019y.
4	“O'rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarish” TARTIBI	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi 133-son qarori bilan tasdiqlangan
5	O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi	O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 26 dekabrda O'RQ-360-son Qonuni bilan tasdiqlangan
6	O'zbekiston Respublikasida Auditning xalqaro standartlari (AXS). Uslubiy ko'rsatmalar tushuntirishlar va auditorlik faoliyatiga doir	O'zbekiston Respublikasi Auditning xalqaro standartlari (AXS), O'zbekiston auditorlarining kasbiga oid axloq kodeksi, Moliya vazirligi

³ Ushbu jadval normativ-huquqiy hujjatlar asosida mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan

	boshqa me'yoriy hujjatlar	tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy ko'rsatmalar, tushuntirishlar va auditorlik faoliyatiga doir me'yoriy hujjatlar.
6	OTMda mehnat haqi operatsiyalari nazoratining ichki standartlari	OTMda mehnat haqi operatsiyalari auditi uchun tashkilotlarning ichki standartlari va xodimlarga qo'yilgan malaka talablari Ilmiy Kengash qarori bilan tasdiqlanishi kerak.

Ushbu jadvalda mehnat haqi auditi faoliyatini tartibga solish hujjatlarida yuqorida keltirilgan manbalar va chet el tajribasi asosida guruhlash tartibi ishlab chiqildi va bunda ularning huquqiy asosiga e'tibor qaratildi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga asosan mehnatga oid munosabatlar va ular bilan bevosita bog'liq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosiy prinsiplari etib quyidagilar belgilangan⁴:

- mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash;
- mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash;
- mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik;
- mehnat huquqlari ta'minlanishining va mehnat majburiyatlari bajarilishining kafolatlanganligi;
- xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yo'l qo'yilmasligi kerak.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 74-moddasi talablariga muvofiq mehnat shartnomasi yozma shaklda tuziladi va ushbu ishchi va ish beruvchiga shartnoma tuzishda kelishilgan shartnoma shartlarini belgilab olishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi 133-son qarori bilan yozma shaklda mehnat shartnomasi (kontrakt) tuzish yuzasidan tavsiyalar va mehnat shartnomasi (kontrakt)ning namunaviy shakli tasdiqlangan.

Audit jarayonida o'rindoshlik asosida ishchini ishga qabul qilishda ham mehnat shartnomasi yozma shaklda tuzilishiga e'tibor berish tavsiya etiladi. Bu yerda mehnat shartnomasi va fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma tushunchalarining farqiga borish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 72-moddasiga muvofiq mehnat shartnomasining asosiy mezonlari quyidagilar hisoblanadi:

- ishchi tomonidan muayyan mehnat vazifasini, ya'ni mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishni bajarishi;
- ishchining ichki mehnat tartibiga bo'ysunishi;
- ishchini u ishlayotgan tashkilot mehnat kollektiviga kiritish.

Agarda jismoniy shaxs bilan qandaydir bir martalik vazifani bajarishga (aniq bir ish hajmini bajarish, maslahat va boshqalar) kelishilsa, bu holda fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma tuzilishi kerak.

Fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma bo'yicha ijrochi (ish bajaruvchi) kollektiv a'zosi hisoblanmaydi, OTMda o'rnatilgan tartibga bo'ysunmaydi va ishni o'z ixtiyoriga asosan tashkil etadi.

Unga mehnat haqi yakuniy mehnat natijasiga to'lanadi va tegishli hujjatlar (bajarilgan ish dalolatnomasi va boshqa hujjatlar) bilan rasmiylashtirilish taklif etiladi. Bunda fuqarolik-huquqiy

⁴ O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, O'RQN№798 son, 2022 yil 28 oktyabr

tusdagi shartnoma bo'yicha bir martalik ish bajarish elektron mehnat daftarchasiga aks etmagan holda amalga oshiriladi va ish stajiga kiritilmaydi.

Shtat jadvalida nazarda tutilgan lavozimga qabul qilinayotgan ishchilarning barchasi bilan mehnat shartnomasi tuziladi va u boshqa tegishli hujjatlar bilan bir qatorda shaxsiy hujjatlar yig'majildida saqlanadi hamda mehnat shartnomasi asosida ishga qabul qilish to'g'risida buyruq (farmoyish) rasmiylashtiriladi.

Taraflar (ish beruvchi va ijrochi (ish bajaruvchi)) tomonidan imzolangan fuqarolik-huquqiy tusdagi (mehnat kelishuvi) shartnomalar OTM buxgalteriya hisobi bo'limiga ishga qabul qilish to'g'risida buyruq (farmoyish) rasmiylashtirilmagan holda ijro etishga beriladi.

Auditor mehnat haqi opreatsiyalari auditida OTMning ish vaqti hisobi ish vaqtidan foydalanish hisobi mehnat qaydnomalarida yuritilishini tekshirish kerak. Mehnat qaydnoma – bu OTM ishchi-xodimlarining nomma-nom ro'yxatidir va u quyidagilar uchun ishlatilishi taklif etiladi:

- OTMning ishchi-xodimlari ish vaqti rejimiga rioya qilishi nazorati;
- ishlangan ish vaqti haqida ma'lumot olish uchun;
- ish haqi hisoblash uchun;
- moliyaviy va statistik hisobotlar shakllantirish uchun.

OTM o'z ixtiyori bo'yicha qaydnoma shaklini tanlashi mumkin. Qoidaga ko'ra, amaliyotdagi muassalarda tashkilotlarda T-13-son tabel shakli ishlatiladi. Ushbu shaklda faqat ish vaqti hisobi aks ettiriladi.

Ish vaqti – ishchining ish tartibi yoki grafigi muvofiq yohud mehnat shartnomasi shartlariga asosan o'ziga yuklatilgan mehnat majburiyatlarni bajarishi lozim bo'lgan vaqt. Amaldagi qonunchilikda ish vaqtining davomiyligi har xil belgilangan bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 115-moddasiga muvofiq xodim uchun ish vaqtining normal muddati haftasiga qirq soatdan ortiq bo'lishi mumkin emas[9].

Olti kunlik ish haftasida har kungi ishning muddati yetti soatdan, besh kunlik ish haftasida esa sakkiz soatdan ortib ketmasligi lozim.

Korxonada ish vaqtini jamlab hisobga olish joriy qilingan taqdirda Mehnat Kodeksning 123-moddasida nazarda tutilgan qoidalar qo'llaniladi [2].

Audit jarayonida to'liqsiz ish vaqti mehnat shartnomasiga asosan xodim va ish beruvchi o'rtasida o'rnatilganlini o'rganish ham tavsiya etiladi. Bu asosan o'rindoshlik asosida ishga qabul qilingan xodimlarga tegishli ekanligini har bir auditor yachshi bilishi lozim. OTMda o'rindoshlik asosidagi ish vaqti davomiyligi kuniga to'rt soatdan oshishi mumkin emasligi normativ hujjatlarda belgilangan [3]. O'rindoshlik asosidagi ish vaqtining oy davomida umumiy davomiyligi ushbu kategoriyadagi xodimlar uchun o'rnatilgan ish vaqtining oylik me'yori yarmidan oshmasligi lozim. Qonunchilikda belgilangan ish vaqti davomiyligining boshqa me'yorlari O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksida batafsil keltirilgan (116-118-moddalar) [2].

OTMda xodimlarga ish haqi shtat jadvaliga asosan qat'iy maoshda belgilanadi. Fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma bo'yicha mehnat haqi yakuniy mehnat natijasiga to'lanadi va tegishli hujjatlar (bajarilgan ish dalolatnomasi va boshqa hujjatlar) bilan rasmiylashtiriladi.

Asosiy ishchi xodimlarning mehnatiga haq to'lash operatsiyalarini tekshirganda auditorlik amali va dalillari bu muayyan schyotlar va tasdiqlovchi hujjatlar asosida solishtirish tavsiya etiladi [2-jadval].

OTMlarda mehnat haqi operatsiyalari auditida dalillar olish amallarining turlari⁵

№	Audit amallarining turlari	Misol
1	Hujjatlarni tekshirish	Dalillarni tasdiqlash uchun mijoz hujjatini o'rganish
2	Aktivlarni tekshirish	Mijoz aktivlarni jismoniy mavjudligini tekshirish
3	Kuzatish	Jarayon yoki taribni kuzatish, xususan mijoz cheknangan hududlardan foydalangan tomonlarni
4	Tashqi tasdiq	Auditor uchun to'g'ridan-to'g'ri yozilgan, mijozning xaridori tomonidan qarz miqdorini tasdiqlovchi, uchinchi shaxsning tasdig'ni olish
5	Qayta hisoblab chiqish	Qaydlar va hujjatlardagi matematik aniqlikni tekshirish, misol uchun inventorlarni hisoblashdagi
6	Solishtirma hisob	Mijoz tomonidan haqiqiy bajarilgan ishni mustaqil ravishda tarib va nazoratni bajarish, misol uchun bank bilan solishtirma hisob
7	Tahliliy jarayonlar	Moliyaviy va nomoliyaviy ma'lumotlar o'rtasidagi bog'likni aqlan tahlil qilish
8	Ko'rish	Tahliliy jarayonning turi, bunda odatda buxgalteriya ma'lumotlari muhim yoki muhim yemasligini aniqlashtirish uchun ko'rib chiqiladi, misol uchun schyotning credit balansi debit balansi bilan tekshiriladi
9	Talab etish	Mijoz tashkilotning ichki yoki tashqi shaxslari ma'lumotlari qidirladi, misol uchun hisob siyosatida o'zgarishlar haqida moliyaviy direktor yoki bosh direktor bilan aloqadorlik

Bunda audit amali vaqtida mehnat haqi bilan bog'liq auditorlik dalillari amal qiladigan davr yoki sanada bajarilishini o'rganish kerak. Misol uchun, asosiy professor – o'qituvchining yil oxirigacha to'lov operatsiyalari va qaydnomalarida yil oxirida yoki oraliq sanada o'rganilganda, asosiy stavkadan tashqari, usatamalar va boshqa mukofot pullari to'lovi bir-birga mos kelmasligi mumkin. Bu vaziyatda audit amallari ko'lami miqdorda amalga oshirilishi nazarda tutadi (masalan, nazorat faoliyatining kuzatuvlar soni yoki tanlov ko'lamini kengaytirish tavsiya etiladi) va audit amallari bajarilish davomida audit ishchi dasturi asosida tasdiqlovchi hisobot hujjatida jamlanishii kerak.

Bugun amaliyotda OTMlarda mehnat haqi auditi bilan bog'liq operatsilarni asosiy xodimlari mehnat tatili uchun o'rtacha oylik ish haqini hisolabshda ta'tillar vaqtiga haq to'lash, ishdan bo'shatish nafaqasini, ishsizlik nafaqasini to'lash, shuningdek oliy ta'lim tizimida o'qish, qayta tayyorlash va malaka oshirish davri uchun o'rtacha oylik ish haqi birinchi yil ishlovchilarga hisoblab chiqarib kunidagi tarifkatsiya bo'yicha belgilangan ish haqi yoki lavozim maoshidan kelib chiqqan holda ularni o'n ikkidan birga (olti oy to'liq ishlaganlarga oltidan birga, yetti oy to'liq ishlaganlarga yettidan birga), o'rta maxsus va hunar-texnika o'quv yurtlari o'qituvchilari uchun hisoblash davrida tarifkatsiya bo'yicha belgilangan ish haqi yoki lavozim maoshidan oshgan summani o'ndan birga oshirgan holda hisoblab chiqarilishini tekshirish kerak[7]. Ularga ishbay asosida ishlab topilgan qo'shimcha ish haqi, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ish haqiga qo'shimcha haqlar va ijtimoiy sug'urta bo'yicha badallar hisoblanadigan boshqa to'lovlar kirishni (koronavirus pandemiyasi

⁵ Ushbu jadval normativ-huquqiy hujjatlar asosida mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan

davrida xodimlarga beriladigan barcha qo'shimcha rag'batlantirish to'lovlari, jumladan maxsus to'lovlar, kunlik qo'shimchalar, bir yo'la beriladigan to'lovlar va zararlari uchun qo'shimcha ustamalardan tashqari) asoslovchi hujjatlar bilan tasdiqlanganligini o'rganish tavsiya etiladi. Bunda auditorlar yil oxirida ortiqcha bajarilgan soatlar uchun o'rta maxsus va hunar-texnika o'quv yurtlari o'qituvchilariga qo'shimcha haq ushbu soatlar bajarilayotgan vaqtda amalda bo'lgan stavkalar bo'yicha to'lanishini ham o'rganishi lozim.

Shu o'rinda, qayd etish kerakki xodimlarning salomatligiga mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi ish beruvchi tomonidan qoplanishi uchun summalar hisob-kitobi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi[5].

Bugungi amaliyotdan kelib chiqib xususiy OTMlarining asosiy faoliyati bo'yicha ish haqi hisoblanishini tekshirishda, buxgalteriya hisobida operatsiyalari quyidagicha aks ettirish tavsiya etiladi:

- Asosiy ishchi pedagog xodimlarga hisoblanishi:

Debet maqsadli tushumlarni hisobga oluvchi schyotlar (2010);

Kredit 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar" schyoti;

Yoki xususiy OTM hisob siyosatiga muvofiq ishchi schyotlar rejasida dasturlar bo'yicha xarajatlarni hisobga oluvchi yordamchi schyotlar nazarda tutilgan bo'lsa:

Debet maqsadli dasturlar bajarilishi xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar (2200);

Kredit 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar" schyoti;

- tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilganda:

Debet xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (2010, 9400);

Kredit 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar" schyoti;

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ushlanganda:

Debet 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar" schyoti;

Kredit 6410 "Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzar (turlari bo'yicha)" schyoti;

Bir vaqning o'zida:

Debet 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar" schyoti;

Kredit 6530 "Shaxsiy jamg'arib boriladigan hisobvaraqlarga to'lovlar" schyoti.

Tashkilotlar tomonidan ShJBPHga badallar xodimning soliqqa tortiladigan hisoblangan ish haqi summasidan 0,1 foiz miqdorda va ushbu summani hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tegishli chegirib tashlanib amalga oshiriladi.

Xususiy oliy ta'lim muassasalari ishchilarning davlat ijtimoiy soliq to'lovlariga, pensiya ta'minotiga ajratmalar va shunga o'xshash boshqa xarajatlar haqida ma'lumotlarni aks ettirish quyidagicha amalga oshirishi taklif etiladi:

6420 "Ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar" schyoti;

6520 "Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar" schyoti.

Ushbu to'lovlarning analitik hisobini yuritishda quyidagi qo'shimcha schyotlarni ochish tavsiya etiladi:

6421 "Budjetga ijtimoiy soliq to'lovi" schyoti;

6521 "Pensiya jamg'armasiga fuqarolarning majburiy sug'urta badallari" schyoti

Xususiy oliy ta'lim muassasalari mehnat haqi operatsiyalari auditi jarayonida ta'lim muassasasining umumiy ish faoliyatini amalga oshirish xarajatlariga, xususan, tashkilot rahbarlari va ularning o'rinbosarlariga, buxgalteriya hisobi va shunga o'xshash xizmatlarga ish haqi va ish haqidan

ijtimoiy sug'urta ajratmalar, boshqaruv apparati band qilgan bino ijarasi to'lovi, bank xizmati to'lovi va boshqalar kiritilishini ham o'rganishi va tasdiqlovchi hujjatlarini solishtirishi kerak [8].

Masalan, xususiy OTMning ma'muriy xodimlarining ish haqi bo'yicha xarajatlarini 1 va 2-son maqsadli dasturlar turlariga taqsimlash prinsipini ko'rib chiqamiz.

Amaliy misol:

OTMda ma'muriy xodimlarining ish haqi – 800 ming so'mni tashkil etadi.

1-son maqsadli dasturda bevosita band xodimlarning ish haqi – 400 ming so'm.

2-son maqsadli dasturda bevosita band xodimlarning ish haqi – 200 ming so'm.

1. OTMning asosiy ustav faoliyati bo'yicha ish haqiga xarajatlarning umumiy summasi aniqlanadi:

$400 \text{ ming so'm} + 200 \text{ ming so'm} = 600 \text{ ming so'm}$

2. Ish haqi xarajatining ulushi aniqlanadi:

- 1-son dastur bo'yicha ish haqi xarajatlari uchun - 66,7 % ($400 \text{ ming so'm} / 600 \text{ ming so'm} \times 100 \%$);

- 2-son dastur bo'yicha ish haqi xarajatlari uchun - 33,3 % ($200 \text{ ming so'm} / 600 \text{ ming so'm} \times 100 \%$).

3. OTM ma'muriy tarkibining mehnat haqi bo'yicha xarajatlari summasi dasturlar turlari bo'yicha taqsimlanadi:

- 1-son dastur bo'yicha ish haqi xarajatlari uchun - 533,6 ming so'm ($800 \text{ ming so'm} \times 66,7\%$);

- 2-son dastur bo'yicha ish haqi xarajatlari uchun - 266,6 ming so'm ($800 \text{ ming so'm} \times 33,3\%$).

Yuqoridagilardan kelib chiqqilib shuni xulosa qilamizki, hozirgi kunda OTMlarda mehnat haqi operatsiyalari auditining barcha nozik jihatlari qonunchilik va normativ hujjatlar darajasida tartibga solinmagan. Budjetdan mablag' oluvchi davlat OTMlar maqsadli mablag'lar bilan ishlatishda nafaqat qonunchilikdagi holatlar va qoidalarni, balki rivojlantirish jamg'armasi uchun tijoratlashtirish mablag'lari tushirgan tashkilotlar talablarini ham yuqori darajada aniq bajarishga majbur hisoblanadilar. Xususiy OTMlarda tijrotlashtirish mablag'lari va maqsadli tushumlar hisobidan mehnatga haq to'lashni tashkil qilish bo'yicha qabul qilingan barcha qarorlar hisob siyosati o'z aksini topgan bo'lishi va Kengash qarori bilan tasdiqlangan holda sarflanishi tavsiya etiladi.

XULOSA

Ushbu maqolamizda oliy ta'lim muassasalarida mehnat haqi hisobi bilan bog'liq operatsiyalar auditini tashkil etish va axborot manbalari bo'yicha hisobda ularning normativ huquqiy hujjatlar asosida aks ettirilganligini tekshirish, shuningdek, ishchi xodimlarga to'lanadigan mehnat haqi bilan bog'liq boshqa to'lovlarni tekshirish muammolari yoritilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib OTMlarda mehnat haqi auditini takomillashtirish yuzasidan quyidagicha taklif va tavsiyalar berish maqsadga muvofiqdir:

1. OTMda mehnat haqi auditini rejalashtirish 6 oylik va yillik hisobot yili yakunlanishi bilan OTM kengash qarori asosida tasdiqlanganligi aks etishi kerak.

2. Davlat va xususiy OTMlarda ishchi xodimlarga mehnati bog'liq ustama, qo'shimcha mukofotlar to'lovlari auditining xususiyatlaridan kelib chiqib mehnat haqi auditini takomillashtirishda buxgalteriya hisobi ma'lumotlari o'rtasidagi tafovutlarni tartibga solish to'g'risidagi takliflar ko'rib chiqish uchun OTM Kengashi yig'ilishiga taqdim etilishi shart.

3. Davlat va xususiy OTMlar mehnat haqi operatsiyalari auditida soatbay asosida ishlab topilgan qo'shimcha ish haqi, mukofotlar, tijoratlashtirish hisobidan qo'shimcha mukofot to'lovlari, ish haqiga qo'shimcha haqlar va ijtimoiy sug'urta bo'yicha badallar hisoblanadigan boshqa to'lovlar kirishni (koronavirus pandemiyasi davrida xodimlarga beriladigan barcha qo'shimcha

rag'batlantirish to'lovlari, bir yo'la beriladigan to'lovlar va zararlari uchun qo'shimcha ustama to'lovlardan tashqari) asoslovchi hujjatlar bilan tasdiqlanganligini o'rganish tavsiya etiladi.

4. OTM ijrochi rahbari ish beruvchi sifatida mulkga yetkazilgan zarar hajmi, zarar uchun xodimning moddiy javobgarlik chegaralari va tartibini aniqlash O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi bilan tartibga solish tavsiya etiladi. Bunda bir oylik o'rtacha ish xaqidan oshmaydigan yetkazilgan zarar summasini aybdor xodimdan undirish ish beruvchining buyrug'iga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Buyruqda yetkazilgan zarar aniqlangan kundan boshlab bir oydan kechikmasdan chiqarilishi mumkin. Bunda zarar hajmi audit o'tkazish davrida mazkur joyda amal qilayotgan bozor baholari bo'yicha hisoblanadi.

5. Agarda OTMlarda barcha ma'muriy, asosiy va yordamchi ishchi xodimlaridan undirilishi lozim bo'lgan yetkazilgan zarar summasi uning o'rtacha oylik ish xaqidan yuqori yoki zarar aniqlangan kundan boshlab bir oylik muddat o'tgan bo'lsa, undirish sud orqali amalga oshirish tavsiya etiladi. Bunda vaziyatda audit jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasini soliqqa tortish O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga asosan amalga oshirish tavsiya etiladi.

Shuningdek ish beruvchi sifatida OTM ortiqcha va qushimcha asossiz to'langan mehnat haqi to'lovlari to'langanda, ish haqi buyicha kamomad chiqqanda yoki shtatda mavjud bo'lmagan xodimlarga noto'g'ri mehnat haqi to'lash natijasida hamda boshqa hollarda yetkazilgan zarar hajmi bozor qiymati bo'yicha hisoblanadi va javobgar shaxslar tomonidan to'liq qoplanishi shart. Shu o'rinda, mehnat haqi hisoblanishi va to'lanishi operatsiyalari auditi yakuniy natijalari bo'yicha OTMlar ta'sischilariga asos sifatida ijrochi rahbar va bosh buxgalter hamda tegishli bo'linma rahbarlarining normativ hujjatlarga muvofiq xolisona, haqqoniy tartibda baho berish uchun auditorlik hisobotida aks ettirilib tegishli auditorlik xulosasi taqdim etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksining Birinchi qismining tasdiqlash to'g'risida, 1995 yil 21 dekabr. 163-I-sonli Qonun bilan tasdiqlangan.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi Tasdiqlash to'g'risida, O'RQ №798 son, 2022 yil 28 oktyabr
3. O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi Tasdiqlash To'g'risida Qonuni, O'RQ №360, 2013 yil 26 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, T:- «O'zbekiston»2019 y.
5. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" Qonuni (yangi tahriri), O'RQ №404-son, 2016 yil 13 aprel. «Xalq so'zi» gazetasining 2016 yil 14 apreldagi 73 (6508)-soni.
6. "O'rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarish" TARTIBI. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi 133-son qarori bilan tasdiqlangan
7. Mehmonov S.U. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent-2018. -77 b.;
8. Xamidova Z.U. «Oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va ichki auditni takomillashtirish». iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan avtoreferat. Toshkent - «Iqtisod-Moliya», 2020y. 57 b.
9. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
10. <https://edu.uz/uz> - O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy sayti, 2022 yil.

Nigmatova Gulnora Nurxanbetovna,
“Moliyaviy tahlil” kafedrası dotsenti
Toshkent davlat iqtisodiyoti universiteti
[gulnoraniqmatova 349@ gmail.ru](mailto:gulnoraniqmatova349@gmail.ru)

FAN, TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI

Нигматова Гульнора Нурханбетовна,
Ташкентский государственный
экономический университет.
Доцент кафедры «Финансовый
анализ» [gulnoraniqmatova 349@ gmail.ru](mailto:gulnoraniqmatova349@gmail.ru)

ИНТЕГРАЦИЯ НАУКИ, ОБРАЗОВАНИЯ И ПРОИЗВОДСТВА

Nigmatova Gulnora Nurkhanbetovna,
Tashkent State University of
Economics Associate Professor of the
Department of "Financial Analysis"
[gulnoraniqmatova 349@ gmail.ru](mailto:gulnoraniqmatova349@gmail.ru)

INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION

Annotatsiya. Maqolada mamlakatda ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlari ko'rib chiqiladi, ta'lim va fanni o'quv jarayoniga integratsiyalash imkonini beradigan pedagogik konsepsiyani ishlab chiqish va taklif qilish zarurligi ko'rsatilgan; buxgalteriya hisobi bo'yicha zamonaviy ta'lim misollari keltirilgan.

Tayanch so'zlar: Kadrlar tayyorlash, huquqiy asoslar, buxgalteriya hisobi va audit, pedagogik kontsepsiya, kadrlar siyosati, kasbiy mulohazalar.

Аннотация. В статье рассматриваются процессы реформирования системы образования в стране, показана необходимость разработки и предложения педагогической концепции, которая позволила бы интегрировать образование и науку в образовательный процесс; приведены примеры современного бухгалтерского образования.

Ключевые слова: Подготовка кадров, правовая база, учет и аудит, педагогическая концепция, кадровая политика, профессиональные соображения.

Abstract. The article examines the processes of reforming the education system in the country, shows the need to develop and propose a pedagogical concept that would allow integrating education and science into the educational process; examples of modern accounting education are given.

Keywords: Personnel training, legal framework, accounting and audit, pedagogical concept, personnel policy, professional considerations.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasining « Ta'lim to'g'risida » gi qonuni va « Kadrlar tayyorlash milliy dasturi » ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini asoslab berdi , respublikada ta'lim tizimi va turlarini belgilab berdi . “ Ta'lim to'g'risida ” gi qonun va “ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ” ta'lim tizimini davlat ta'lim muassasalari negizida yagona o'quv , ilmiy va ishlab chiqarish majmuasi sifatida izchil rivojlantirish uchun zarur huquqiy asos yaratdi .

O'quv jarayoniga eng yangi texnologiyalarni joriy etish talabalar , o'quvchilarning intellektual rivojlanishi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim shartidir .

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

O'zbekistonda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. So'nggi yillarda bu borada bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi, jumladan:

- 2017 yilda Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan 2019-yilda fan, ta'lim va ishlab chiqarishni 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq 2020-yilda Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va fan va texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish.

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy tadqiqotning metodologik asosini hozirgi ta'lim tizimlari muammolari bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari tashkil etdi .Ilmiy usullarni, ham amaldagi qonunchilik me'yorlari va ta'lim standartlarini tahlil qilish va baholashga tizimli yondashgan holda foydalanildi .

Natija va muhokama.

Respublikada ta'lim mazmunini tubdan isloh qilish tayyorlanayotgan kadrlar sifati respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga mos kelishini ta'minlashni taqozo etdi . Shundan kelib chiqib , barcha turdagi ta'lim muassasalari uchun majburiy bo'lgan davlat ta'lim standartlari belgilandi . Standartlarni joriy etish quyidagi maqsadlarni amalga oshirishni nazarda tutadi :

- yuqori sifatli ta'lim va kadrlar tayyorlashni ta'minlash ;
- ta'lim jarayonini demokratlashtirish , insonparvarlashtirish va erkinlashtirish ;
- o'quv jarayoni va kadrlar tayyorlashning uzluksizligi va uzluksizligini ta'minlash ;
- ta'limning barcha turlari va bosqichlarida o'quv jarayonini optimallashtirish ;
- mehnat bozorida va ta'lim xizmatlarida raqobatbardoshlikni ta'minlash .

Darhaqiqat , shuni ta'kidlash joizki , bu vazifa buxgalteriya hisobi va hisobotini ishlab chiqish yoki foydalanish bilan bevosita shug'ullanadigan amaliyotchilar uchun e'tiborga loyiqdir .

Xususan , O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24 fevraldagi qarorida belgilangan vazifalar 2020 (№ PP-4611) oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan "Buxgalteriya hisobi va hisoboti " fanining mohiyatini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qildi .

Xorijiy investorlar uchun zarur axborot muhitini ta'minlash va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga jadal o'tish orqali xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, buxgalteriya hisobi va audit sohasida xalqaro standartlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida quyidagilar nazarda tutilgan:

- buxgalteriya hisobi sohasida xalqaro tashkilotlar (Xalqaro sertifikatlangan buxgalterlar assotsiatsiyasi (ACCA) va boshqalar) bilan hamkorlikni kengaytirish, shu jumladan, buxgalteriya hisobi va audit sohasida qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha nodavlat ta'lim

tashkilotlarini bosqichma-bosqich xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha muvaffaqiyatli jahon amaliyotini tarqatish; ta'lim muassasalari ;

- bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha "Buxgalteriya hisobi" va "Audit" fanlari bo'yicha MHMSni chuqur o'rganishni nazarda tutuvchi yangilangan o'quv dasturlarini o'quv jarayoniga joriy etish ;

- 2021/2022-o'quv yilidan boshlab tajribaviy oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va audit fanlarini o'qitish faqat xalqaro sertifikatlashtirish yoki xalqaro buxgalter sertifikati doirasida "BFRS bo'yicha moliyaviy hisobot" yoki "XQS bo'yicha audit" fanlarini muvaffaqiyatli tamomlaganligi to'g'risidagi hujjatga ega bo'lgan o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi;

Bu holat ta'lim va fanni o'quv jarayoniga integratsiyalashuviga imkon beradigan pedagogik konsepsiyani ishlab chiqish va taklif qilish zarurligini ko'rsatdi .

Buxgalteriya hisobi tizimi butun dunyo bo'ylab har qanday boshqaruv tizimi uchun ishonchli ma'lumotlarning muhim manbai sifatida tan olingan . Buxgalteriya hisobi tizimining shakllari milliy ko'rinishga ega bo'lsa-da , ular chegaralarini , dunyo mamlakatlari mazmunini va xalqaro buxgalteriya texnologiyalaridan foydalanishni bilmaydi , bu esa mavjud global hisob tizimining umumiy va o'ziga xos jihatlarga olib keladi . Bu tasniflash , baholash va milliy hisob tizimini doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Buxgalteriya hisobini bozor modelini yaratish nuqtai nazaridan takomillashtirish yo'nalishlaridan biri sifatida nazariy tushunchalarni izchil ishlab chiqish deb e'tirof etilishi kerak , uning yordamida allaqachon o'rnatilgan , yaqinda paydo bo'lgan va taklif etilayotgan buxgalteriya hisobi texnologiyalarini baholash va shu asosda buxgalteriya hisobi jarayonini me'yoriy va uslubiy qo'llab-quvvatlashni ishlab chiqish mumkin .

Iqtisodiy sohadagi o'zgarishlar jarayoni buxgalteriya hisobi ta'limi tizimi oldiga murakkab masalalarni qo'ydi , ularning yechimi mavjud yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish sharoitida amalga oshirilmoqda . Bir tomondan , mahalliy ta'lim tizimining kuchli tomonlarini saqlab qolish zarur bo'lsa , ikkinchi tomondan , ta'lim tizimini yangi sharoitlarda , o'zgaruvchan iqtisodiyot talablariga javob beradigan , biznesni qo'llab-quvvatlashning etakchi omillaridan biri sifatida o'z rolini saqlab qolishi uchun moslashuvchan va moslashuvchan bo'lishi kerak .

“ Ta'lim to'g'risida ” gi qonunida belgilangan ta'lim siyosati tamoyillariga asoslanadi .

Buxgalteriya hisobi sohasidagi zamonaviy ta'lim ijtimoiy amaliyotning eng murakkab shakli bo'lib , uning ushbu tarixiy bosqichdagi o'rni va roli alohida va noyobdir . Bugungi kunda ko'rib chiqilayotgan ta'lim keng ko'lamli ijtimoiy institut bo'lib, uning yordamida jamiyat taraqqiyoti maqsadlarini amalga oshirish amalga oshiriladi . Buxgalteriya hisobini isloh qilish kontekstida aynan ta'lim yangi shakllarga moslashishga imkon beradi va rivojlanishning yangi ko'rsatmalarini ko'rsatadi .

Kasbiy tayyorgarlik bosqichida mutaxassisning faol sub'ekt sifatida shakllanishi va rivojlanishi ularning tarkibiy qismlari va mazmuni uchun tegishli ilmiy asosni tanlamasdan mumkin emas .

Innovatsion ta'lim kontsepsiyasini ishlab chiqishning etakchi tamoyillaridan biri kelajakdagi professional kadrlar qobiliyatini rivojlantirishdir . Aynan markaziy jihati innovatsion qobiliyat va ijodiy faoliyat kontsepsiyasi bo'lgan ta'limning innovatsion modeli asosida oliy ta'lim tuzilmasi va kadrlar tayyorlash mazmuni qayta ko'rib chiqilmoqda .

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tish davrida iqtisodchilar, jumladan, tashkilotlarning bosh buxgalterlari ega bo'lishi kerak bo'lgan bilimlarga qo'yiladigan talablar tubdan o'zgardi . So'nggi yillarda ko'plab xo'jalik operatsiyalari paydo bo'ldi , ularning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks etishi ilgari ko'zda tutilmagan . Bu esa buxgalteriya hisobining me'yoriy-huquqiy bazasiga jiddiy o'zgartirishlar kiritishni taqozo etdi va bu asos xalqaro

amaliyotda qabul qilingan standartlarga muvofiq tezlik bilan qayta qurila boshlandi . Oliy iqtisodiy ma'lumotli bo'lajak buxgalterlarga o'qitish jarayonida yetkazilishi kerak bo'lgan materiallar hajmi doimiy ravishda oshib bormoqda .

Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi tomonidan qabul qilingan standartlarga ko'ra , quyidagi kasblar " professional buxgalterlar " hisoblanadi : bosh buxgalter , auditor , moliyaviy direktor va soliq maslahatchisi .

Kasbiy ta'lim kerak , ammo ta'limning o'zi etarli bo'lmaydi . Buxgalteriya hisobi - bu doimo biror narsa o'zgarib turadigan , *qonunchilik* juda tez yangilanadigan , yangi qonunlar va qoidalar paydo bo'ladigan , *soliq* shartlari o'zgarib turadigan soha . Zamonaviy sharoitda, ko'plab sohalarda, bilimlarning eskirish tezligi eksponent ravishda o'sib bormoqda , uni doimiy ravishda yangilash va yangilash kerak . Shu munosabat bilan, buxgalterning kasbiy yaroqliligining eng muhim belgisi uning o'zgarishlarni kuzatib borish *qobiliyatidir* .

Yangi texnologiyalar tobora ko'proq biznesga kirib bormoqda . Shunday qilib, zamonaviy onlayn kassa apparatlari kassa operatsiyalarini avtomatlashtirishi mumkin va yaxshi tashkil etilgan ekvayring biznes aylanmasini tezda oshirishga imkon beradi . Bunday sharoitda buxgalter o'z ishining samaradorligi va unumdorligini oshirishga intilishi *juda muhim* , masalan , onlayn *kassa apparatini har qanday* savdo nuqtasi bilan sinxronlashtirish , buning yordamida tadbirkorlar istalgan vaqtda sotuvchining faoliyatini ko'rishlari va savdo nuqtalaridagi tovarlar balansini bilib olishlari *mumkin* . Kassa apparati, bir tomondan , oddiygina mustaqil ravishda ishlashi mumkin , cheklarni chop etish va saqlash va boshqa tomondan , onlayn kassa apparati ularning elektron nusxalarini soliq idorasiga o'tkazganda, *1C* bilan sinxronlashtirilishi mumkin . Va keyin barcha buxgalteriya ma'lumotlari darhol buxgalteriya hisobi va soliq yozuvlariga kiradi , onlayn buxgalteriya yanada ishonchli bo'ladi .

Kadrlar tayyorlashni aniq ko'nikmalarga ega bo'lishga yo'naltirish , o'qitish sifatini oshirish va qo'llab-quvvatlash , ilmiy izlanishlar, dasturlarning muvofiqligini ta'minlash , bitiruvchilarni ishga joylashtirish kabi jiddiy muammolar turibdi . Hozirgi kunda axborot texnologiyalari oliy ta'limga faol joriy etilmoqda . Kompyuter o'quv ishlarini sinflarda ham , ta'lim muassasasi devorlari tashqarisida ham bajarishga imkon beruvchi qulay va mobil qurilmaga aylanmoqda . Bu oliy o'quv yurtlari faoliyati sharoitida global o'zgarishlarga olib keladi , ularning ishini tashkil etishda ko'plab an'anaviy yondashuvlarni va qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi . Oliy ta'lim muassasalarida axborot – ta'lim muhiti shakllantirilmoqda .

bilimlarni yaratish , boshqarish , tarqatish , foydalanish va nazorat qilishni osonlashtiradigan texnologiyalar orqali yangi imkoniyatlar berilmoqda . Bunday texnologiyalardan adolatli foydalanish ta'lim tizimining barcha darajalarida hali ta'minlanmagan .

Oliy ta'limda sifat ko'p o'lchovli tushuncha bo'lib , uning barcha funktsiyalari va faoliyatini qamrab olishi kerak : o'quv dasturlari , tadqiqot va ta'lim muhiti . Jamiyatda buxgalteriya ta'limining o'zgaruvchan roli innovatsion jarayonlarning katta qismini belgilab berdi .

Buxgalteriya hisobi xodimlarini tayyorlash jarayoni bilan bog'liq holda , innovatsiya o'qitishning maqsadlari , mazmuni , usullari va shakllariga yangi narsalarni kiritishni anglatadi .

Buxgalteriya hisobi sohasidagi ta'limning rivojlanishi innovatsiyalarni rivojlantirish , innovatsion jarayon orqali amalga oshirilishi mumkin emas . Buxgalter ta'limidagi innovatsiyalar belgilangan maqsad va vazifalarga ega bo'lishi kerak . Ushbu jarayonni samarali boshqarish uchun uni tahlil qilish kerak , bu uning tuzilishini o'rganishni o'z ichiga oladi .

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy buxgalteriya ta'limini takomillashtirish jarayonining **ustuvor yo'nalishlaridan** biri hisoblanadi .

An'anaviy o'qitish usullari tayyor bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan va bunday o'qitishning asosiy natijasi bilimlar yig'indisini o'zlashtirishdir .

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot sohasining bosqichma-bosqich joriy etilishi iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun asos bo'ldi . Asosiy tadbirlar real sektorda buxgalteriya hisobining uslubiy va me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirishga qaratilgan . O'zbekistonda buxgalteriya hisobini isloh qilish va buxgalteriya hisobining umumiy uslubiy asoslarini qayta ko'rib chiqish hamda moliyaviy hisobotni uch bosqichga bo'lish mumkin .

Birinchi bosqich 1994-1997 yillarni o'z ichiga oladi , unda quyidagi tadbirlar amalga oshirildi :

- O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi va statistika tizimiga o'tish bo'yicha xalqaro amaliyotda qabul qilingan davlat dasturi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.1994 yildagi 433- son qarori bilan tasdiqlangan);

- « O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risida » gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 26 martdagi 164 - son qarori bilan tasdiqlangan);

- “ Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida ” gi nizom (Moliya vazirligi , Prognoz va statistika davlat qo'mitasi , Davlat soliq qo'mitasining 1995- yil 1- yanvardagi qarori bilan tasdiqlangan);

Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan " Buxgalteriya hisobi to'g'risida " gi O'zbekiston Respublikasi qonuni);

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 15.01.1997 yildagi 5- sonli “ Korxona (tashkilot) ning yillik va choraklik moliyaviy hisoboti shakllari va hajmini tasdiqlash to'g'risida ” gi buyrug'i (ro'yxat raqami 338 , 06.05.1997 y.);

Islohotning ikkinchi bosqichi 1997-2002 yillarda amalga oshirilib , quyidagi me'yoriy hujjatlar amalga oshirildi va qabul qilindi :

- moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etishning kontseptual asoslari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 14.08.1998 y . 475- son bilan ro'yxatga olingan , O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 26.07.1998 yildagi 17-17/86- son bilan tasdiqlangan);

- O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi milliy standartlari № 1- № 20 bundan mustasno 14- № 15 NSBU № 13- № 18 mavjud emas);

- “ Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida ” gi nizom qayta ko'rib chiqildi va tasdiqlandi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.02.1999 yildagi qarori bilan tasdiqlangan).

Islohotning uchinchi bosqichi 2007 yilda boshlangan va hozirgi kungacha davom etmoqda :

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.06.2002 yildagi “ Statistik va moliyaviy hisobotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida ” gi 227- son qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (MMS): 14- sonli “ Kapital to'g'risidagi hisobot ”, 15- sonli “ Buxgalteriya balansi ”, 21- son “ Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy - xo'jalik faoliyati bo'yicha hisoblar rejasi ” MMS , 22-sonli “ Xorijiy aktivlar va passivlarning shakllantirilgan hisobi ” MMS 3, “ Xorijiy hisob-kitoblar hisobi ”. Qayta tashkil etish davridagi moliyaviy hisobotlar va 24-sonli NAS « Qarz olish xarajatlarini hisobga olish »;

- yangi tahrirdagi buxgalteriya hisobi milliy standartlari (" Tovar-moddiy boyliklar " № 4 , " Asosiy vositalar " № 5 , " Ijaraga olingan mablag'lar hisobi " № 6, " Nomoddiy aktivlar " № 7);

- moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish qoidalari (Moliya vazirligining 27.12.2002 yildagi 140-son buyrug'i bilan tasdiqlangan , reg . Adliya vazirligining 24.01.2003 yildagi 1209 - son buyrug'i bilan tasdiqlangan);

- O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi qabul qilindi (2013 yil 26 dekabr) .

, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida alohida hisob ob'ektlari bo'yicha ba'zi muammoli masalalarni ko'rib chiqish va hal qilish kerak : asosiy vositalarni qayta baholash , ishonchnomalarni hisobga olish va ro'yxatdan o'tkazish , hujjatlar va hujjat aylanishi shakllarini takomillashtirish , mol-mulkning etishmasligi va ortiqchaligini hisobga olishda aks ettirish , ijara operatsiyalari va soliqlar , valyuta operatsiyalari , soliqlar va boshqalar. xususiylashtirish va investitsiya fondlari , buyurtmachilar tomonidan yetkazib berilgan xomashyo hisobi va boshqalar .

Shunday qilib , uchinchi bosqich alohida ob'ektlarni hisobga olish bo'yicha turli Nizomlarni qabul qilish bilan buxgalteriya hisobi bo'yicha mavjud qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish va isloh qilish bilan tavsiflanadi .

2016-yil 13 - aprelda yangi tahrirdagi " Buxgalteriya hisobi to'g'risida " gi qonunning qabul qilinishi bilan davom ettirilib , u xalqaro talablar tamoyillariga rioya qilishni tartibga soluvchi va moliyaviy hisobotning shaffofligini ta'minlovchi moddalar bilan ajralib turadi . Yangiliklar buxgalteriya hisobini xalqaro tamoyil va standartlar asosida huquqiy tartibga solishni takomillashtirish , tadbirkorlik subyektlari rahbarlari , ularning huquq va majburiyatlarini aniq belgilab, buxgalteriya xizmatlarini ko'rsatish mas'uliyatini oshirishga qaratilgan .

Xulosa. Buxgalteriya hisobi ta'limini takomillashtirmasdan turib, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni rivojlantirish mumkin emas . Bir tomondan , vazifa buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarni shakllantirishning tushunchalari va aniq qoidalarini tushunadigan , buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bo'yicha zamonaviy ko'nikmalarga ega bo'lgan etarli miqdordagi malakali buxgalterlarni tayyorlashdan iborat . Boshqa tomondan , buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning yuqori sifatli tizimi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda hosil bo'ladigan ma'lumotlarga muhtoj bo'lgan , iqtisodiy qarorlar qabul qilishda , xususan , kapital qo'yilmalar yo'nalishlarini aniqlashda va shu bilan bog'liq risklarni tahlil qilishda ulardan foydalanish zarurati va ko'nikmalariga ega bo'lgan etarli miqdordagi foydalanuvchilarning mavjudligini nazarda tutadi . Qiziqarli foydalanuvchilarning mavjudligi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biridir . Innovatsion ta'lim muhitining tarkibiy qismlari qanday bo'lishi kerakligi haqidagi savolni ochib berar ekanmiz , ularni tashkil etish, shubhasiz , zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liqligini ta'kidlaymiz . Ko'rib chiqilayotgan muhit elektron shakldagi oddiy ma'lumotlar to'plami emas ; u buxgalterning kasbiy faoliyatining tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi . Kasbiy yo'nalish kabi muhim xususiyatga nisbatan buxgalterni o'qitish tabiatini o'zgartiradigan modellar innovatsion modellar sifatida tavsiya etiladi . Axborot texnologiyalari o'z-o'zidan ta'lim motivatsiyasini oshirish omili bo'lib xizmat qiladi . Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak :

- " Buxgalteriya hisobi " ning ustuvor yo'nalishlarini o'rganish ;

- " Buxgalteriya hisobi " fanini o'qitishda innovatsiyalar va ilg'or xalqaro tajribani o'rganish ;

- " Buxgalteriya hisobi " fanini o'qitishning kredit-modul tizimidan amaliy foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish .

Fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasi yangi bilimlarni yaratish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish imkonini beradi. O'zbekiston ilmi-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega. Keyingi yillarda mamlakatimizda bu borada muhim qadamlar qo'yildi. Yangi institut va markazlar tashkil etildi, rivojlanish strategiyasi va dasturlari ishlab chiqildi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamdamov B.K. , Ibragimov K.Sh. – TFI , “ Xalqaro moliya va hisob ” elektron jurnali . 2017 yil fevral , 1- son , “ Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida O'zbekistonda buxgalteriya hisobini takomillashtirish ”.

2. Hamdamov B.K. , To'laganov A.TFI , “ Xalqaro moliya va hisob ” elektron jurnali . 2018 yil aprel , 2- son , “ O'zbekiston Respublikasi davlat sektori buxgalteriya hisobiga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish masalalari ” maqolasi .

3.https://www.norma.uz/novoe_v_zakonodatelstve/zakon_o_buhgalterskom_uchete_prinyat_v_novoy_redakcii_ekspert Irina Axmetova

4. D. KUXAR , “ O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va auditni isloh qilish ” Xalqaro moliya bozorlari assotsiatsiyasiga a'zo bo'lgan tashkilotlarni rivojlantirish dasturi menejeri 21.09.2012 y .

5 Ijtimoiy - gumanitar fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish 2015 yil 25 fevral Kategoriya : Texnologiyalar . Muallif : Sh.Namozova .

Gulirano Nosirova Abdulaziz kizi
PhD., doc., of the “Finance” Department of
The Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan
g.nosirova2020@gmail.com

USING INSURANCE TO MINIMIZE RISKS IN PROJECT FINANCING

Nosirova Gulira’no Abdulaziz qizi
O‘zbekiston Respublikasi Bank Moliya Akademiyasining
“Moliya” kafedrası dotsenti., PhD
g.nosirova2020@gmail.com

LOYIHAVIY MOLİYALASHDAGI RISKLARNI KAMAYTIRISH UCHUN SUG‘URTADAN FOYDALANISH.

Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи
доцент., PhD кафедры “Финансы” Банковской
Финансовой Академии Республики Узбекистан
g.nosirova2020@gmail.com

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СТРАХОВАНИЯ ДЛЯ МИНИМИЗАЦИИ РИСКОВ В ПРОЕКТНОМ ФИНАНСИРОВАНИИ.

Abstract: This article discusses project management, which requires a comprehensive approach to solving multiple tasks, one of which is effective risk management. Risks can be caused by both external and internal factors, and their impact on project success can be significant. In this context, risk insurance becomes an important tool for minimizing losses and ensuring successful project implementation.

Keywords: project, risk, insurance, management, finance, capital, efficiency, implementation, minimization, assessment, planning, monitoring.

Annotatsiya: Ushbu maqolada loyihalarni boshqarish masalasi muhokama qilinadi. U ko‘plab vazifalarni hal etishda kompleks yondashuvni talab qiladi, shulardan biri — xatarlarni samarali boshqarishdir. Xatarlar tashqi va ichki tufayli kelib chiqishi mumkin va ularning loyiha muvofaqqiyatiga ta’siri kata bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, hatarlarni sug‘urta qilish yo‘qotishlarni kamaytirish va loyihani muvofaqqiyatli amalga topshirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Tayanch so‘zlar: loyiha, xatar, sug‘urta, boshqaruv, moliya, kapital, samaradorlik, amalga oshirish, kamaytirish, baholash, rejalashtirish, monitoring.

Аннотация: В статье рассматривается управление проектами, которое требует комплексного подхода к решению множества задач, одной из которых является эффективное управление рисками. Риски могут быть вызваны как внешними, так и внутренними факторами, и их влияние на успех проекта может быть значительным. В этом контексте страхование рисков становится важным инструментом минимизации потерь и обеспечения успешной реализации проекта.

Ключевые слова: проект, риск, страхование, управление, финансы, капитал, эффективность, реализация, минимизация, оценка, планирование, мониторинг.

INTRODUCTION

One of the most effective ways to manage risks is through insurance, which helps minimize the negative consequences of unpredictable events. Project financing risk insurance protects participants from potential losses and creates a stable foundation for successful project implementation. This article analyzes the main types of project financing risks and the role of insurance in managing them.

In Uzbekistan, several decrees and regulatory acts address project management, particularly in the context of government and investment projects. Some of them directly regulate issues related to project management, procurement, financing, monitoring, and reporting. The Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 404, dated June 30, 2017, "On Additional Measures to Improve Project Management in Public Administration," is aimed at enhancing coordination and management of projects in the public sector, as well as implementing mechanisms to improve project implementation efficiency.

The Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 8, dated January 17, 2018, "On Measures to Improve the Project Management System in the Public and Private Sectors," focuses on improving project management mechanisms within public-private partnerships, creating a legal framework for joint projects, and increasing the efficiency of resource utilization. [1]

The Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 785, dated December 25, 2020, "On Measures to Improve Project Management in the Infrastructure Sector," regulates project management in infrastructure, including transport, energy, and construction. [2]

The Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 594, dated November 7, 2022, "On the Procedure for Developing and Implementing Large Investment Projects," aims to simplify the process of developing and implementing large investment projects, focusing on accelerating procedures and improving planning. [3]

The Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 1017, dated December 25, 2017, "On Measures to Improve the Investment Project Financing System," addresses financing issues for major investment projects, including lending, grants, and government co-financing. [4]

The Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 844, dated November 27, 2020, "On Measures to Implement Digital Technologies in Project Management," regulates the introduction of digital technologies and platforms for project management, increasing transparency and efficiency in handling project documentation and reporting.

LITERATURE REVIEW

PMBOK Guide (Project Management Body of Knowledge) – Published by the Project Management Institute (PMI), this is the primary guide on project management standards, continuously updated to include best practices, methods, and tools for successful project management. PMBOK serves as the foundation for the Project Management Professional (PMP) certification. [5]

"Project Management: From Theory to Practice" (Kravchenko V. V., 2018) – This book examines key aspects of project management, including strategic management, risk management, quality management, and other critical components of successful projects. [6]

"Project Management Guide" (Frederick B. Healy, 2015) – This source explores key project management methods and tools, as well as project efficiency assessment and problem-solving strategies. [7]

"Project Management: Principles, Processes, and Practices" (Gilda R. Heaney, 2021) – This book covers fundamental principles of project management and methods to enhance project management practices, including flexible approaches such as Agile. [8]

"The Role of Project Management in Successful Project Delivery" (Aubry, M., Hobbs, B., & Thuillier, D., 2007) – This article discusses the role of project management in ensuring successful project completion and ways to improve project management efficiency through the implementation of new processes. [9]

"Project Management and the Agile Transformation" (Cohn, M., 2010) – This article focuses on the application of Agile methodologies in various industries and how Agile can improve flexibility and efficiency in project management processes. [10]

"A Framework for Managing Projects in a Multi-Project Environment" (Müller, R., & Turner, R., 2010) – This study examines methods for managing multiple projects simultaneously and how their integration into an overall project management system can enhance processes and improve efficiency. [11]

"Best Practices in Project Management: How to Achieve Greater Success" (Kerzner, H., 2018) – This article presents best practices in project management and strategies for their implementation to improve project efficiency and success. [12]

RESEARCH METHODOLOGY

The research methodology on project financing risk insurance is based on a comprehensive approach that includes both theoretical analysis of existing models and approaches and empirical research of real cases. The primary goal of the study is to assess the effectiveness of various insurance tools in risk management for large-scale projects financed through project financing.

RESULTS AND DISCUSSION

1. Project management risks are uncertainties that can impact the project's schedule, budget, quality, and other key parameters. Risk management in the project context involves identifying, assessing, planning, monitoring, and controlling risks, as well as implementing measures to minimize them. Insurance is an important tool in these processes, allowing project organizations to transfer part of the risks to insurance companies.

Main Types of Insurance in Project Financing

1. Construction All Risks Insurance

This is one of the most common types of insurance in project financing, covering damage related to the construction process. It insures against risks such as damage or destruction of the construction site due to natural disasters, accidents, human errors, etc.

2. Business Interruption Insurance

This type of insurance protects against losses caused by temporary project suspension due to unforeseen circumstances such as natural disasters, technological failures, or other unpredictable events.

3. Political Risk Insurance

In projects implemented in countries with high political instability, it is crucial to insure against risks associated with political changes, asset nationalization, expropriation, or changes in legislation.

4. **Credit Risk Insurance**

This insurance covers losses related to defaults or payment delays from project partners or contractors. It is essential for protecting investors and creditors.

5. **Environmental Risk Insurance**

Used to protect against environmental damage during project implementation. It covers risks of violating environmental regulations and legislative requirements.

6. **Currency Risk Insurance**

In international projects, it is important to insure against risks associated with currency fluctuations, which can affect project costs or profitability.

Uzbekistan has been actively developing its economy, infrastructure, and attracting foreign investment, necessitating the implementation of modern risk management methods, including insurance. However, project risk insurance practices in Uzbekistan are still in their early stages.

Recommendations for Improving the Project Risk Insurance System in Uzbekistan

1. **Development of insurance products for project management.** Specialized insurance products should be created to protect against specific risks in large projects, such as project delays, cost changes, legal risks, and environmental risks.

2. **Strengthening the regulatory framework.** Special laws and regulations should be introduced to govern risk insurance in project management, ensuring clear rules for insurers, designers, contractors, and clients.

3. **Training specialists.** Educational programs and training sessions should be developed to prepare qualified personnel who understand project management and risk insurance mechanisms.

4. **Attracting international partners and adopting global experience.** Involving international insurance companies and consultants and leveraging global best practices can significantly enhance Uzbekistan's project insurance sector.

5. **Creating a system of guaranteed obligation fulfillment.** Establishing a guaranteed commitment system (e.g., through insurance bonds) can ensure contract compliance and protect project stakeholders from force majeure risks.

CONCLUSION

Project financing risk insurance is a crucial risk management tool that helps protect project participants from unpredictable circumstances. Implementing effective insurance programs enhances investor and creditor confidence, facilitating successful project execution. However, to effectively utilize insurance, risks must be carefully analyzed, and appropriate insurance types must be selected. In a globalized and uncertain environment, insurance tools are becoming an integral part of successful project financing.

REFERENCES

1. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 8 dated January 17, 2018, "On measures to improve the project management system in the field of public and private property."

2. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 785 dated December 25, 2020, "On measures to improve project management in the field of infrastructure," which regulates project management in infrastructure sectors, including transportation, energy, and construction.
3. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 594 dated November 7, 2022, "On the procedure for the development and implementation of large investment projects."
4. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 1017 dated December 25, 2017, "On measures to improve the system of financing investment projects."
5. PMBOK Guide (Project Management Body of Knowledge) — Published by the Project Management Institute (PMI).
6. *"Project Management: From Theory to Practice"* (Kravchenko V. V., 2018).
7. *"Project Management Guide"* (Frederick B. Healy, 2015).
8. *"Project Management: Principles, Processes, and Practice"* (Gilda R. Heaney, 2021).
9. *"The Role of Project Management in Successful Project Delivery"* (Aubry, M., Hobbs, B., & Thuillier, D., 2007).
10. *"Project Management and the Agile Transformation"* (Cohn, M., 2010).
11. *"A Framework for Managing Projects in a Multi-Project Environment"* (Müller, R., & Turner, R., 2010).
12. *"Best Practices in Project Management: How to Achieve Greater Success"* (Kerzner, H., 2018).

Oripova Saodat Mirfotix qizi
O'zbekiston Respublikasi
Bank-Moliya Akademiyasi magistranti
Oripovasaodat1992@gmail.com

XALQARO LOYIHALARDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Орипова Саодат Мирфотих кизи
Магистрант Банково-финансовой
Академии Республики Узбекистан
Oripovasaodat1992@gmail.com

ПРАКТИКА УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРОЕКТАХ И НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Oripova Saodat Mirfotikh kizi
Master of the Bank-Finance Academy
of the Republic of Uzbekistan
Oripovasaodat1992@gmail.com

PRACTICE OF RISK MANAGEMENT IN INTERNATIONAL PROJECTS AND DIRECTIONS FOR IMPROVEMENT

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro loyihalarda risklarni boshqarishning nazariy asoslari va amaliy muammolari atroflicha tahlil qilinadi. Risk tushunchasi, uning asosiy turlari – siyosiy, moliyaviy, texnik, madaniy va huquqiy xavflar – xalqaro loyiha kontekstida yoritiladi. Maqolada PMBOK metodologiyasi asosida risklarni aniqlash, tahlil qilish va kamaytirish bosqichlari bayon etiladi. Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilgan xalqaro moliyaviy va infratuzilma loyihalari misolida risklarni boshqarish amaliyoti ko'rib chiqilib, samarali strategiyalar taklif etiladi. Maqola yakunida loyiha boshqaruvi samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: xalqaro loyiha, risklarni boshqarish, loyiha menejmenti, siyosiy risk, moliyaviy risk, PMBOK, O'zbekiston, amaliy tajriba.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются теоретические основы и практические проблемы управления рисками в международных проектах. Рассматриваются основные категории рисков — политические, финансовые, технические, культурные и правовые — в контексте трансграничной реализации проектов. На основе методологии PMBOK описаны этапы идентификации, анализа и снижения рисков. Особое внимание уделено практике управления рисками на примере международных инвестиционных и инфраструктурных проектов, реализованных в Узбекистане. В завершение статьи предлагаются рекомендации по повышению эффективности и устойчивости международного управления проектами.

Ключевые слова: международный проект, управление рисками, управление проектами, политические риски, финансовые риски, PMBOK, Узбекистан, практический опыт.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the theoretical foundations and practical challenges of risk management in international projects. It examines the core categories of risks—political, financial, technical, cultural, and legal—within the context of cross-border project execution. The article outlines the key steps of risk identification, analysis, and mitigation based on the PMBOK methodology. Furthermore, it presents case studies from international infrastructure and

financial projects implemented in Uzbekistan, highlighting risk management practices and lessons learned. The article concludes with strategic recommendations aimed at improving the effectiveness and resilience of international project management.

Keywords: *international project, risk management, project management, political risk, financial risk, PMBOK, Uzbekistan, case study.*

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi xalqaro miqyosda hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar sonining keskin ortishiga olib keldi. Xalqaro loyihalar — bu ikki yoki undan ortiq davlatlar, xalqaro moliyaviy institutlar, donor tashkilotlar yoki transmilliy kompaniyalar ishtirokida amalga oshiriladigan, ko‘p tomonlama moliyalashtirish va murakkab boshqaruv tizimlarini talab qiluvchi tashabbuslardir. Bunday loyihalar, odatda, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va infratuzilmaviy sohalarini qamrab oladi hamda mamlakatlar taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

Biroq xalqaro loyihalarining muvaffaqiyati ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida risklarni boshqarish eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Loyiha ijrosi davomida yuzaga keladigan noaniqliklar, siyosiy barqarorlik darajasi, moliyaviy bozorlarning o‘zgaruvchanligi, huquqiy reglamentlar, madaniy tafovutlar, texnik va tashkiliy muammolar — bularning barchasi loyiha maqsadlariga erishish jarayonida salmoqli to‘siqlarga aylanishi mumkin. Ayniqsa, xalqaro loyihalarda turli davlat qonunchiliklari, biznes yuritish madaniyatlari va kommunikatsiya uslublari to‘qnash kelishi xavflarni yanada murakkablashtiradi.

Loyiha boshqaruvi nazariyasida risklarni boshqarish mustaqil funksional yo‘nalish sifatida qaraladi. PMBOK (Project Management Body of Knowledge) va boshqa xalqaro standartlarda risklarni aniqlash, tahlil qilish, ularga munosabat bildirish hamda monitoring qilish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ammo xalqaro loyihalarga xos bo‘lgan murakkablik darajasi ushbu jarayonlarga yanada moslashuvchan, kontekstual yondashuvni talab etadi.

Mazkur maqolada xalqaro loyihalarda uchraydigan asosiy risk turlari, ularning kelib chiqish sabablari, boshqaruv mexanizmlari va O‘zbekiston tajribasi asosida amaliy ko‘rinishlari o‘rganiladi. Shu bilan birga, xalqaro tajribaga asoslangan holda mavjud tizimni takomillashtirish bo‘yicha strategik yo‘nalishlar ham ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Xalqaro loyihalarda risklarni boshqarish konsepsiyasi bugungi kunda zamonaviy loyiha menejmentining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Ushbu yo‘nalishning nazariy va amaliy asoslarini ko‘plab xorijiy tadqiqotchilar o‘z ilmiy ishlanmalarida atroflicha yoritib bergan.

Masalan Harold Kerzner (2022) o‘zining “Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling” nomli asarida loyiha menejmentining tizimli asoslarini ochib beradi. Muallif risklarni boshqarishni loyiha hayot aylanasing har bir bosqichida muhim strategik faoliyat sifatida baholaydi. U, xususan, risklarni aniqlash, ularning ehtimoli va ta’sir darajasini baholash, ustuvorlikka ajratish va ularga javob choralari ishlab chiqish mexanizmlarini tizimli bayon qiladi.[1]

Shuningdek, Chris Chapman va Stephen Ward (2011) o‘zlarining “How to Manage Project Opportunity and Risk” nomli tadqiqotida risklarni kengroq kontekstdan – ya’ni noaniqliklar menejmenti sifatida tahlil qiladi. Ular risklarni faqat salbiy omil emas, balki imkoniyat sifatida ham ko‘rib chiqish lozimligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, xalqaro loyihalarda turli siyosiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlar fonida bu yondashuv dolzarb bo‘lib, loyihalarining innovatsion salohiyatini kuchaytiradi.[2]

World Bank (2018–2023) va Asian Development Bank (2020) tomonidan chop etilgan yillik tahliliy hisobotlarda xalqaro infratuzilma va investitsiya loyihalarida uchraydigan asosiy risklar – moliyaviy, siyosiy va operatsion xavflar chuqur tahlil qilinadi. Hisobotlarda risklarni kamaytirish uchun qo‘llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar: ehtiyot byudjetlar, fazali moliyalashtirish,

shartnomaviy kafolatlar va manfaatdor tomonlar bilan doimiy aloqani ta'minlash kabi usullar keltirilgan.[3][4]

Deloitte kompaniyasining 2023-yilda e'lon qilgan "Global Infrastructure Projects: Managing Risks across Borders" nomli tadqiqotida xalqaro loyihalardagi transchegaraviy risklar – reguliatorlar qarshiligi, madaniy tafovutlar, siyosiy beqarorlik va logistika zanjirlaridagi uzilishlar asosiy xavf manbai sifatida ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotda real vaqtda monitoring, raqamli texnologiyalar va axborot tizimlari orqali risklarni oldindan aniqlash imkoniyatlari yoritilgan.[5]

Bundan tashqari, ADB Institute Working Paper Series (2020) da institutsional salohiyat, ya'ni loyihalarni amalga oshiruvchi mahalliy tashkilotlarning bilim, tajriba va resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi risklarni kamaytirishda muhim omil ekanligi ta'kidlangan. Ular ilg'or xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish zarurligini urg'ulaydi.[6]

O'zbekistonda esa bu boradagi tadqiqotlar so'nggi yillarda shakllanmoqda. Jumladan, iqtisodchi olim A. Raxmatov (2021) xalqaro moliyalashtirilgan infratuzilma loyihalarida yuzaga keladigan operatsion xavflarni baholash, ularning oldini olish va javob choralari ishlab chiqish masalalariga e'tibor qaratgan. Muallif, ayniqsa, loyiha menejerlarining malakasi va siyosiy barqarorlik risklarni kamaytirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.[7]

Shuningdek, Sh. Kattabekova (2022) o'z tadqiqotida O'zbekistondagi davlat-xususiy sheriklik asosidagi xalqaro loyihalarda risklarni tahlil qilgan. U, xususan, huquqiy risklar, loyihalarni kechikishiga olib keluvchi texnik muammolar va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi kommunikatsiya buzilishi holatlarini chuqur tahlil qilgan. Uning fikricha, risklarni strategik boshqarish natijadorlik va investorlar ishonchini oshiradi.[8]

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Moliya institutlari, Davlat statistika qo'mitasi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining hisobotlari amaliy asos sifatida muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda amalga oshirilgan Osiyo taraqqiyot banki va Jahon banki ishtirokidagi loyihalardagi risk baholash natijalari bu borada real statistik ko'rsatkichlarni taqdim etadi.[9][10]

Xalqaro adabiyotlar va mahalliy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro loyihalarda risklarni boshqarish bo'yicha yagona universal model mavjud emas. Har bir loyiha o'zining siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy muhitidan kelib chiqib yondashuvni shakllantiradi. Shunday ekan, har bir mamlakat o'zining strategik maqsadlariga mos moslashuvchan risk menejment mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYA.

Ushbu tadqiqot xalqaro loyihalarda risklarni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida bir nechta ilmiy yondashuv va usullar qo'llanildi.

Birinchidan, ilmiy abstraktsiya usuli yordamida risk tushunchasi va uning asosiy ko'rinishlari aniqlab olindi. Dialektik tahlil orqali risklarni boshqarish tizimining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari, ularning loyihalarga ta'siri o'rganildi.


Induksiya va deduksiya metodlari asosida xalqaro tajribalar umumlashtirildi va O'zbekiston amaliyotiga mos keladigan xulosalar chiqarildi. Monografik kuzatish orqali Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan amalga oshirilgan loyihalar tahlil qilindi.

Tizimli va qiyosiy tahlil yordami bilan xalqaro tajribalar bilan O'zbekiston amaliyoti solishtirilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari ajratib ko'rsatildi. Shuningdek, ekspert baholashlar va rasmiy statistik ma'lumotlar asosida loyihalardagi mavjud xavflar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

NATIJA VA MUHOKAMA.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro loyihalarda risklarni boshqarish loyiha boshqarish muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun juda muhim hisoblanadi. Risklar faqat texnik masalalar bilan cheklanmaydi, balki siyosiy, moliyaviy, huquqiy, madaniy va kommunikatsion omillar bilan ham bog'liq bo'ladi.

Xalqaro tajriba asosida aniqlanishicha, risklar eng ko'p loyiha hujjatlari yetarlicha tayyorlanmaganda, qonunchilikdagi tafovutlar mavjud bo'lganda yoki manfaatdor tomonlar o'rtasida aloqa sust bo'lgan hollarda yuzaga chiqadi. Ayniqsa, moliyaviy xavflar — valyuta kursining o'zgarishi, inflyatsiya, to'lov kechikishlari — loyiha umumiy byudjetini buzishi mumkin. Quyidagi diagramma xalqaro loyihalarda uchraydigan asosiy risk turlarini va ularning yuzaga chiqish ehtimolligini ko'rsatadi.



1-grafik. Risk turlarining uchrashish ehtimolligi

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan birgalikda amalga oshirilgan loyihalarda risklarni boshqarish bo'yicha ijobiy qadamlar tashlangan. Xususan, texnik risklarni kamaytirish uchun mustaqil ekspertiza, moliyaviy xavflarni oldini olish uchun sug'urta va kafolatlar, huquqiy xavflar uchun esa xalqaro konsultantlar jalb qilinmoqda.

Biroq, hali ham ayrim kamchiliklar mavjud:

- Ko'plab loyihalarda risklarni oldindan baholash yetarlicha chuqur o'rganilmaydi;
- Risk-reja alohida hujjat sifatida ishlab chiqilmaydi;
- Risk menejerlari ko'plab hollarda loyihalarga jalb qilinmaydi.

Shu sababli, quyidagi takliflar asosida risklarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish mumkin:

1. Har bir yirik loyihaga individual risk-reja ishlab chiqish;
2. Raqamli monitoring va nazorat tizimlarini joriy etish;
3. Loyihalarda maxsus tayyorlangan risk-menejerlarni jalb qilish;
4. O'zbekistonda risk menejmenti bo'yicha milliy standart ishlab chiqish;
5. Risklarni baholashda xalqaro tajribadan doimiy foydalanish.

XULOSA.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xalqaro loyihalarda risklarni boshqarish juda muhim hisoblanadi. Bunday loyihalar ko'plab davlatlar, tashkilotlar va manfaatdor tomonlar ishtirokida amalga oshirilgani uchun, ularda turli xavflar yuzaga chiqadi. Risklar texnik nosozliklar, moliyaviy o'zgarishlar, siyosiy beqarorlik, qonunchilikdagi farqlar yoki aloqa muammolari shaklida bo'lishi mumkin.

Agar risklar oldindan aniqlanmasa va ularga qarshi choralar ko'rilmasa, loyiha vaqtida tugallanmasligi yoki rejalashtirilgan byudjetdan chiqib ketish holatlari kuzatiladi. Shu sababli, har bir xalqaro loyiha uchun risklarni aniqlash, baholash va ularni boshqarish rejasini ishlab chiqish juda muhimdir.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda xalqaro moliyalashtirilgan loyihalarda risklarni boshqarish bo'yicha ijobiy qadamlar qo'yilmoqda. Ayrim loyihalarda risklarni kamaytirish uchun xalqaro ekspertlar jalb etilmoqda, moliyaviy xavflarga qarshi sug'urta vositalari qo'llanilmoqda, huquqiy tavakkalchiliklar esa xalqaro maslahatlar orqali bartaraf etilmoqda.

Shu bilan birga, hali hal etilishi kerak bo'lgan muammolar ham mavjud. Ba'zi loyihalarda risk-reja umuman tuzilmaydi yoki faqat yuzaki yondashuv qo'llaniladi. Risk menejerlari yetishmasligi, monitoring tizimlarining kuchsizligi ham bu yo'nalishdagi zaif jihatlardan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, risklarni boshqarish har bir xalqaro loyiha uchun muhim omil bo'lib, u nafaqat xavflarni kamaytiradi, balki loyiha ishtirokchilari o'rtasida ishonchli hamkorlikni rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kerzner, H. (2022). *Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling*. Wiley.
2. Chapman, C. & Ward, S. (2011). *How to Manage Project Opportunity and Risk: Why Uncertainty Management can be a Much Better Approach than Risk Management*. Wiley.
3. World Bank. (2018–2023). *Infrastructure and Investment Project Reports*. www.worldbank.org
4. Asian Development Bank. (2020). *Risk Management in Infrastructure Development*. www.adb.org
5. Deloitte. (2023). *Global Infrastructure Projects: Managing Risks across Borders*. www.deloitte.com
6. ADB Institute. (2020). *Working Paper Series on Risk and Governance in Asia*.
7. Raxmatov, A. (2021). "Xalqaro infratuzilma loyihalarida risk omillari va ularni boshqarish". *Iqtisodiy tahlil* №2, b. 37–42.
8. Kattabekova, Sh. (2022). "Davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarda risklar tahlili". *Moliyaviy boshqaruv jurnali*, №3, b. 28–33.
9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2023). *Investitsiya loyihalari monitoringi hisobotlari*.
10. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2023). *Loyiha monitoringi va moliyaviy tahlil*. www.stat.uz

Kaxxarov Zuxriddin Zafarbek o'g'li
TDIU, "Moliyaviy hisob va hisobot"
kafedrası dotsenti Z.Kaxxarov
qahharovzuxriddin93@gmail.com

STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI DOIRASIDA AKTIVLAR BILAN BOG'LIQ XARAJATLARNI OPTIMALLASHTIRISH

Каххаров Зухриддин Зафарбек угли
Доцент кафедры «Финансовый учет и отчетность»,
Ташкентский государственный экономический университет
Эл. почта: qahharovzuxriddin93@gmail.com

ОПТИМИЗАЦИЯ ЗАТРАТ, СВЯЗАННЫХ С АКТИВАМИ, В РАМКАХ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА

Zuhriddin Zafarbek ugli Kakhkharov
Associate Professor, Department
of Financial Accounting and Reporting,
Tashkent State University of Economics
Email: qahharovzuxriddin93@gmail.com

OPTIMIZATION OF ASSET-RELATED COSTS WITHIN STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING

Annotatsiya. Mazkur maqolada strategik boshqaruv hisobi doirasida aktivlar bilan bog'liq xarajatlarni tahlil qilish va ularni optimallashtirishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Aktivlarning butun hayotiy sikli bo'yicha xarajatlarni rejalashtirish, ularni minimal darajada ushlab turish orqali korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda resursga asoslangan yondashuv (RBV), xarajat markazlari bo'yicha hisob yuritish (ABC) va faoliyat asosida byudjetlashtirish (ABB) kabi zamonaviy boshqaruv instrumentlari asosida aktivlarga bog'liq xarajatlarni kamaytirish mexanizmlari taklif etilgan. Shuningdek, O'zbekiston korxonalari amaliyotida aktivlar harakati bilan bog'liq xarajatlar tahlili asosida takomillashtirish yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar: strategik boshqaruv hisobi, uzoq muddatli aktivlar, xarajatlarni optimallashtirish, aktivlar hayotiy sikli, resursga asoslangan yondashuv, ABC usuli, ABB, strategik rejalashtirish, operatsion samaradorlik, aktivlar samaradorligi

Аннотация. В данной статье раскрываются теоретические и практические аспекты анализа и оптимизации затрат, связанных с активами, в рамках стратегического управленческого учета. Рассмотрены возможности обеспечения долгосрочной конкурентоспособности предприятия за счёт планирования и минимизации затрат на протяжении всего жизненного цикла активов. В исследовании предложены механизмы сокращения затрат на основе современных инструментов, таких как ресурсный подход (RBV), учет по центрам затрат (ABC) и бюджетирование на основе деятельности (ABB). Также на основе анализа затрат, связанных с движением активов в практике узбекских предприятий, разработаны направления их совершенствования.

Ключевые слова: стратегический управленческий учет, долгосрочные активы, оптимизация затрат, жизненный цикл активов, ресурсный подход, метод ABC, ABB, стратегическое планирование, операционная эффективность, эффективность активов

Abstract. This article explores the theoretical and practical aspects of analyzing and optimizing asset-related costs within the framework of strategic management accounting. It examines the potential for ensuring long-term competitiveness of enterprises by planning and minimizing costs throughout the entire lifecycle of assets. The study proposes mechanisms for reducing asset-related costs based on modern managerial tools, including the Resource-Based View (RBV), Activity-Based Costing (ABC), and Activity-Based Budgeting (ABB). In addition, directions for improvement have been developed based on the analysis of asset-related costs in the practice of Uzbek enterprises.

Keywords: strategic management accounting, long-term assets, cost optimization, asset lifecycle, resource-based view, ABC method, ABB, strategic planning, operational efficiency, asset effectiveness

KIRISH

Bozor iqtisodiyotining keskin raqobat sharoitida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun mavjud resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni oqilona boshqarish va aktivlardan maksimal darajada rentabellik olish muhim strategik vazifaga aylangan. Ayni paytda uzoq muddatli aktivlar bilan bog'liq xarajatlarning hajmi nafaqat korxonaning kundalik operatsion faoliyatini, balki uning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ham belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu bois, buxgalteriya hisobining an'anaviy funktsiyalaridan tashqari, boshqaruv uchun muhim axborotlar tayyorlaydigan strategik boshqaruv hisobi tizimini joriy etish va uni samarali yuritish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Strategik boshqaruv hisobi, odatda, korxonaning uzoq muddatli maqsadlari va tashqi-ichki muhitning o'zgaruvchan sharoitlari hisobga olingan holda boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlaydigan aniq va o'z vaqtida ma'lumotlarni shakllantirishga qaratilgan. Bunda aktivlar bilan bog'liq xarajatlar nafaqat moliyaviy jihatdan, balki operatsion va strategik nuqtai nazardan ham tahlil qilinadi. Masalan, asosiy vositalarning ekspluatatsiya xarajatlarini rejalashtirish, texnik xizmat va modernizatsiya xarajatlarini prognozlash, eski aktivlarni qayta baholash yoki chiqarib yuborish qarorlarini qabul qilish jarayonida strategik hisobot usullari katta rol o'ynaydi. Bu jarayon atroflicha o'rganilganda korxona rahbariyatiga uzoq muddatli rejalashtirishni yanada aniqroq va samaraliroq amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

O'zbekiston sharoitida ham korxonalar iqtisodiyotni liberallashtirish va integratsiyalashuv jarayonida xalqaro bozor talablariga javob bera olishlari uchun zamonaviy boshqaruv hisobi tizimlarini joriy qilishga ehtiyoj sezmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish, qurilish, xizmat ko'rsatish va savdo sohalarida uzoq muddatli aktivlarga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq xarajatlarni optimallashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Korxona balansida aks etadigan asosiy vositalar, investitsion mulk va boshqa uzoq muddatli aktivlarning hayotiy sikli mobaynida amalga oshiriladigan xarajatlarni tahlil qilish orqali moliyaviy natijalarni yaxshilash, rentabellikni oshirish va raqobatbardoshligini mustahkamlash mumkin. Shu sababli, faoliyatni samarali boshqarish va resurslardan oqilona foydalanish nuqtai nazaridan strategik boshqaruv hisobi tizimining amaliy ahamiyati ortib bormoqda.

Mazkur maqolada avvalo strategik boshqaruv hisobining nazariy asoslari, uning aktivlar bilan bog'liq xarajatlarni boshqarishdagi roli va tajribaviy yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda resursga asoslangan yondashuv (RBV), xarajat markazlari bo'yicha hisob yuritish (ABC) hamda faoliyat asosida byudjetlashtirish (ABB) kabi zamonaviy usullarni qo'llash orqali aktivlarga bog'liq xarajatlarni kamaytirish va optimallashtirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston korxonalarida ushbu yondashuvlarni joriy etish bo'yicha amaliy misollar va tavsiyalar beriladi. Bu esa nafaqat nazariy nuqtai nazardan mavzuni boyitadi, balki milliy iqtisodiyot sharoitida real operatsion muammolarni hal etish uchun aniq ko'rsatkichlar va uslublarni aniqlashga yordam beradi.

Samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, aktivlardan to'g'ri foydalanish va korxona qiymatini oshirishga qaratilgan strategik hisobot usullarini muvofiqlashtirish orqali korxona rahbariyati nafaqat qisqa muddatli xarajatlarni nazorat qilish, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bois, maqola doirasida strategik boshqaruv hisobi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, amaliy mexanizmlarni aniqlash va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Strategik boshqaruv hisobi bugungi kunda ilmiy hamda amaliy iqtisodiy tadqiqotlarning markazida turibdi. Ayniqsa, uzoq muddatli aktivlar bilan bog'liq xarajatlarni tahlil qilish va ularni strategik boshqaruv asosida optimallashtirishga oid ilmiy yondashuvlar so'nggi yillarda alohida e'tibor markaziga aylandi. Mazkur soha bo'yicha olib borilgan xalqaro va mahalliy tadqiqotlar strategik hisobning nafaqat xarajatlarni nazorat qilish, balki resurslardan oqilona foydalanish, aktivlardan maksimal samara olish va kompaniya qiymatini oshirishdagi o'rini asoslab beradi.

Xalqaro miqyosda R. Kaplan va D. Norton (1996) tomonidan ishlab chiqilgan Balanced Scorecard (BSC) konsepsiyasi strategik darajadagi ko'rsatkichlar orqali aktivlar samaradorligini baholash va resurslarni strategik maqsadlarga yo'naltirish imkonini beradi [1]. Shuningdek, ABC (Activity-Based Costing) va ABB (Activity-Based Budgeting) kabi yondashuvlar orqali aktivlar bilan bog'liq xarajatlarni aniqroq aniqlash va ularni tahliliy jihatdan boshqarish imkoniyati yaratildi (Cooper & Kaplan, 1991). [2]

Yana bir muhim nazariy asos sifatida Resource-Based View (RBV) yondashuvi e'tiborga loyiqdir. Ushbu yondashuv doirasida aktivlar tashkilotning asosiy raqobat ustunligi sifatida qaraladi va ularni samarali boshqarish orqali uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishish mumkinligi ta'kidlanadi (Barney, 1991). Ushbu yondashuv aktivlar xarajatlariga emas, balki ularning strategik ahamiyatiga urg'u beradi, bu esa resurslarni baholash va ularni optimal darajada taqsimlashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodchi olim Porter (1985) o'zining strategik menejmentga oid asarida xarajatlar ustunligi va differensiallashuv orqali raqobatda ustunlikka erishish usullarini ochib beradi. U xarajatlarni boshqarishda butun qiymat zanjiri bo'ylab (value chain) tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi. Bu holatda aktivlar joylashuvi, ularning ishlash muddati va xizmat ko'rsatish xarajatlari muhim omillarga aylanadi. [3]

Johnson va Kaplan (1987) o'zlarining ilmiy ishida an'anaviy hisob tizimlarining samaradorlikni yo'qotganini ko'rsatadilar. Ular boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlovchi yangi metodologiyalar, jumladan, ABC va BSC singari tizimlarni qo'llash orqali aktivlar ustidan nazoratni qayta tiklashni taklif etadilar. Bu ishda tarixiy qiymat o'rniga bozor qiymatga yaqinlashish zarurligi ham ta'kidlangan. [4]

Drury (2018) tomonidan taqdim etilgan zamonaviy boshqaruv va xarajatlar hisobi konsepsiyalari aktivlar samaradorligini tahlil qilishda, ayniqsa, kapital investitsiyalarni baholash, xarajatlarni normallashtirish va qaror qabul qilish modellarini qo'llashda dolzarbdir. U moliyaviy modellashtirish va nazorat mexanizmlarining aktivlar asosida qanday ishlashini tushuntirib beradi. [5]

Iqtisodchi olimlar (Anthony, R. N., & Govindarajan, V. (2007).) strategik qarorlarni qabul qilishda boshqaruv hisobining axborot manbai sifatidagi o'rnini tahlil qiladilar. Ular KPI tizimlari, byudjetlashtirish va moliyaviy nazorat orqali aktivlardan foydalanish samaradorligini baholash imkoniyatlarini bayon etgan. Bu metodologiya aktivlar bilan bog'liq har bir xarajatni strategik natijalar bilan bog'lab tahlil qilishga asos bo'ladi. [6]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida ilmiy abstraktsiya, dialektik tadqiqotlar, induksiya va deduksiya, maqsadli ishlab chiqish, monografik kuzatish, tizimli va qiyosiy tahlil, ekspert baholash va iqtisodiy statistika usullari qo'llaniladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot doirasida strategik boshqaruv hisobi yondashuvlari asosida aktivlarga bog'liq xarajatlarni aniqlash va optimallashtirish imkoniyatlari chuqur o'rganildi. Mazkur maqsadda Toshkent shahrida axborot-kommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanadigan "Arrow Consulting Group" MCHJ misolida amaliy tahlil olib borildi. Ushbu xo'jalik yurituvchi subyektda asosan server uskunalari, texnik jihozlar va intellektual dasturiy ta'minot shaklidagi uzoq muddatli aktivlar mavjud bo'lib, ularning ekspluatatsiyasi, texnik xizmat ko'rsatish, amortizatsiyasi

va yangilanishi bilan bog'liq xarajatlar korxonaning umumiy xarajatlar strukturasi ichida salmoqli o'rin egallaydi.

Tahlil natijalariga ko'ra, "Arrow Consulting Group" MCHJda aktivlar bilan bog'liq xarajatlar avval an'anaviy hisob uslubida yuritilgan bo'lib, xarajatlar umumiy yo'nalishlar kesimida taqsimlangan. Bu esa xarajatlarning haqiqiy manbalarini aniqlashda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirgan. Tadqiqot davomida ABC (Activity-Based Costing) usuli joriy etilib, xarajatlar jarayonlar va faoliyatlar kesimida qayta hisoblab chiqildi. Quyidagi jadvalda an'anaviy va ABC yondashuvlari asosida hisoblangan aktivlar bilan bog'liq xarajatlar taqqoslangan:

1-jadval.

Aktivlar bilan bog'liq xarajatlarni an'anaviy va ABC usuli bo'yicha taqqoslash ("Arrow Consulting Group" MCHJ, 2024-yil)
(ming so'mda)

Xarajat turi	An'anaviy hisob	ABC usuli bo'yicha hisob	Farq
Asosiy vositalarni ekspluatatsiya qilish	78 000	64 000	14 000
Texnik xizmat va ta'mirlash	32 500	28 500	4 000
Elektr energiyasi va boshqa yordamchi resurslar	16 800	14 200	2 600
Amortizatsiya xarajatlari	40 500	38 700	1 800
Qayta baholash va eskirgan aktivlarni hisobdan chiqarish	11 200	9 200	2 000
Jami	179 000	154 600	24 400

Yuqoridagi tahlil asosida shuni ko'rish mumkinki, ABC usuli asosida olib borilgan hisoblashlarda aktivlarga bog'liq xarajatlar ancha aniq va manbalar bo'yicha asoslantirilgan holda taqsimlangan. An'anaviy usulda bu xarajatlar bir nechta umumlashtirilgan yo'nalishlar doirasida guruhlangan bo'lsa, ABC usulida har bir xarajat faoliyat jarayoni bilan bevosita bog'liq qilib belgilangan.

Xususan, asosiy vositalarning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq xarajatlar ABC usuli bo'yicha 14 million so'mga kamaygani kuzatildi. Bu esa texnik jihatdan yengilroq yuklama talab qiluvchi faoliyatlar noto'g'ri baholanganini anglatadi. Texnik xizmat va ta'mirlash xarajatlari bo'yicha ham 4 million so'mlik farq mavjud bo'lib, bu xarajatlarning ayrim qismlari boshqa funksional bloklarga noto'g'ri taqsimlanganini ko'rsatadi.

Mazkur tahlil asosida "Arrow Consulting Group" MCHJ misolida quyidagi amaliy xulosalarga kelindi:

- Aktivlar bilan bog'liq xarajatlar strukturasi asosan ekspluatatsiya va amortizatsiya xarajatlaridan tashkil topgan bo'lib, ular umumiy xarajatlarning 60% dan ortig'ini tashkil etgan.
- ABC usuli asosida xarajatlarni qayta hisoblash natijasida 24,4 mln so'm (13,6%) tejamkorlikka erishish mumkinligi aniqlandi.
- Xarajatlarning asosli ajratilishi rahbariyatga strategik moliyaviy rejalashtirishda qo'shimcha imkoniyat yaratdi.
- Foydalanish intensivligi past bo'lgan aktivlar aniqlanib, ularni ijaraga berish yoki sotish bo'yicha qarorlar ishlab chiqildi.
- Texnik xizmat ko'rsatish muddatlari va resurs sarfi faoliyat turlari bo'yicha qayta ko'rib chiqildi.

Shuningdek, strategik boshqaruv hisobi tizimi doirasida aktivlarning hayotiy sikli bo'yicha xarajatlar tahlili ham olib borildi. Aktivlarni xarid qilish, foydalanish, ta'mirlash, modernizatsiya va utilizatsiya bosqichlari bo'yicha xarajatlar o'rganilib, har bir bosqichda xarajatlarning ta'sir doirasi aniqlashtirildi. Bunda, ayniqsa, ekspluatatsiya davridagi rejalashtirilmagan texnik xizmat xarajatlari asosiy moliyaviy yukni keltirib chiqarishi ma'lum bo'ldi. Shu sababli, rejalashtirilgan texnik xizmat jadvalini ishlab chiqish va uni moliyaviy rejalashtirish bilan uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Olib borilgan tahlillar asosida strategik boshqaruv hisobi nafaqat xarajatlarni nazorat qilish, balki aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish, ularning mahsuldorligini tahlil qilish, eskirish xavfini oldindan aniqlash va tegishli moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qilishi aniqlandi.

Bundan tashqari, ABC usuli asosida tuzilgan xarajat xaritasi (cost driver mapping) orqali qaysi faoliyat turlari eng ko'p xarajatlarni keltirib chiqarayotgani aniqlanib, bu faoliyatlarni avtomatlashtirish, tashqi pudratchilarga topshirish yoki yo'qotish bo'yicha qarorlar ishlab chiqildi.

Natijaviy jihatdan, strategik boshqaruv hisobi vositalarining "Arrow Consulting Group" MCHJ amaliyotida joriy etilishi korxonaning moliyaviy intizomini mustahkamlash, resurslardan foydalanish darajasini oshirish va xarajatlarni optimallashtirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni e'tirof etish kerakki, strategik boshqaruv hisobi zamonaviy korxonalar faoliyatida uzoq muddatli aktivlardan samarali foydalanish va ular bilan bog'liq xarajatlarni optimallashtirishda muhim axborot manbai hisoblanadi. An'anaviy buxgalteriya hisobida xarajatlar ko'pincha umumlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishda aks ettirilsa-da, strategik boshqaruv hisobi bu xarajatlarni chuqur tahlil qilish, faoliyatlar va jarayonlar kesimida qayta baholash imkonini beradi. Ayniqsa, ABC (Activity-Based Costing) va RBV (Resource-Based View) yondashuvlari asosida xarajatlarni taqsimlash aktivlar samaradorligini oshirishda yuqori natijalar beradi.

Tadqiqot davomida Toshkent shahridagi "Arrow Consulting Group" MCHJ misolida o'tkazilgan amaliy tahlillar shuni ko'rsatdiki, aktivlarga bog'liq xarajatlarni an'anaviy usulda yuritish ko'plab noto'g'ri baholash va ortiqcha xarajatlarga olib kelmoqda. ABC usuli yordamida qayta hisoblangan xarajatlar real manbalar va faoliyatlar asosida aniq ajratilib, umumiy xarajatlar hajmida 13–14% atrofida tejamkorlik imkoniyati aniqlandi. Bu esa korxona darajasida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, strategik boshqaruv hisobi aktivlarning hayotiy sikli (sotib olish, foydalanish, ta'mirlash, modernizatsiya, chiqarish) bo'yicha xarajatlarni alohida bosqichlarda baholashga imkon yaratadi. Bu esa moliyaviy oqimlarni to'g'ri rejalashtirish, texnik xizmatlar jadvalini optimallashtirish va investitsion qarorlarni puxta asoslash imkonini beradi.

O'zbekiston korxonalari amaliyotida strategik boshqaruv hisobining keng joriy etilishi, ayniqsa aktivlar bilan bog'liq xarajatlarni aniqlash, nazorat qilish va boshqarish jarayonlarini takomillashtirish, operatsion faoliyat samaradorligini oshirish, investitsiya siyosatini asoslash hamda korxona qiymatini uzoq muddatli istiqbolda oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- korxonalarda aktivlarga bog'liq xarajatlar bo'yicha ABC va ABB kabi zamonaviy hisob yondashuvlarini joriy etish;
- xarajatlarni faoliyatlar bo'yicha ajratishga mo'ljallangan axborot tizimlarini tatbiq etish;
- aktivlar hayotiy sikli bo'yicha xarajatlar monitoringi va prognozini yo'lga qo'yish;
- moliyaviy rejalashtirish va byudjetlashtirishda strategik boshqaruv hisobi ma'lumotlaridan foydalanish.

Shu asosda aytish mumkinki, strategik boshqaruv hisobi korxonalarda uzoq muddatli aktivlar boshqaruvini yanada ilmiylashgan, tahliliy va natijador shaklga keltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1996). *The Balanced Scorecard: Translating strategy into action*. Harvard Business School Press.
2. Cooper, R., & Kaplan, R. S. (1991). *The Design of Cost Management Systems: Text, Cases, and Readings*. Prentice Hall.
3. Barney, J. (1991). Firm resources and sustained competitive advantage. *Journal of Management*, 17(1), 99–120. <https://doi.org/10.1177/014920639101700108>
4. Johnson, H. T., & Kaplan, R. S. (1987). *Relevance lost: The rise and fall of management accounting*. Harvard Business School Press.
5. Drury, C. (2018). *Management and cost accounting* (10th ed.). Cengage Learning.
6. Anthony, R. N., & Govindarajan, V. (2007). *Management control systems* (12th ed.). McGraw-Hill Education.
7. Barney, J. B. (1991). Firm resources and sustained competitive advantage. *Journal of Management*, 17(1), 99–120. <https://doi.org/10.1177/014920639101700108>
8. Cooper, R., & Kaplan, R. S. (1991). Profit priorities from activity-based costing. *Harvard Business Review*, 69(3), 130–135.
9. Horngren, C. T., Datar, S. M., & Rajan, M. V. (2020). *Cost Accounting: A Managerial Emphasis* (16th ed.). Pearson.
10. Appelbaum, D., Kogan, A., & Vasarhelyi, M. A. (2017). Impact of business analytics and enterprise systems on managerial accounting. *International Journal of Accounting Information Systems*, 25, 29–44. <https://doi.org/10.1016/j.accinf.2017.03.003>
11. Simons, R. (2000). *Performance Measurement and Control Systems for Implementing Strategy*. Prentice Hall.
12. Popesko, B. (2010). Activity-based costing application: Methodological aspects and case study. *Economics and Management*, 15, 152–158.
13. Otley, D. (2003). Management control and performance management: Whence and whither? *British Accounting Review*, 35(4), 309–326. <https://doi.org/10.1016/j.bar.2003.08.003>
14. Hansen, D. R., Mowen, M. M., & Guan, L. (2021). *Cost Management: Accounting and Control* (8th ed.). Cengage Learning.
15. Ittner, C. D., & Larcker, D. F. (2001). Assessing empirical research in managerial accounting: A value-based management perspective. *Journal of Accounting and Economics*, 32(1–3), 349–410. [https://doi.org/10.1016/S0165-4101\(01\)00028-9](https://doi.org/10.1016/S0165-4101(01)00028-9)
16. Johnson, H. T., & Kaplan, R. S. (1987). *Relevance Lost: The Rise and Fall of Management Accounting*. Harvard Business School Press.
17. Schaltegger, S., & Burritt, R. (2010). Sustainability accounting for companies: Catchphrase or decision support for business leaders? *Journal of World Business*, 45(4), 375–384. <https://doi.org/10.1016/j.jwb.2009.08.002>

Kaxxarov Zuxriddin Zafarbek o'g'li
TDIU, "Moliyaviy hisob va hisobot"
kafedrası dotsenti
qahharovzuxriddin93@gmail.com

AKTIVLARNING FOYDALANISH MUDDATI ASOSIDA AMORTIZATSIYA SIYOSATINI STRATEGIK DARAJADA TANLASH

Kaxxarov Zuxriddin Zafarbek ugli
Доцент кафедры «Финансового учета и отчетности»,
Ташкентского государственного экономического университета
qahharovzuxriddin93@gmail.com

ВЫБОР АМОРТИЗАЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ НА СТРАТЕГИЧЕСКОМ УРОВНЕ НА ОСНОВЕ СРОКА СЛУЖБЫ АКТИВОВ

Zuhriddin Zafarbek ugli Kakhkharov
Associate Professor, Department of
Financial Accounting and Reporting,
Tashkent State University of Economics
Email: qahharovzuxriddin93@gmail.com

STRATEGIC SELECTION OF DEPRECIATION POLICY BASED ON THE USEFUL LIFE OF ASSETS

Annotatsiya. Mazkur maqolada asosiy vositalarning foydalanish muddati asosida amortizatsiya siyosatini strategik darajada tanlashning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari atroflicha yoritilgan. Amortizatsiya siyosati kompaniyaning moliyaviy barqarorligi, sof foyda ko'rsatkichlari, investitsion jozibadorligi, kredit reytingi va naqd pul oqimlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Strategik yondashuv asosida belgilangan foydalanish muddati va mos amortizatsiya usuli yordamida kompaniya soliqqa tortish yukini optimallashtirishi, moliyaviy ko'rsatkichlarni balanslashishi va aktivlarni yangilash strategiyasini samarali rejalashtirishi mumkin. Maqolada xalqaro moliyaviy hisobot standartlari va milliy me'yorlarga asoslangan ilg'or tajribalar, amaliy tavsiyalar va moliyaviy boshqaruvga integratsiyalash imkoniyatlari bayon etiladi.

Tayanch so'zlar: Aktivlarning foydalanish muddati, amortizatsiya siyosati, strategik boshqaruv, moliyaviy barqarorlik, sof foyda, investitsion jozibadorlik, naqd pul oqimlari, soliqqa tortish optimallashtirish, aktivlarni yangilash, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, milliy buxgalteriya me'yorlari, aktivlar boshqaruvi, amortizatsiya usullari, moliyaviy boshqaruv tizimi.

Аннотация. В данной статье всесторонне освещены теоретические основы и практические подходы к стратегическому выбору амортизационной политики на основе срока полезного использования основных средств. Амортизационная политика оказывает прямое влияние на финансовую устойчивость компании, показатели чистой прибыли, инвестиционную привлекательность, кредитный рейтинг и движение денежных средств. Используя стратегический подход к определению срока службы и соответствующего метода амортизации, компания может оптимизировать налоговую нагрузку, сбалансировать финансовые показатели и эффективно планировать стратегию обновления активов. В статье изложены передовой опыт, практические рекомендации и возможности интеграции в финансовое управление, основанные на международных стандартах финансовой отчетности и национальных нормативных актах.

Ключевые слова: Срок полезного использования активов, амортизационная политика, стратегическое управление, финансовая устойчивость, чистая прибыль, инвестиционная привлекательность, денежные потоки, оптимизация налогообложения, обновление активов, международные стандарты финансовой отчетности, национальные бухгалтерские нормы, управление активами, методы амортизации, система финансового управления.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the theoretical foundations and practical approaches to the strategic selection of a depreciation policy based on the useful life of assets. A well-chosen depreciation policy has a significant impact on a company's financial stability, net profit indicators, investment attractiveness, credit ratings, and cash flow management. Through a strategic approach, firms can optimize their tax burden, balance key financial metrics, and effectively plan asset renewal strategies. The article offers recommendations grounded in international financial reporting standards and national regulations, while also exploring ways to integrate depreciation policy into broader financial management systems to support long-term corporate strategy.

Keywords: Useful life of assets, depreciation policy, strategic management, financial stability, net profit, investment attractiveness, cash flow management, tax optimization, asset renewal, international financial reporting standards (IFRS), national accounting standards, asset management, depreciation methods, financial management system.

KIRISH

Hozirgi sharoitda bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun asosiy vositalar bo'yicha to'g'ri shakllantirilgan amortizatsiya siyosatining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu siyosat nafaqat buxgalteriya hisobotlarining shakllanishiga, balki kompaniyaning umumiy moliyaviy barqarorligi, foyda ko'rsatkichlari, investitsion jozibadorligi va soliqqa tortilish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri tanlangan amortizatsiya siyosati orqali korxona moliyaviy salohiyatini oshirish, ichki va tashqi investorlar uchun ishonchli moliyaviy ko'rsatkichlarni taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Amortizatsiya jarayoni korxonaning uzoq muddatli moliyaviy strategiyasi doirasida shakllantirilganda, aktivlarning qayta tiklanishi va modernizatsiya qilinishi hamda investitsiya siyosatini oqilona rejalashtirish uchun muhim moliyaviy instrument sifatida xizmat qiladi. Bunday strategik yondashuv korxonaga naqd pul oqimlarini barqarorlashtirish, soliq yukini optimallashtirish va aktivlar samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Amortizatsiya siyosatining tayanch nuqtasi — aktivlarning foydalanish muddatini to'g'ri aniqlash hisoblanadi. Foydalanish muddatining puxta o'rganilgan va asoslangan bahosi kompaniyaga moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, pul oqimlarini samarali boshqarish va sof foyda ko'rsatkichlarini barqaror shakllantirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, aktivlarning iqtisodiy foydali xizmat muddati xato yoki noto'g'ri baholangan hollarda esa, moliyaviy natijalar va investorlarga taqdim etiladigan ma'lumotlarning ishonchliliigi susayishi mumkin.

Bugungi kunda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va milliy buxgalteriya hisobi me'yorlari asosida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun amortizatsiya siyosatini strategik yondashuv asosida ishlab chiqish dolzarb masalaga aylangan. Chunki bunday yondashuv kompaniyaning tashqi manfaatdor tomonlari oldida ishonchliliгинi mustahkamlash, soliq siyosatini oqilona shakllantirish va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Mazkur maqolada aynan shu jarayonning nazariy va amaliy asoslari, xorijiy va mahalliy ilg'or tajribalar tahlil etilib, strategik moliyaviy boshqaruvda amortizatsiya siyosatini to'g'ri tanlashning samarali yo'nalishlari va afzalliklari atroflicha yoritilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur maqolada asosiy vositalarning foydalanish muddati asosida amortizatsiya siyosatini strategik darajada tanlashning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari yoritilgan. Amortizatsiya siyosati kompaniyaning moliyaviy barqarorligi, sof foyda ko'rsatkichlari, investitsion jozibadorligi, kredit reytingi va naqd pul oqimlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Strategik yondashuv asosida

belgilangan foydalanish muddati va mos amortizatsiya usuli yordamida kompaniya soliqqa tortish yukini optimallashtirishi, moliyaviy ko'rsatkichlarni balanslashishi va aktivlarni yangilash strategiyasini samarali rejalashtirishi mumkin. Bunday masalalar xalqaro va milliy adabiyotlarda keng o'rganilgan.

Amortizatsiya siyosatini strategik darajada tanlash va foydalanish muddatining to'g'ri baholanishi bo'yicha xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng qamrovli yondashuvlar shakllangan. Jumladan, *Horngren C.T., Foster G., Datar S.M.* tomonidan yaratilgan "Xarajatlar hisobi: boshqaruviy yondoshuv" ("Cost Accounting: A Managerial Emphasis") nomli asarda amortizatsiya siyosati tanlashda boshqaruv qarorlariga ta'siri, foyda ko'rsatkichlarining shakllanishiga ta'siri alohida ta'kidlangan [1]. Mualliflar amortizatsiya usuli va muddati tanlash kompaniyaning umumiy moliyaviy strategiyasiga muvofiq shakllanishi kerakligini qayd etganlar.

Barth M.E., Landsman W.R., Lang M.H. tomonidan yozilgan "International Accounting Standards and Accounting Quality" maqolasida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) doirasida amortizatsiya siyosati tanlashning moliyaviy hisobotning shaffofligi va investorlarga ta'siri batafsil ko'rib chiqiladi. Xususan, foydalanish muddatining asoslangan baholanishi — moliyaviy ko'rsatkichlarning ishonchligi uchun asosiy omil sifatida ko'rsatiladi [2].

Shuningdek, *P. Walton, A. Haller, B. Raffournier* asarlarida xalqaro hisobot amaliyotida foydalanish muddati va amortizatsiya siyosati nafaqat soliq optimallashtirish uchun, balki kompaniyaning kredit reytingi va investitsion jozibadorligi uchun muhim vosita ekani ta'kidlangan [3].

Hozirgi kundagi tadqiqotlar (masalan, *EY 2023 Global IFRS Survey*) amortizatsiya siyosatini shakllantirishda faqat soliq omillari emas, balki ESG (ekologik, ijtimoiy, boshqaruv) ko'rsatkichlar, aktivlarning innovatsion salohiyati, texnologik eskirish sur'atlari ham inobatga olinayotganini ko'rsatmoqda [4].

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalarda amortizatsiya siyosatini strategik darajada shakllantirishning tizimli yondashuvi, iqtisodiy oqibatlarini baholash, xalqaro standartlar bilan muvofiqlashtirish masalalari atroflicha yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida ilmiy abstraktsiya, dialektik tadqiqotlar, induksiya va deduksiya, maqsadli ishlab chiqish, monografik kuzatish, tizimli va qiyosiy tahlil, ekspert baholash va iqtisodiy statistika usullari qo'llaniladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, amortizatsiya siyosatini shakllantirishda asosiy vositalarning foydalanish muddati aniqlash korxonaning strategik boshqaruv qarorlarida va moliyaviy natijalar shakllanishida juda muhim o'rin tutadi. Foydalanish muddati — bu nafaqat buxgalteriya hisobotining texnik ko'rsatkichlaridan biri, balki korxonaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Aniqlanishicha, xizmat muddati belgilanishining asosligi quyidagi omillar asosida belgilanadi: texnik va funksional eskirish sur'ati, bozor texnologiyalarining yangilanish tezligi, aktivdan foydalanish intensivligi, ekspluatatsiya xarajatlarining dinamikasi, shuningdek, soha standartlari va soliq me'yorlari. Mazkur omillar chuqur o'rganilmagan yoki noto'g'ri baholangan hollarda foydalanish muddati yoki juda qisqa, yoki haddan ziyod uzun belgilanishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, korxonaning foyda ko'rsatkichlariga, naqd pul oqimlariga, hamda investitsion jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, foydalanish muddati va amortizatsiya usuli tanlovi korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, foydalanish muddati qisqa bo'lsa, amortizatsiya xarajatlari dastlabki yillarda oshadi, bu esa hisoblangan foydani kamaytiradi, biroq naqd pul oqimini yaxshilaydi va soliq bazasini qisqartirish imkonini beradi. Uzoq muddatga cho'zilgan amortizatsiya esa balansda aktivlar qiymatini uzoq muddat yuqoriroq ko'rsatish imkonini

beradi, bu esa sof foydaning balansdagi ko‘rinishini yaxshilaydi, lekin naqd pul oqimlari va soliqqa tortish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tadqiqot shuni ham ko‘rsatadiki, foydalanish muddatini to‘g‘ri aniqlashda kompaniya rahbariyatining strategik qaror qabul qilish ko‘nikmalari, xalqaro va milliy tajribani o‘rganish darajasi ham katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda xalqaro moliyaviy hisobot standartlarida (IFRS) kompaniyalarga amortizatsiya siyosatini va foydalanish muddatini doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqish, bozor va texnologik sharoitlar o‘zgarishiga moslashtirish tavsiya etilmoqda.

Mazkur tadqiqotdan chiqadigan umumiy xulosa shuki, amortizatsiya siyosatini shakllantirishda foydalanish muddati strategik yondashuv asosida, kompaniyaning umumiy biznes modeli, rivojlanish strategiyasi va investorlar manfaatlari bilan uyg‘unlashgan holda aniqlanishi kerak. Aks holda, moliyaviy natijalar ishonchligi, investitsion jozibadorlik va bozordagi raqobatbardoshlikka putur yetishi mumkin.

Amortizatsiya — asosiy vositalarning to‘liq qiymatini ularning foydali xizmat muddati davomida qism-qism xarajatlarga yozish jarayonidir. U buxgalteriya hisobiga xarajat sifatida kiritiladi, biroq naqd pul oqimiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilmaydi.

«SEA SIDE RESORT» MChJ mehmonxona kompleksi faoliyatida zamonaviy asbob-uskunalar, mebellar va bino infratuzilmasidan foydalaniladi. Keltirilgan misolda quyidagicha holat kuzatilishi mumkin:

Ko‘rsatkichlar	2024 yil uchun ko‘rsatkich (mln so‘m)
Yillik umumiy daromad	15 000
Amaliyot xarajatlari (amortizatsiyasiz)	9 000
Amortizatsiya xarajatlari	2 500
Soliqqacha foyda	3 500
Nafaqat qilingan naqd pul oqimi	6 000

Izoh: Agar kompaniya foydalaniladigan amortizatsiya siyosatini o‘zgartirib, tezkor yoki pasaytirilgan stavkalarni qo‘llasa, hisoblangan amortizatsiya xarajatlari ortib, hisoblangan sof foyda kamayadi, ammo naqd pul oqimi o‘zgarmaydi.

Amortizatsiya xarajatlari sof foyda hisoblashda xarajat sifatida hisobga olinadi. Demak, amortizatsiyaning yuqori miqdori soliq to‘lanadigan foydani kamaytiradi va shu orqali soliq yukini optimallashtirish imkonini beradi.

«SEA SIDE RESORT» MChJ holatida:

Ko‘rsatkichlar	Haqiqatda (mln so‘m)	Pasaytirilgan amortizatsiya bilan (mln so‘m)	Tezkor amortizatsiya bilan (mln so‘m)
Amortizatsiya xarajatlari	2 500	1 200	4 000
Soliqqacha foyda	3 500	4 800	1 000
Soliq stavkasi (15%)	15%	15%	15%
To‘lanadigan soliq	525	720	150
Soliqdan keyingi sof foyda	2 975	4 080	850

Izoh: Tezkor amortizatsiya siyosati qo'llanilganda, kompaniyaning soliq yuki pasayadi va shunday qilib ma'lum muddat davomida ichki investitsiyalar uchun ko'proq erkin naqd pul shakllanadi.

Kreditorlar kompaniyaning moliyaviy holatini baholar ekan, uning foydalilik darajasi, qarzlarni qoplash salohiyati va aktivlar salohiyatini inobatga oladi. Amortizatsiya siyosatining hisobi bu omillarga quyidagicha ta'sir ko'rsatadi:

- Amortizatsiya xarajatlarining yuqori bo'lishi hisobotdagi sof foydani kamaytiradi, bu esa nisbiy ravishda kompaniyaning foydalilik ko'rsatkichlarini pasaytiradi.
- Biroq, bu naqd pul oqimiga ta'sir qilmagani sababli, likvidlik va qarzlarni qoplash qobiliyati yuqori bo'lib qoladi.

Misol:

Ko'rsatkichlar	Odatiy amortizatsiya	Tezkor amortizatsiya
Jami aktivlar	25 000 mln so'm	25 000 mln so'm
Jami majburiyatlar	10 000 mln so'm	10 000 mln so'm
Soliqdan keyingi foyda	2 975 mln so'm	850 mln so'm
Qarzar qoplanish koeffitsiyenti	6,0	7,1
Likvidlik koeffitsiyenti	2,5	2,5
Kredit reyting (shartli)	BB+	BB

Izoh: Agar kompaniya bankdan yangi kredit olishni rejalashtirsa, amortizatsiya siyosatini o'rtacha darajada ushlashi maqsadga muvofiq, chunki bu hisobotlarda foydani sun'iy tarzda pasaytirishdan saqlaydi va kredit reytingini yuqori darajada ushlab turish imkonini beradi.

Mehmonxona sohasida faoliyat yurituvchi «SEA SIDE RESORT» MChJ uchun asosiy vositalar — bu mehmonxona binolari, mebellar, texnik jihozlar va zamonaviy xizmat ko'rsatish uskunalaridir. Kompaniya amortizatsiya siyosatini strategik yondashuv asosida shakllantirar ekan, zamonaviy aktivlarni tez-tez yangilab borish uchun yetarli mablag' to'plash imkoniyati yaratadi.

Qo'llanilayotgan tezkor amortizatsiya siyosati evaziga quyidagi holat kuzatilishi mumkin:

Yillar	Amortizatsiya xarajatlari (mln so'm)	Erkin pul oqimi (mln so'm)	Investitsiyaga yo'naltirilgan summa (mln so'm)
2024	4 000	6 000	2 000
2025	4 200	6 200	2 500
2026	4 400	6 500	3 000

Izoh: Amortizatsiya siyosatini oqilona ravishda shakllantirish va strategik rejalarga bog'lash orqali kompaniya aktivlarni yangilash uchun yetarli mablag' to'playdi hamda xizmat sifati yaxshilanadi. Bu esa mehmonlarning qoniqishiga va bozordagi raqobatbardoshlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Moliyaviy hisobotlarda amortizatsiya va aktivlar holatining aniq va shaffof aks ettirilishi kompaniyaning tashqi foydalanuvchilar — banklar, investorlar va strategik hamkorlar oldidagi nufuzini oshiradi. Shaffof hisobotlar investorlarga kompaniyaning kelgusidagi rivojlanish salohiyati haqida ishonchli ma'lumot beradi.

«SEA SIDE RESORT» MChJ holatida quyidagi ta'sirlar kuzatilishi mumkin:

Ko'rsatkichlar	Tashqi foydalanuvchilar bahosi
Shaffof amortizatsiya siyosati	Yuqori
Faol aktivlarning yuqori darajada yangilanishi	Yuqori
Hisobotlarning xalqaro standartlarga mosligi	O'rtacha-yuqori
Investitsion jozibadorlik	Ortib bormoqda

Izoh: Strategik amortizatsiya siyosati hamda faol aktivlarni yangilab borish siyosati kompaniyaning banklar oldidagi kredit qobiliyatini ham yaxshilaydi. Chunki moliyaviy hisobotlarda aktivlarning eskirmaganligi va xizmatga yaroqli holati ko'rsatilgan bo'ladi. Shuningdek, xalqaro standartlarga moslashgan hisobot tizimi orqali tashqi investorlar kompaniyaga investitsiya kiritish yoki sherikchilik munosabatlarini yo'lga qo'yishga qiziqish bildirishi mumkin. Demak, amortizatsiya siyosatiga strategik yondashuv «SEA SIDE RESORT» MChJ uchun faqat buxgalteriya hisobining texnikaviy masalasi emas, balki faol rivojlanish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish vositasiga aylanmoqda. Bu orqali kompaniya o'z xizmatlarining sifatini muntazam ravishda yaxshilab, bozorda ustun mavqe egallash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Jahon amaliyotida, ayniqsa Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va AQSh mehmonxona biznesi sohasida asosiy vositalarning foydalanish muddatini baholashda ilg'or yondashuvlar qo'llaniladi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talabiga muvofiq, aktivlarning foydalanish muddati:

- ularning fizik eskirish holatiga,
- texnik xizmat ko'rsatish darajasiga,
- bozordagi texnologik o'zgarishlarga,
- iqtisodiy foydali qo'llanilishiga qarab individual ravishda belgilanadi.

Masalan, mehmonxona uskunalari (professional oshxona jihozlari, konditsionerlar, elektron jihozlar) uchun 5-7 yillik foydali xizmat muddati belgilanishi mumkin, mebellar uchun esa 3-5 yillik muddat qo'llaniladi.

Bundan tashqari, xalqaro amaliyotda foydalanish muddatlarini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish va zarur hollarda qayta baholash amaliyoti keng tarqalgan. Bu yeskirgan aktivlarni hisobdan chiqarib, zamonaviy uskunalariga sarmoya yo'naltirish imkonini yaratadi.

Mehmonxona kompleksi kabi turistik biznesda amortizatsiya siyosatini to'g'ri shakllantirish va uni strategik moliyaviy boshqaruvning bir qismiga aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagi metodik yondashuvlar tavsiya etiladi:

1. Foydalanish muddatini individual baholash:

Har bir asosiy vosita turi bo'yicha uning real xizmat muddati, fizik holati va bozordagi texnologiya o'zgarishlarini chuqur tahlil qilish lozim.

2. Xalqaro standartlardan foydalanish:

IFRS (ayniqsa, IAS 16 — Property, Plant and Equipment) talablariga moslashgan amortizatsiya siyosati ishlab chiqish.

3. Foydalanish muddatlarini doimiy qayta ko'rib chiqish:

Har yili yoki kamida 2-3 yilda bir marta aktivlarning xizmat qobiliyatini qayta baholab, kerak bo'lsa, foydalanish muddatini yangilash.

4. Soliq optimallashtirishni hisobga olish:

Amortizatsiyaning soliqqa ta'sirini tahlil qilish va soliq rejalashtirish vositasi sifatida oqilona qo'llash.

5. Aktivlarni yangilash strategiyasi bilan bog'lash:

Amortizatsiya siyosatini kompaniyaning investitsiya rejasi va xizmat sifatini oshirish strategiyasi bilan bog'liq holda shakllantirish.

«SEA SIDE RESORT» MChJ faoliyati misolida kelib chiqqan holda rahbariyat va moliyaviy menejerlar quyidagi amaliy chora-tadbirlarni ko'rishi maqsadga muvofiq:

Tavsiyalar	Amaliyotda qo'llash mexanizmi
Amortizatsiya siyosati bo'yicha ichki korporativ standart ishlab chiqish	Korporativ moliya siyosati doirasida
Amortizatsiyani har yili qayta ko'rib chiqishni joriy etish	Moliyaviy bo'lim tomonidan yillik rejalashtirish
Xalqaro standartlarga o'tish strategiyasini ishlab chiqish	IFRS bo'yicha o'quv kurslari, konsultantlar jalb etish
Aktivlarni raqobatbardoshlik nuqtai nazaridan baholash	Marketing va investitsiya bo'limi bilan hamkorlikda
Soliq hisobini moliyaviy hisobdan alohida yuritish	Soliq va moliyaviy hisobning integratsiyasini ta'minlash

Izoh: Bunday yondashuvlar orqali «SEA SIDE RESORT» MChJ o'zining moliyaviy barqarorligini saqlab, kreditorlar va investorlar oldida shaffof moliyaviy hisobot taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan yangi aktivlarni jalb qilish uchun yetarli moliyaviy resurs shakllantiriladi.

XULOSA

Amortizatsiya siyosatini strategik darajada shakllantirish barcha kompaniyalarda bo'lgani kabi mehmonxona biznesida, xususan «SEA SIDE RESORT» MChJ kabi kompaniyalar faoliyatida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Aktivlarning foydalanish muddatini to'g'ri va individual baholash, amortizatsiya xarajatlarining hisobga olinishini bozor sharoiti hamda texnologik o'zgarishlarga moslashtirish orqali kompaniya o'zining moliyaviy natijalarini barqaror ravishda boshqarishi mumkin.

Xalqaro amaliyot tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, foydalanish muddatini baholashning ilg'or usullaridan foydalanish aktivlarning real holatini hisobga olishni ta'minlaydi hamda ularning yangilanish jarayonlarini rag'batlantiradi. Bu esa xizmat sifati, mijozlar qoniqishi va bozordagi raqobatbardoshlikka bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistondagi amaldagi milliy standartlar va normativ-huquqiy asoslar esa ko'p hollarda umumiy guruhlar bo'yicha belgilangan muddatlar bilan cheklangan bo'lib, xalqaro amaliyotdagi individual yondashuvni to'liq aks ettirmaydi. Shuning uchun kompaniya rahbariyati amortizatsiya siyosatini shakllantirishda faqat normativ talablarga emas, balki bozor tendensiyalariga va ichki moliyaviy strategiyaga ham asoslanishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, amortizatsiya siyosatini strategik darajada boshqarish kompaniya uchun soliq yukini optimallashtirishning ham muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Oqilona shakllantirilgan amortizatsiya xarajatlari soliq to'lovlarini rejalashtirishga yordam beradi va erkin pul oqimini ko'paytirish orqali kapital investitsiyalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

«SEA SIDE RESORT» MChJ faoliyati misolida ko'rinishicha, amortizatsiya siyosati bilan bog'liq qarorlar nafaqat buxgalteriya hisobining texnik masalasi, balki umumiy moliyaviy barqarorlik va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni e'tirof etish kerakki, kompaniya rahbariyati va moliyaviy menejerlar amortizatsiya siyosatini muntazam ravishda qayta ko'rib chiqib, xalqaro standartlarga moslashgan va bozor sharoitiga uyg'unlashgan holda yangilab borishlari zarur. Bu orqali ular moliyaviy hisobotlarda shaffoflikni ta'minlab, investorlar va kreditorlar ishonchini oshiradi hamda kompaniyani uzoq muddatli barqaror rivojlanishga yetaklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Horngren C.T., Foster G., Datar S.M. *Cost Accounting: A Managerial Emphasis*. Prentice Hall, 15th edition, 2014.
2. Barth M.E., Landsman W.R., Lang M.H. *International Accounting Standards and Accounting Quality*. Journal of Accounting Research, 2008, Vol. 46 (3), pp. 467–498.
3. Walton P., Haller A., Raffournier B. *International Accounting*. Cengage Learning EMEA, 2014.
4. EY. *2023 Global IFRS Survey: Practical insights on current issues*. Ernst & Young Global Limited, 2023.
5. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1996). *The Balanced Scorecard: Translating strategy into action*. Harvard Business School Press.
6. Cooper, R., & Kaplan, R. S. (1991). *The Design of Cost Management Systems: Text, Cases, and Readings*. Prentice Hall.
7. Barney, J. (1991). Firm resources and sustained competitive advantage. *Journal of Management*, 17(1), 99–120. <https://doi.org/10.1177/014920639101700108>
8. Johnson, H. T., & Kaplan, R. S. (1987). *Relevance lost: The rise and fall of management accounting*. Harvard Business School Press.
9. Drury, C. (2018). *Management and cost accounting* (10th ed.). Cengage Learning.
10. Anthony, R. N., & Govindarajan, V. (2007). *Management control systems* (12th ed.). McGraw-Hill Education.
11. Barney, J. B. (1991). Firm resources and sustained competitive advantage. *Journal of Management*, 17(1), 99–120. <https://doi.org/10.1177/014920639101700108>
12. Cooper, R., & Kaplan, R. S. (1991). Profit priorities from activity-based costing. *Harvard Business Review*, 69(3), 130–135.
13. Horngren, C. T., Datar, S. M., & Rajan, M. V. (2020). *Cost Accounting: A Managerial Emphasis* (16th ed.). Pearson.
14. Appelbaum, D., Kogan, A., & Vasarhelyi, M. A. (2017). Impact of business analytics and enterprise systems on managerial accounting. *International Journal of Accounting Information Systems*, 25, 29–44. <https://doi.org/10.1016/j.accinf.2017.03.003>
15. Simons, R. (2000). *Performance Measurement and Control Systems for Implementing Strategy*. Prentice Hall.
16. Popesko, B. (2010). Activity-based costing application: Methodological aspects and case study. *Economics and Management*, 15, 152–158.
17. Otley, D. (2003). Management control and performance management: Whence and whither? *British Accounting Review*, 35(4), 309–326. <https://doi.org/10.1016/j.bar.2003.08.003>

Raimov Xurshid Muxtorovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi

raimovxurshid870@gmail.com

NOBANK KREDIT TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI XIZMAT TURLARI

Раимов Хушид Мухторович

Независимый исследователь Ташкентского государственного

экономического университета

raimovxurshid870@gmail.com

НОВЫЕ ВИДЫ УСЛУГ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ФИНАНСОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ НЕБАНКОВСКИХ КРЕДИТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ.

Raimov Khurshid Mukhtorovich

Independent researcher at Tashkent State University of Economics

raimovxurshid870@gmail.com

NEW SERVICES TO IMPROVE THE FINANCIAL SERVICES OF NON-BANK CREDIT INSTITUTIONS

Annotatsiya. Mazkur maqolada bank xizmatlari bozorida yangi innovatsion texnologiyalar asosida bank marketingini amalga oshirish hamda yangi interaktiv bank xizmatlarini mijozlarga joriy etish, axborotlarni taqdim etish va shu tariqa ushbu xizmatlarni rivojlantirish masalalari tadqiq qilingan.

Tayanch soʻzlar. bank, mijoz, masofaviy bank xizmatlari, bank marketingi, internet banking, sms banking, toʻlov tizimi.

Аннотация. На базе инновационных технологий в сфере банковского маркетинга Мазда разработала новую линейку интерактивных банковских услуг для клиентов с ограниченными возможностями, а также для клиентов с ограниченными возможностями развития этих услуг.

Ключевые слова: банковские, межбанковские, массовые банковские услуги, банковский маркетинг и, интернет банкинг, SMS банкинг, платежи.

Abstract. The article considers issues related to the implementation of bank marketing on the base of new innovative technologies in the banking services sphere, as well as the introduction of new interactive banking services, the provision of information and, thus, the development of these services.

Keywords: banking, customer, remote banking services, banking marketing, internet banking, SMS banking, payment system.

Kirish. Respublikamizda «Raqamlashtirish» soʻzi aslida yangi atama boʻlib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga informatsion texnologiyalarning echimlarning jalb etilishini, buning samarasi oʻlaroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha boʻlgan barcha

tizimlarda axborot texnologiyalarini qo'llashni ko'zda tutmoqda.

Bu esa, o'z navbatida bank marketingida raqamli kanallar orqali bank maxsulotlari va xizmatlarini targ'ib qilish, bank mahsulotlari haqidagi ma'lumotlarni tezkorlikda mijozlarga etkazishda muxim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Bugungi kunga qadar bank tizimida marketing faoliyatini takomillashtirish masalalari Sh.Z. Abdullaeva[1], D.N.Allayorova [2], Z.B. Mustafaev [3] va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida ham tadqiq etilgan. Bank tizimida marketing faoliyatini takomillashtirish tadqiq etishda bank marketingi umuman marketing tushunchalariga aniqlik kiritilish talab etiladi.

Xorijlik iqtisodchi olim D. Aakerning fikricha marketing so'zi inglizcha "market"- bozor so'zidan olingan bo'lib-bu bozorni tahlil qilish va istiqbolni aniqlash, bozordagi faoliyatning strategiyasi va taktikasini maxsus ishlab chiqarish orqali muayyan iste'molchilarning talablarini qondirish va foyda olishga yo'naltirilgan ishlab chiqarish hamda sotishni tashkil qilish tizimidir [4].

Bank marketingining mohiyatini ochib berishda xorijlik iqtisodchi olim Jan-Jak Lomben, bank marketingi - degan so'zning tarjimasini bozor bilan bog'liq, degan ma'noni bildiradi. Lekin bu mohiyat e'tibori bilan olganda ancha keng tushunchadir deb ta'riflab o'tadi. [5]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiy iqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning bank tizimida marketing faoliyatini rivojlantirishda olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda ma'lumotlarni tizimlash bo'yicha mahsus yondoshuvlar, ya'ni taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

Natija va muhokama. Hozirgi kunda, respublikamizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari bank marketingidan, marketing tadqiqotlarida raqamli texnologiyalardan faol marketing tadqiqotlaridan to'laqonli, etarlicha to'liq foydalanilmayotganligi, bank mijozlarlarning xulq-atvori, mijozlarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

O'zbekistonda har bir bankda ko'p sonli turli jihatlarning marketingi bilan shug'ullanuvchi bo'linmalar mavjud. Aksariyat holatlarda ushbu jihatlarning quyidagilardan iborat bo'ladi:

- 1) kreditlash, omonatga pul qabul qilish va boshqa xizmatlarni ko'rsatish bozorida etakchilik qilishga erishayotgan raqobatchilarni o'rganish;
- 2) raqobatchilarni o'z banki bilan taqqoslash.

Rakamlashtirishning tobora kuchayib borishi mobil va kontaktsiz tulovlar, P2P (Peer-to-peer) xizmatlari, rakamli valyutalar va boshkalar bozori xajmining jadallik bilan rivojlantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni[6]¹ning qabul qilinishi bank tizimi oldiga to'rtta ustivor yo'nalishni belgilab berdi:


¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. PF-5992-son. 12.05.2020 y. <https://lex.uz/docs/4811025>

Banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish;

1. Bank xizmatlari ommabopligini oshirish;
2. Bank tizimida davlat ulushini qisqartirish.


Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirish uchun banklar faoliyatida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda tijorat banklarini xususiylashtirish borasida bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tijorat banklari faoliyatida ilg'or raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etgan holda aholi va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, bankomatlar va infokiosklarda amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar turlarini kengaytirish orqali naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmi oshgan. (1- rasm).



1-rasm. Masofadan xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalanuvchilar soni haqida ma'lumot (2022 yil 1 yanvar xolatiga, mln.so'mda) [7]


Keltirilgan 1-rasm ma'lumotlari taxlilidan, O'zbekistonda masofadan xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalanuvchilar soni 2018-2022 yillar oralig'ida o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.



2-rasm. Masofadan xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalanuvchilar (turlari bo'yicha) soni haqida ma'lumot (2022 yil 1 yanvar xolatiga, mln.so'mda) [7]

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra tijorat banklarining 20,2 milliondan ortiq mijozlari masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanadi. Ulardan 19,3 million nafari (yoki 95 foizi) jismoniy shaxslar, 974 mingtasi yuridik shaxslar va

yakka tartibdagi tadbirkorlar sanaladi.(2-rasm).



3-rasm. Muomaladagi bank kartalari soni (2022 yil 1 yanvar xolatiga, mln.dona) [7]

Yuqoridagi 3-rasm ma'lumotlariga ko'ra muomaladagi bank kartalari soni ortib borish tendensiyasi kuzatilgan, bu esa iqtisodiyotda bank kartalari orqali hisob-kitoblar hajmining o'sib borayotganligini bank tizimiga joriy etilayotgan raqamli va innovatsion texnologiyalarning samara berayotganligini asoslab, bank kartalariga asoslangan to'lov xizmatlarining respublikamizda tobora ommalashib borayotganligi isbotlaydi.

Xulosa. Yuqoridagi taxlillarimizga tayanib, xulosa qilib aytganda, banklarda marketingning yangi xizmat turlarini rivojlantirishni talab etadi:

- barcha tijorat banklarida marketing faoliyatini «home banking»,
- «internet – bank», «mobil telefon bank» kabi yangi zamonaviy bank xizmatlarini joriy etilishi va mavjud banklarda ularni rivojlantirishga asoslanib marketing strategiyasini yaratish;
- mijozlar bazasini kengaytirish va ularning miqdoriy hamda sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha doimiy marketing tadqiqotlarini olib borish;
- marketing bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni bankka keng jalb qilish va ular ishtirokida turli o'quv seminarlarini, kouchinglarni tashkil etish;
- masofaviy bank xizmatlari soni va qamrovini ko'paytirish, shu jumladan kontaktsiz to'lovlar, avtomatlashtirilgan tizimining keng qo'llash, raqamli identifikatsiya va kredit konveyeri, bank sohasida yangi konsepsiyalar va texnologiyalarni joriy etish (marketpleys, ovozli texnologiyalar)dan unumli foydalanish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aaker D., i dr. Маркетинговый исследования, изд. 7-ye. Пер. с angl. Под ред. S. Bojuk. SPb.: Piter, 2012. - 848 s.
2. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. - T.: O'zbekiston, 2007. 17. Allayorova D.H. Организация маркетинга в коммерческих банках. – T.: IPTD «Chulpan», 2005.
3. Mustafaev B.Z. Bank marketingi moliya bozori shakllanishi va rivojlanish asoslari. «Marketing» mutaxassislari bo'yicha i.f.n ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. -T.: TDIU, 1998.

4. Shumpeter, I. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya / I. Shumpeter ; per. s nem. – M. : Progress, 2000. – 455 s.
5. Jan-Jak Lomben. Strategicheskiy marketing. S-Peterburg 1996, 13bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020 — 2025 yillarga
7. mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni. PF-5992-son. 12.05.2020 y. <https://lex.uz/docs/4811025>
8. <https://cbu.uz>- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma’lumotlari.
9. Azlarova , A. (2022). O‘zbekistonda raqamli banklarni rivojlantirish istiqbollari. Economics and Innovative Technologies, 10(5), 22–30. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss5/a3

RUSTAMOV MAQSUD SUVONQULOVICH

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “ Bank ishi ”kafedrası
mudiri Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent e-mail: rustamov.m.s@mail.ru*

EGAMBERGANOV MIRZABEK ODILBEK O‘G‘LI

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Moliya fakulteti
4-bosqich talabasi E-mail: mirzobekegamberganov@gmail.com*

ELEKTRON PULLARNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

РУСТАМОВ МАКСУД СУВАНКУЛОВИЧ

*Заведующий кафедрой «Банковское дело»
Ташкентского государственного экономического
университета доктор экономических наук,
доцент Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail: rustamov.m.s@mail.ru*

ЭГАМБЕРГАНОВ МИРЗАБЕК ОДИЛБЕК ЎҒЛИ

*Студент 4 курса финансового факультета
Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: mirzobekegamberganov@gmail.com*

ПУТИ РАЗВИТИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ ДЕНГ

RUSTAMOV MAKSUD SUVANKULOVICH

*Head of the Department of Banking at Tashkent
State
University of Economics, Doctor of Economics,
Associate
Professor, DSc, associate professor*

Tashkent State University of Economics Email: rustamov.m.s@mail.ru

EGAMBERGANOV MIRZABEK ODILBEK UGLI

*4rd year student of the Faculty of Finance Tashkent State University of Economics
E-mail: mirzobekegamberganov@gmail.com*

WAYS OF DEVELOPING ELECTRONIC MONEY

Аннотация. В данной статье представлена подробная информация об истории электронных денег и их видах. Кроме того, подробно освещены такие вопросы, как место электронных денег сегодня и их роль в развитии экономики, некоторые аспекты систем их обращения. Изучено использование электронных денег на опыте зарубежных стран и сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: наличные деньги, электронные деньги, финансовый сектор, компьютерные технологии, информационная безопасность, виртуальные, частные сети, пластиковые карты, электронный ключ.

Annotatsiya. Mazkur maqolada elektron pullarning vujudga kelish tarixi va uning turlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, elektron pullarning bugungi kundagi o'rni va uni iqtisodiyotning rivojlanishidagi roli, ularni aylanish tizimlarining ayrim jihatlari kabi masalalar atroflicha yoritib berilgan. Elektron pullarning xorijiy davlatlar tajribasida qo'llanilishi o'rganilgan va tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Tayanch so'zlar: naqd pul, elektron pul, *moliyaviy sektor*, kompyuter texnologiyalari, axborot xavfsizlik, virtual, xususiy tarmoqlar, plastik kartalar, elektron kalit.

Abstract. This article provides detailed information about the history of electronic money and its types. In addition, issues such as the place of electronic money today and its role in the development of the economy, some aspects of their circulation systems are covered in detail. The use of electronic money in the experience of foreign countries has been studied and appropriate conclusions have been drawn.

Key words: cash, electronic money, financial sector, computer technologies, information security, virtual, private networks, plastic cards, electronic key.

Kirish

Bugun dunyoda XVII asr o'rtalariga kelib qimmatbaho metallarni qog'oz banknotalar siqib chiqarishga kirishgani hamda oradan uch yuz yil o'tib esa ular o'z o'rnini elektron pullarga bo'shatib bera boshlagani e'tiborni tortadi. 1970-yillari o'rtalarida birinchi marta karta orqali naqd pulsiz tranzaksiya, ya'ni jo'natma qilinadi. Lekin bu elektron pul bo'lmay, faqat bank tizimi ichida o'zaro almashuv usuli edi. Dastlabki elektron pul o'tkazmasi "1994-yilda DigiCash to'lov tizimi orqali amerikalik olim kompyuterchi David Li Chaumning real pulni virtual valyutaga aylantirish g'oyasi asosida amalga oshirildi"[12]. Aslida ushbu tarixiy voqelik, birinchi navbatda, Internetning keng qamrov kasb etishi va virtual pullarni saqlash hamda kommunikatsiya tizimi sifatida maydonga chiqishining mahsuli sifatida qaraldi.

Jahonda to'rtta pul turi hukmronlik qilmoqda, ular: naqd, naqdsiz, elektron va kriptovalyutalardir. Hozirga kelib Yer yuzi aholisining 30 foizidan kamrog'i naqd banknotalardan, qolgan qismi elektron pullardan foydalanmoqda. Bu ko'rsatkich, rivojlangan mamlakatlarda o'rtacha 10 foizni, jumladan, Shvesiyada bir foizdan ham kamroqni tashkil etadi.

Elektron pullar naqd pullar bilan bir xil tarzda ishlaydi. Ulardan mahsulot yoki xizmatlarga to'lash uchun foydalanishingiz mumkin. Farqi shundaki, ular bank kartalari, axborot tashuvchi elektron moslamalarda yoki elektron hamyonlarda saqlanadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda elektron tijoratning rivojlanishi, turli to'lov xizmatlarini etkazib beruvchilar o'rtasida raqobat muhitining shakllanishi va kuchayishi chakana to'lovlar bo'yicha tranzaksion xarajatlar qisqartirilishini, shuningdek, to'lovlarni amalga oshirishda moliyaviy institutlarning vositachiligini talab etmaydigan innovatsion hamda jozibador vositalarning joriy etilishini taqozo etmoqda. Elektron pullar ana shunday tizimlardan biri sifatida kundalik hayotimizda jadal kirib boryapti. Bugungi kunda butun dunyoda "raqamli bank tizimlaridan foydalanuvchilar umumiy soni 2020-yilda 2,4 milliarddan oshdi. Tahlilchilarning prognozlariga ko'ra 2024-yilda raqamli bank foydalanuvchilari global miqyosda 54 foizga oshib 3,6 milliardni tashkil etadi, chunki faqatgina raqamli banklar bozorni katalizatsiya qilmoqda. Ushbu o'sishga faqat raqamli banklarning ko'payishi va o'rnatilgan bank brendlari tomonidan raqamli transformatsiyaga doimiy e'tibor qaratilishi sabab bo'ladi" [13]. Shu boisdan dunyoning juda ko'plab mamlakatlarida bank xizmatlari bankka tashrif buyurmasdan masofadan boshqarish eng dolzarb masalalardan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida mijozlarga taqdim etiladigan elektron bank

xizmatlarini ko'rsatish borasida tizimli ishlar tashkil etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 – 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli farmonida "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, samarali infratuzilma yaratish va banklar faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklarning asosiy faoliyat turi bilan bog'liq bo'lmagan funktsiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirishga juda katta e'tibor berilmoqda. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlari turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish; masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan kontaktsiz to'lovlar soni va qamrovini kengaytirish; avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyeridan keng foydalanish; bank ma'lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish; bank sohasidagi yangi kontseptsiya va texnologiyalarni joriy qilish (fintex, marketpleys, raqamli bank)"[1] kabi vazifalarning belgilanganligi mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Elektron pullarning o'ziga xos xususiyatlari xorijiy olimlar Schär F. [2], Bech M.C., Boar, D.Yeidan, P.Haene, H.Holden, W.Toh [3] tomonidan ayrim jixatlari o'rganilgan va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

D.Jentle, J.Sinki, P.Rouzlarning qarashlarida «Moliyaviy supermarket va «moliyaviy butik» g'oyasi hamda tor yo'nalishga ixtisoslashgan banklarning universal banklar qatoriga qo'shilishi dolzarblik kasb etishi. Ssuda kapitali bozoridagi xizmatlar, elektron xizmatlar keng tarqaldi, banklarning birlashish va singib ketish holatlari ko'payganlini" [4, 5] keltirishadi.

Ushbu sohada mavjud muammolarning ilmiy amaliy jihatlari mahalliy iqtisodchilardan Sh.Z.Abdullaeva [6], T.M.Qoraliev, A.A.Omonov [7], M.M.Nuralieva [8], Z.T.Mamadiyarovlar [9] tomonidan tadqiq etilgan.

O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi elektron pullar muomalasini, jumladan, elektron pullarni chiqarish, foydalanish va ularni qoplash bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatning huquqiy asosini yaratib berdi. Ushbu qonun asosida "O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarni chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari" ishlab chiqilib, Adliya vazirligida 2020-yil 29-aprelda 3231-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi. Mazkur hujjat jahon tajribasiga tayangan holda, elektron pullar tizimi faoliyatini tashkil etish, elektron pullar muomalasi, elektron pullar tizimida risklarni boshqarish hamda tizimda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqildi. Unda elektron pullar tizimiga oid asosiy tushunchalar, shu jumladan, "ayirboshlash operatsiyasi", "bir va ko'p emitentli elektron pullar tizimi", "oldindan to'langan karta", "elektron pullar tizimining agenti", "elektron hamyon" va sohaga oid boshqa terminlarga batafsil tushuntirishlar berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada guruhlash, abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, tarkibiy tahlil, ilmiy prognozlash, iqtisodiy-statistik, grafik-tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

Natija va muhokama

Qoidaga ko'ra, emitent, operator, elektron pullar tizimining agenti, elektron pullar egasi, shuningdek, emitent bilan shartnoma tuzgan banklar, to'lov tashkilotlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va (yoki) yuridik shaxslar elektron pullar tizimining sub'ektlari hisoblanadi. Bunda

elektron pullar tizimining ishlashini ta'minlaydigan bank va (yoki) tegishli litsenziyaga ega bo'lgan to'lov tashkiloti – elektron pullar tizimining operatoridir. Emitent yoki emitent bo'lmagan boshqa bank operator bilan tuzilgan shartnoma asosida elektron pullar tizimining hisob-kitob banki sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Ta'kidlash joizki, emitent o'z faoliyatini boshlashi uchun, eng avvalo, elektron pullarni chiqarish va realizatsiya qilishi to'g'risida Markaziy bankka belgilangan shakldagi xabarnoma va unga ilova sifatida operator bilan tuzilgan shartnoma hamda elektron pullar tizimi sub'ektlari bilan tuziladigan shartnomalar namunalarini yuborishi zarur.



1-rasm. Elektron pul tizimi sub'ektlari [10]

Elektron pullarning asosiy afzalliklaridan biri, bank hisobvarag'ini ochmasdan turib to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi va tezkor tizimning yo'lga qo'yilganligidadir. Shu bilan birga to'lovlarni amalga oshirayotgan paytda vositachilik haqining boshqa to'lov vositalariga qaraganda arzonligi hisoblanadi.

1-jadval

Jismoniy shaxslar uchun elektron pullar qulayliklari¹

Bank kartalari	Elektron pullar
Bank hisobvarag'ini ochish talab etiladi	Xaridor jismoniy shaxs elektron hamyonni uyali aloqa telefoni raqamiga ochishi mumkin
Operatsiyalarni amalga oshirayotganda bank karta hisobvarag'iga murojaat qilish talab etiladi	To'g'ridan-to'g'ri elektron hamyon orqali muomala qilinadi (tegishli bank vositachilik haqi ushlab qolinmaydi, xarajatlar kamayadi)
Tijorat banklari bank kartalarini ochayotganda mijozni identifikatsiya qilishlari kerak	Elektron hamyon egasi identifikatsiya qilinishi yoki identifikatsiya qilinmasligi mumkin. Identifikatsiya qilingan elektron pullarning egasi bo'lgan jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladigan bitta operatsiyaning eng ko'p summasi 100 BHMga teng bo'lgan

¹ Muallif hisob-kitoblari.

	summadan oshmasligi kerak. Identifikatsiya qilinmagan elektron pullarning egasi bo'lgan jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladigan bitta operatsiyaning eng ko'p summasi 1 BHMga teng bo'lgan summadan oshmasligi kerak. Identifikatsiya qilinmagan elektron pullarning egasi bo'lgan jismoniy shaxsning bitta elektron hamyonida (qurilmasida) saqlanadigan elektron pullarning eng ko'p summasi 5 BHM.
--	--

Hozirga kelib, O'zbekistondagi elektron pullar tizimi soni 15 taga etdi.

1-jadval

Elektron pullar tizimlari reestri²

№ t/r	Elektron pullar tizimi nomi	Operator nomi	Emitent nomi	Elektron pullar chiqarish sana
1.	«OSON»	"BRIO GROUP" MChJ	«Turkiston» XATB	16.06.2020 y.
2.	«E-CARD»	"INSPIRED" MChJ	ATB «Universal bank»	21.08.2020 y.
3.	«CLICK»	"CLICK" MChJ	«Agrobank» ATB	21.08.2020 y.
4.	«WOOPPAY»	"WOOPPAY UZ" MChJ	«Kapitalbank» ATB	02.11.2020 y.
5.	«alif.mobi»	"ALIF TECH" MChJ	AT «Aloqabank»	02.11.2020 y.
6.	«Interpay»	"Interpay sys" MChJ	«Kapitalbank» ATB	28.07.2021 y.
7.	«A-pay»	"CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION" MChJ	«Bank Apelsin» AJ	01.07.2022 y.
8.	«QIWI Uzbekistan»	«Payment Aggregation Systems» MChJ	«Bank Apelsin» AJ	11.08.2022 y.
9.	«1HLSW»	"Genesis Innovation" MChJ	AT «Aloqabank»	17.11.2021 y.
10.	«GlobalPay»	"Global Solutions" MChJ	AT «Aloqabank»	17.11.2021 y.
11.	«Payway»	"Payway" MChJ	«Bank Apelsin» AJ	29.07.2022 y.
12.	«Apelsin»	"Bank Apelsin" AJ	«Bank Apelsin» AJ	29.07.2022 y.
13.	«ExMoney»	"O'zbekiston Respublikasi Tovar-xomashyo birjasi" AJ	«Trastbank» XAB	30.08.2022 y.
14.	«AIST»	"Ozinterpay" MChJ	ATB «Universal bank»	30.08.2022 y.
15.	«PAYNET WALLET»	«INSTANT PAYMENT SOLUTIONS» MChJ	AT Xalq banki	30.08.2022 y.


² Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz ma'lumotlari asosida).

Butun jaxon migratsiya va taraqqiyot tadqiqotlar agentligining qisqacha ma'lumotlariga ko'ra, "past va o'rta daromadli mamlakatlarga pul o'tkazmalarining rasmiy ravishda qayd etilgan oqimlari 2020 yilda 540 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2019 yildagi 548 milliard dollardan atigi 1,6 foizga kamdir. 2020 yilda pul o'tkazmalarining qayd etilgan oqimining pasayishi 2009 yilgi jahon moliyaviy inqirozi davridagi ko'rsatkichdan (4,8 foiz) kichikroq bo'ldi" [11].



2-rasm. Elektron hamyonlarni to'ldirish jarayonlari [10]


2-rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, elektron pullarning chiqarilishi emitent tomonidan jismoniy shaxs yoki elektron pullar tizimining agentidan qabul qilingan pul mablag'lari doirasida elektron pullar tizimi qoidalari hamda elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va ularni qoplash to'g'risidagi shartnomaga asosan amalga oshiriladi.



3-rasm. Elektron pullarni qoplash texnologiyasi [10]


3-rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, emitent elektron pullar egasi tomonidan taqdim qilingan elektron pullarni mazkur tizim qoidalari hamda emitent va elektron pullar egasi o'rtasida tuzilgan elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va ularni qoplash to'g'risidagi shartnomaga muvofiq naqd pulga almashtirish yoki naqd pulsiz mablag'larni elektron pullar egasining bank hisobvarag'iga kirim qilish orqali qoplaydi.

Bugungi kunda Markaziy bank tomonidan milliy to'lov tizimlarini rivojlantirish va moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish yo'nalishidagi ishlar doirasida bank biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va xizmatlarning raqamli kanallar orqali ko'rsatilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 1,5 barobarga oshib, 2023-yilning 1-yanvar holatiga 30 mln.ga etdi. Bunda, foydalanuvchilarning 1,2 mln. tasini yuridik shaxslar tashkil etgan bo'lsa, bank kartalari va bank depozit hisobvaraqlari bo'yicha bank hisobvaraqlarini masofadan boshqari tizimlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar soni 28,8 mln. taga teng bo'lgan. Banklarning mobil ilova dasturlarida jismoniy shaxslar uchun barcha bazaviy bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yaratilishi natijasida masofadan turib onlayn tarzda amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi hisobot yilida 145,8 trln. so'mga etdi. Bunda, mobil ilova dasturlari orqali amalga oshirilgan onlayn depozitlar – 21,9 trln. so'm, konversiya amaliyotlari – 20,9 trln. so'm, onlayn mikroqarzlar – 5,6 trln. so'm, kreditlarni so'ndirish hajmi – 8,2 trln. so'mni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.



4-rasm. QR-online tizimida amalga oshirilgan tranzaksiyalar [10]


4-rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2022-yilda "QR-online" axborot tizimi tomonidan tadbirkorlik sub'ektlariga taqdim qilingan QR-kodlar soni 2021-yilga nisbatan qariyb 8 ming taga oshib 99 ming taga etdi. Shunga qaramasdan, 2022-yilda ushbu tizim orqali o'tkazilgan tranzaksiyalar hajmi 2021-yildagi 14,9 mlrd. sumdan 191,6 mlrd. so'mgacha oshgan, tranzaksiyalar soni esa 4,2 barobarga oshib 63,2 ming tani tashkil qildi.



5-rasm. Elektron pullar tizimlari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyala [10]

5-rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2023-yilning 1-yanvar holatiga Markaziy bankning elektron pullar tizimlari reestriga 15 ta elektron pullar tizimlari kiritilgan bo'lib, mazkur tizimlarda ochilgan elektron hamyonlar soni 8,4 mln. donaga etdi. Hisobot yilida elektron pullar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 2021-yilga nisbatan 1,8 barobarga oshgan holda 11,6

mln. donani, tranzaksiyalar hajmi esa 1,6 barobarga o'sib 273,2 mlrd. so'mni tashkil etgan.



6-rasm. Onlayn to'lov tartibi quyidagicha³

Elektron hamyon egalari tomonidan o'tkazilgan tranzaksiyalarning 92 foizi elektron pullar tizimlarining ishtirokchisi bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlarining elektron hamyonlariga muayyan tovar (xizmat, ishlar) uchun to'lovlarni amalga oshirish hamda 8 foizi jismoniy shaxslar elektron hamyoniga pul o'tkazmasini amalga oshirish maqsadida foydalanilgan. Elektron pullar vositasida amalga oshirilgan to'lovlarning 28 foizi mobil operatorlarning xizmatlari, 10 foizdan – kommunal xizmatlar hamda o'yin va ijtimoiy tarmoqlardagi xizmatlar, 9 foizi – xorijiy elektron hamyonlarni to'ldirish, 5 foizi joyidagi to'lovlar va boshqa xizmatlar uchun o'tkazilgan to'lovlarni tashkil etadi.

Xulosa

Bank tizimi barqarorligini ta'minlash va iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlarini ragbatlantirishga qaratilgan qator muhim chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bu esa, bank va boshqa moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatning kengayishi hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatining oshishiga imkon beradi va eng yuksak halqaro standartlar talabiga mos zamonaviy bozor infratuzilmasining rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Bank tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng ko'lamda tadbik qilinishi ushbu tizimning yanada samarali faoliyat olib borishini ta'minlaydi.

Zamonaviy voqelikda marketingda axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan bank muassasasi faoliyatini olib borish mumkin emas. Internet-marketingning har xil turlaridan foydalanish, yangi mijozlarni jalb qilish, mavjud bozorni kengaytirish imkonini beradi. Hech shubha

³ Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz ma'lumotlari asosida).

yo‘qki, bugungi kunda ushbu istiqbolli marketing vositalariga etarlicha e‘tibor beradigan banklar, ertaga o‘zlarining raqobatchilariga qarshi jiddiy ustunlikka ega bo‘lishadi. Shu munosabat bilan, banklar onlayn xizmatlarni taqdim etish tizimini rivojlantirish bilan bir qatorda, onlayn ma‘lumotlarni to‘plash tizimini ham ishlab chiqishi kerak. Bu ularga mijozlar haqidagi so‘nggi ma‘lumotlarni olish va tadqiqot xarajatlarini qisman kamaytirish imkonini beradi.

Shunday qilib, bank muassasalari tomonidan mijozlar bo‘yicha samarali tadqiqotlarni ishlab chiqish va o‘tkazish, ularga o‘zlari bilan o‘zaro munosabatlarni yaxshilash va bozor ko‘rsatkichlarini oshirishga imkon beradi. Bank uchun o‘zining marketing tadqiqotlarini professional ravishda olib boradigan kompaniyalarning xizmatlari bilan birlashtirish juda muhimdir. Shuningdek, bank muassasalari zamonaviy aloqa vositalarining har hil turlaridan foydalangan holda zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanishi kerak. Chunki ularda mijozlar bilan bevosita bog‘lanish bo‘yicha zarur axborotlar mavjud.

Respublikamiz tijorat banklari xizmatlari tarkibida overdraft, valyutaviy svop xizmat turlarining rivojlanmaganligi, forfeiting, kontokorent, trust xizmatlarining mavjud emasligi banklarning moliyaviy xizmat soni va sifatini oshirish borasidagi dolzarb muammolarning mavjudligidan dalolat beradi.

Tijorat banklarida internet-banking xizmat turi bo‘yicha marketing bo‘limlarini tashkil qilish orqali mijozlarni kengroq qamrab olish va ularni ushbu xizmat turidan xabardorligini ta‘minlash lozim;

Yangi bank xizmatlari bilan ishlashda malakali axborot texnologiyalari va bank xizmatlarini birday yaxshi tushunadigan kadrlarni muntazam tayyorlash;

Banklarning faoliyatini ish uslubini o‘zgartirish, bunda har bir mijozga yo‘naltirilgan o‘z strategiyasini ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmon.

2. Schär, Fabian. 2021. “Decentralized Finance: On Blockchain- and Smart Contract-Based Financial Markets.” Federal Reserve Bank of St. Louis Review 103 (2): 153-74. <https://doi.org/10.20955/r.103.153-74>;

3. Bech M., C. Boar, D.Yeidan, P.Haene, H.Holden and W.Toth. 2022. “Using CBDCs across Borders: Lessons from Practical Experiments.” BIS Innovation Hub, Bank for International Settlements, Basel.

4. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. – М: «Альпина Бизнес Букс», 2007. – С. 1018.

5. Роуз Питер С. Банковский менеджмент. Пер. с англ. со 2-го изд. - М.: «Дело ЛТД», 1995. – С. 479.

6. Sh.Z.Abdullaeva Bank ishi. Darslik. T: «IQTISOD-MOLIYA», 2017 y. 535-540 b.;

7. A.A.Omonov., M.T.Qoraliev Banklarda buxgalteriya hisobi T. «IQTISOD-MOLIYA», 2014 y 118 b.;

8. M.M.Nuralieva. Elektron tijoratda moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent 2021.

9. Mamadiyarov Z.T. “Tijorat banklarida masofaviy xizmatlarni rivojlantirish”. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent 2021.
10. www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida tayorlandi.
11. <https://www.worldbank.org>
12. https://en.wikipedia.org/wiki/David_Chaum
13. [www.sciencedirect.com/journal/journal-of-banking-and-financial-research/issue/S0167-2701\(2018\)30001-1](http://www.sciencedirect.com/journal/journal-of-banking-and-financial-research/issue/S0167-2701(2018)30001-1) ma’lumotlari asosida tayorlandi.

Sotiboldiyev Asadbek Hasan o'g'li
Guliston davlat universiteti
"Iqtisodiyot nazariyasi" mutaxassisligi
1-kurs tayanch-doktoranti
E-mail: asadbek992110@gmail.com

**"O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV RIVOJLANISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA
KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH VA MAHALLA INSTITUTLARI ROLINI
KUCHAYTIRISH ORQALI IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH"**

Сотиболдиев Асаadbек Хасан ўгли
Гулистанский государственный университет
Специальность: «Теория экономики»
Докторант 1 курса
E-mail: asadbek992110@gmail.com

**“ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН
ПОСРЕДСТВОМ СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ И УКРЕПЛЕНИЯ РОЛИ
МАХАЛЛИНСКИХ ИНСТИТУТОВ В РАМКАХ КОНЦЕПЦИИ ИНКЛЮЗИВНОГО
РАЗВИТИЯ”**

Sotiboldiyev Asadbek Hasan ugli
Gulistan State University
Specialty: "Economic Theory"
First-year doctoral student
E-mail: asadbek992110@gmail.com

**“ENSURING ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN THROUGH POVERTY
REDUCTION AND STRENGTHENING THE ROLE OF MAHALLA INSTITUTIONS
WITHIN THE FRAMEWORK OF INCLUSIVE DEVELOPMENT CONCEPT”**

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda mamlakatimizda aholini kambag'allikdan chiqarish va ularning turmush farovonligini oshirish masalalari inklyuziv rivojlanish konsepsiyasi asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda iqtisodiy o'sish, mehnat sharoitlari, daromadlarning oshirilishi, uy-joy va xizmat ko'rsatish sohalarining farovonlikka ta'siri ko'rib chiqildi. Milliy statistika va xalqaro manbalar asosida olib borilgan tahlil natijasida, so'nggi yillarda kambag'allik darajasining sezilarli kamaygani va aholining real daromadlari hamda turmush sharoitlarining yaxshilangani aniqlandi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy siyosatni takomillashtirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun muhim tavsiyalar beradi.

Tayanch so'zlar: Kambag'allikni kamaytirish, ijtimoiy farovonlik, inklyuziv rivojlanish, iqtisodiy o'sish, daromad oshishi, mehnat sharoitlari, uy-joy muammolari, xizmat ko'rsatish, barqaror rivojlanish, ijtimoiy siyosat

Аннотация: В данном исследовании проанализированы вопросы вывода населения нашей страны из бедности и повышения их уровня жизни на основе концепции инклюзивного

развития. В исследовании рассмотрены влияние экономического роста, условий труда, увеличения доходов, жилищного вопроса и сферы услуг на благосостояние. На основе анализа национальной статистики и международных источников выявлено значительное снижение уровня бедности за последние годы, а также улучшение реальных доходов и жизненных условий населения. Результаты исследования дают важные рекомендации для совершенствования социальной политики и обеспечения устойчивого экономического развития.

Ключевые слова: Снижение бедности, социальное благополучие, инклюзивное развитие, экономический рост, увеличение доходов, условия труда, жилищные проблемы, сфера услуг, устойчивое развитие, социальная политика.

Annotation: This study analyzes the issues of lifting the population of our country out of poverty and improving their living standards based on the concept of inclusive development. The research examines the impact of economic growth, working conditions, income increase, housing, and service sectors on well-being. Based on the analysis of national statistics and international sources, a significant reduction in poverty levels in recent years and improvements in real incomes and living conditions have been identified. The study results provide important recommendations for improving social policy and ensuring sustainable economic development.

Keywords: Poverty reduction, social well-being, inclusive development, economic growth, income increase, working conditions, housing issues, service sector, sustainable development, social policy.

KIRISH.

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan aholini kambag'allikda chiqarish maqsadida ko'plab chora-tadbirlar keng ko'lamli ravishda amalga oshirilmoqda hamda ushbu amaliyotlarni inklyuziv rivojlanish konsepsiyasi asosida amalga oshirish bir muncha samarali bo'lishi hamda natijaviy ko'rsatkichlarga erishish kutilmoqda.

Bu yo'nalishda mamlakatimizda kambag'allikka qarshi tizimli ishlar 2020 yildan boshlab jadal sur'atda amalga oshirildi. O'sha vaqtda aholining 23 foizi — ya'ni 7,5 million kishi — daromadi kambag'allik chegarasidan past bo'lgan. Biroq so'nggi yillarda ko'rilgan keng ko'lamli islohotlar va samarali choralar tufayli 3,5 million kishi bu holatdan chiqarildi. 2023 yil yakunida kambag'allik darajasi 11 foizgacha, 2024 yil yakuniga ko'ra, kambag'allik darajasi 11% dan 8.9% gacha pasaygan. Bu o'zgarish 2023 yilga nisbatan 719 ming kishining kambag'allik chegarasidan yuqoriga chiqishini anglatadi.. Ayniqsa, ish haqi ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi: 2020 yildan buyon oyligi 3 milliondan 5 million

so'mgacha bo'lgan ishchilar soni 2 barobar, 5 milliondan 7 million so'mgacha maosh oluvchilar soni esa 3 barobarga oshdi. Natijada, kambag'allik darajasi har yili o'rtacha 3 foizga qisqarib bormoqda¹. Bu esa olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

¹ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/50233-o-zbekiston-respublikasida-kambag-allik-darajasi>

Aholi turmush farovonligi va inklyuziv rivojlanish konsepsiyasi: Aholining turmush farovonligi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanganlik darajasi va iqtisodiy munosabatlarning sifatiga bevosita bog'liqdir. Ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlangan sari, aholining farovonligi tez va barqaror o'sadi. Biroq, farovonlik faqat iqtisodiy o'sish bilan emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning samaradorligi bilan ham belgilanadi.

Farovonlik tushunchasi aholining daromad darajasi, iste'mol imkoniyatlari, mehnat sharoitlari, ish va bo'sh vaqt muvozanati, turar joy sifati hamda turli xizmatlar bilan ta'minlanganligi orqali ifodalanadi. Ushbu ko'rsatkichlarni yaxshilash orqali aholi turmush darajasini oshirish mumkin. Farovonlikni oshirish yo'nalishlari ikki asosiy omilga bo'linadi:

1. Aholining real daromadlarini oshirish — iste'mol va jamg'arish imkoniyatlarini kengaytirish;
2. Turmush sharoitlari va farovonlikka ta'sir etuvchi boshqa omillarni yaxshilash.

Real daromadlarni oshirish uchun bir necha strategiyalar mavjud. Jumladan, mehnat unumdorligini oshirish, barqaror daromad manbalarini yaratish, narxlar barqarorligini ta'minlash hamda ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish muhimdir. Farovonlikni oshirishda iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar hajmini ko'paytirish ham alohida ahamiyatga ega. Bu esa raqobatbardosh va sifatli milliy bozorni rivojlantirishni talab qiladi. Agar ichki ishlab chiqarish iqtisodiy jihatdan samarali bo'lmasa, sifatli tashqi importni tashkil etish lozim.


Bundan tashqari, umumiy mehnat sharoitlarini yaxshilash — ish vaqtining maqbulligi, zamonaviy talablar asosidagi ish joylari va sog'lom dam olish imkoniyatlarini yaratish — turmush farovonligining oshishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, aholining turar joy sharoiti va uning real qiymati ham farovonlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Har bir oilaning sifatli, qulay va hamma kommunikatsiyalar bilan ta'minlangan uyga ega bo'lishi uning hayot sifatini belgilaydi.

Farovonlikni oshirishda xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish ham dolzarb ahamiyatga ega. An'anaviy xizmat turlari kamayib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya, moliya, tibbiyot, huquqiy xizmatlar va boshqa sohalarda xizmatlar hajmi ortmoqda. Shuningdek, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish uchun xizmatlarning kengayishi ham aholi farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Bir qator tadqiqotlar natijalariga ko'ra kambag'allikni kamaytirish va ijtimoiy farovonlikni oshirishda inklyuziv rivojlanish konsepsiyasiga asoslanish bir qancha samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Ravallion, Martin [9], Banerjee, Abhijit V. va Duflo, Esther[10] kabi xorijiy olimlar ijtimoiy siyosatda kambag'allikni kamaytirish uchun sog'liq, ta'lim, gender tengligi kabi omillarni



hisobga olish zarurligini asoslaydi hamda inklyuziv rivojlanish yo'lida samarali ijtimoiy siyosatni shakllantirishda tajriba asosidagi qarorlar muhimligini ko'rsatadi.

Mahalliy olimlardan Raximov T.S.[11], Karimov, A [4] hamda Yusupov R.X[12] tadqiqotlar uchun mahalliy kontekstda asosli nazariy va amaliy yondashuvlar beradi. Ilmiy va siyosiy qarorlar qabul qilishda mahalliy tajribaga tayanish hamda inklyuziv o'sishni ta'minlashda iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu tadqiqotda aholini kambag'allikdan chiqarish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha nazariy jihatlarini chuqur o'rganish uchun **adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish** metodologiyasi qo'llanildi bunda mavzuga doir milliy va xalqaro ilmiy manbalar, iqtisodiy nazariya va siyosat bo'yicha maqolalar, statistik ma'lumotlar va davlat dasturlari hujjatlari o'rganildi. Bu bosqichda mavjud yondashuvlar, kamchiliklar va taklif etilayotgan yangiliklar aniqlangan. Statistik tahlil metodologiyamizda **Statistik va kvantitativ tahlil** usulidan foydalanildi bunda Davlat statistika qo'mitasi va xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlari asosida kambag'allik darajasi, daromad taqsimoti va ijtimoiy himoya tizimi ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Ushbu tahlil iqtisodiy o'sish va kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga yordam berdi. Ma'lumotlarni tahlil qilish hamda taqqoslash uchun **komparativ tahlil** usulidan foydalanildi bunda turli hududlarda kambag'allikni kamaytirish bo'yicha qo'llanilayotgan usullar va dasturlar samaradorligi taqqoslandi. Bu esa eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash va takomillashtirish uchun asos bo'ldi.

NATIJA VA MUHOKAMA.

"Farovonlik ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanganlik darajasi va iqtisodiy munosabatlarning tavsifiga bevosita bog'liq. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanganlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, aholi farovonligi shunchalik tez yuksaladi.

Farovonlik mazkur jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosat samaradorligiga yanada ko'proq bog'liq."²

Aholining turmush farovonligi uning daromad darajasi, ushbu daromadlar orqali hayotiy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondira olish imkoniyati, mehnat sharoitlari va uning tavsifi, ish va bo'sh vaqtning o'zaro nisbati, yashash sharoiti hamda uy-joy narxi, shuningdek, turli xil maishiy va boshqa xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi orqali ifodalanadi.

Aholining real daromadlarini oshirish murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, bu boradagi choralar quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi: birinchidan, mehnat unumdorligini doimiy ravishda oshirishni rag'batlantirish; ikkinchidan, aholining barqaror pul va boshqa shakldagi daromad manbalarini shakllantirish; uchinchidan, mamlakatda narxlar barqarorligini ta'minlash; to'rtinchidan, samarali ijtimoiy himoya tizimi orqali turli pensiya va kompensatsiyalarni joriy etish kabilar kiradi.

Aholining iste'mol qilayotgan moddiy ne'matlar va xizmatlar hajmini ko'paytirish — turmush farovonligini oshirishda asosiy omillardan biridir. Buning uchun, avvalo, ushbu ne'matlar va xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash va ichki bozorning to'yinish darajasini oshirish zarur. Agar ushbu tovar va xizmatlarni mamlakat ichida ishlab chiqarish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lsa, u holda ularni tashqi bozorlardan qulay sharoitlarda olib kirish muhim hisoblanadi.


Yana bir muhim omil – bu umumiy mehnat sharoitlarining yaxshilanishidir. Ishchi kuchining malaka va ko'nikmalari mavjud ish o'rinlari talablariga mos kelishi, zamonaviy standartlarga javob beradigan ish muhitining yaratilishi aholi turmush darajasining oshishiga olib keladi.

² Quadagno J. Theories of the welfare state //Annual Review of Sociology. – 1987. – T. 13. – №. 1. – C. 109-128.

Ish vaqti va bo'sh vaqt o'rtasidagi muvozanat ham aholi farovonligining muhim ko'rsatkichidir. Ish vaqti davomida yetarli daromad topilishi bo'sh vaqt miqdorini belgilaydi. Bo'sh vaqt esa inson resurslarini tiklash, dam olish, madaniy va ma'naviy rivojlanish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish kabi maqsadlarga xizmat qiladi. Shu sababli, bo'sh vaqtdan samarali foydalanish imkoniyati farovonlikni belgilovchi omil hisoblanadi. Turmush farovonligini oshirishda uy-joy sharoitlari va ularning narxi ham muhim o'rin tutadi. Har bir oila o'z uyiga ega bo'lish huquqiga ega bo'lishi kerak. Bunda uy-joylarning zamonaviy talablarga mosligi, ya'ni barcha kommunikatsiyalar bilan ta'minlanganligi, qulay joylashuvi va yashash uchun sharoitlarining mavjudligi muhim sanaladi. Uy-joy narxi esa aholi real daromadlariga mutanosib bo'lishi kerak, aks holda bu farovonlik darajasiga salbiy ta'sir qiladi.

Shuningdek, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar sifati va qamrovi doimiy oshib borishi zarur. Bugungi kunda an'anaviy xizmatlar (chakana savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmatlar) salmog'i qisqarib, o'rnini zamonaviy xizmat turlari — axborot-kommunikatsiya, moliyaviy, tibbiy, huquqiy, transport va texnik xizmatlar egallamoqda. Ayniqsa, bo'sh vaqtini samarali tashkil etishga qaratilgan xizmatlar aholining turmush darajasini bevosita oshiradi. Bugungi kunda iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy mezonlari shunchalik dolzarbki, ular ko'plab davlatlarning siyosiy dasturlari va milliy iqtisodiy modellarida ajralmas qismga aylangan. Ijtimoiy davlat yoki umumiy farovonlik davlatining shakllanishi aynan ana shu omillar bilan bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, inson omili, bilim, axborot va ijtimoiy ishlab chiqarishdagi rolining kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

Yurtimizda huquqiy-demokratik davlat barpo etish jarayonida fuqarolik jamiyatining ajralmas bo'lagi — mahallaning tutgan o'rnini nihoyatda beqiyosdir. Mahalla — bu sharqona “demokratiya maktabi” bo'lib, hozirda mamlakatimizda 10 mingdan ortiq fuqarolar yig'inlari va o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat yuritmoqda. 2020 yilda kambag'allikka qarshi kurash bo'yicha maxsus hukumat agentligi tashkil etilganidan so'ng eng samarali siyosiy chora “Mahallabay” dasturining ishga tushirilishi bo'ldi. “Mahallabay” dasturi muhim tashabbus bo'lib, eng kichik ma'muriy birlik darajasida faoliyat yuritadi va har biri o'rtacha 3000-4000 kishi hamda 700-800 ta xonadondan iborat, jami taxminan 9,4 mingta mahallani qamrab oladi. Hukumat “Mahallabay” dasturi doirasida mas'ullar, jumladan “hokim yordamchilari”, “ayollar yordamchilari”, “yoshlar yordamchilari” va ijtimoiy xodimlar kabi yangi toifalarni joriy etdi.



2023 yilda yangi Konstitutsiyaning qabul qilinishi xalqning asosiy ijtimoiy huquqlarini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi. Yangi Konstitutsiyaga ko'ra, O'zbekiston o'zini “ijtimoiy davlat” deb qat'iy belgilab qo'ydi. Hukumat konstitutsiyaviy huquqlarda bayon etilgan barcha ijtimoiy ehtiyojlarni ta'minlash va qondirish uchun javobgardir, jumladan:

- adolatli ish haqi;

- qarilik, ishsizlik yoki boquvchi yo‘qotilishi bo‘yicha ijtimoiy ta‘minot;
- eng kam iste‘mol xarajatlariga mos keladigan pensiya va ijtimoiy yordam;
- kafolatlangan bepul tibbiy yordam;
- bepul umumiy va boshlang‘ich kasb-hunar ta‘limi hamda davlat ta‘lim muassasalarida tanlash yo‘li bilan davlat hisobidan oliy ma‘lumot olish imkoniyati.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish instituti — mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko‘lami kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o‘zaro yaqin munosabatlarini ta‘minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Keyingi yillardan boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o‘tkazish, O‘zbekistonda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning noyob shakli bo‘lgan mahalla tizimini shakllantirish masalasiga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, mahallalarda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish imkonini beruvchi quyidagi masalalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda: aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda mahallaning aniq yo‘naltirilgan faoliyatini belgilash; mahallani xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish sohasidagi vazifalarni aniq belgilash; mahallaning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirish.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, mahallalarning quyidagi yo‘nalishlardagi faoliyatini yanada jonlantirish zarur, deb hisoblaymiz.

1. Mahallalarda tadbirkorlikni kuchaytirish, xizmatlar va savdo sohasini rivojlantirish hamda kichik biznes orqali yangi ish o‘rinlari yaratish:

- mahallalar hududida xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni mikromoliyalashtirish uchun ijtimoiy investitsiyalar jamg‘armasini tashkil etish;
- mahalla aholisining tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun mamlakatimiz mintaqalarida kredit uyushmalari tarmoqlarini tashkil etish;
- mahallalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun tijorat banklarining kredit liniyalari hamda budjetdan tashqari jamg‘armalar hisobidan moliyaviy mablag‘lar ajratilishini kengaytirish;
- mahallalar hududida joylashgan ishlab chiqarish binolarida hunarmandchilik ustaxonalarini tashkil etish, xalq hunarmandchiligi bilan shug‘ullanish va aholiga turli xizmatlar ko‘rsatish uchun ijara shartnomalari asosida ajratish. Marketing va menejment masalalarida tadbirkorlarga uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish.

2. Mahalla ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish:

- Mahalla va korxonalar o‘rtasida o‘zaro aloqa va bir-birini qo‘llab-quvvatlash tizimini barcha hududlarda joriy etish;
- Korxona, tashkilot va muassasalar ishtirokida hamda ularning yordami bilan har bir mahallani obodonlashtirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Mahallalarda aholini tabiiy gaz va toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash darajasini oshirish;
- Idoraviy uy-joylarni mukammal ta‘mirlash hisobidan mahalla aholisi yashash sharoitlarini yaxshilash;
- Yakka tartibdagi uy-joylarda yashovchi fuqarolarning uy-joy kommunal xizmatlar haqini to‘liq to‘lashini ta‘minlash mexanizmini takomillashtirish;
- Foydalanilmayotgan noturar joy binolarining zarur qismini mahallalarning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish uchun o‘zini o‘zi boshqarish organlari ixtiyoriga berish.

3. Kam ta'minlangan oilalar ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish va yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash:

- Kam ta'minlangan va moddiy yordamga muhtoj oilalarga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam uchun korxona, muassasa va tashkilotlardan qo'shimcha mablag'lar jalb etish maqsadida, korxonalar daromadining soliq solinadigan bazasini mahallaga ko'rsatiladigan xayriya yordami miqdorida, biroq soliq solinadigan daromadning 1 foizidan oshmagan darajada kamaytirishni nazarda tutish;
- Mehnat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslarga nafaqa to'lanishini va ularning oilalariga moddiy yordam ko'rsatilishini ta'minlashda o'zaro hamkorligini kuchaytirish;
- Tijorat banklarining kreditlari va byudjetdan tashqari manbalar hisobidan kam ta'minlangan yosh oilalarga ssuda ajratish mexanizmini keng joriy etish;
- Boquvchisiz qolgan va kam ta'minlangan oilalarning bolalari, mehribonlik uylaridagi va maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tarbiyalanuvchilarga muruvvat yordamini jonlantirish;
- Kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar bolalarining sog'lomlashtirish oromgohlarida bepul yozgi dam olishlarini ta'minlash;
- Yordamga muhtoj yolg'iz va keksalar, nogironlarning kvartiralar, uylari va maishiy xonalarini ta'mirlash;
- Ishsiz fuqarolarni haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish orqali yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarning uylariga borib ijtimoiy yordam ko'rsatish bilan to'liq qamrab olishni ta'minlash;
- Yolg'iz keksalarning ijtimoiy-maishiy ehtiyojlari, salomatligi va moddiy ahvolini monitoring qilish, muammolarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga doir aniq choralar ishlab chiqish.

4. Mahallalar aholisi uchun tibbiy va sanatoriy-kurort xizmatlarini yaxshilash hamda bolalar sportini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar:

- Mahallada istiqomat qiluvchi barcha pensionerlar, nogironlar, jumladan nogiron bolalarni hamda yolg'iz keksalarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil etish;
- Oila, mahalla, sog'liqni saqlash organlari, ta'lim va boshqa muassasalar hamda jamoat tashkilotlari o'rtasida onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha bosqichma-bosqich hamkorlik tizimini joriy etish;
- Sog'lom turmush tarzi, uy-joy va ovqatlanish gigienasi, xojalik hamda maishiy chiqindilarni zararsizlantirish mavzusida bukletlar va plakatlar tayyorlab, ularni mahalla aholisi orasida tarqatish;
- Barcha muhtoj keksalar va nogironlarni protez-ortopediya buyumlari bilan ta'minlash;
- Barcha immobil, muhtoj, yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarning qo'l-oyoqlarini uy sharoitida protezlashi xizmatlarini ta'minlash;
- Keksalar va nogironlarning nogironlar aravachalari, qo'ltiq tayoq, qoshiq va eshitish apparatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish;
- Tuman markazlaridan uzoqdagi qishloq va ovullarda yashovchi keksalar, pensioner va nogironlarni tibbiy-ijtimoiy patronaj xizmatlari bilan qamrab olishni kengaytirish;
- Mahallalar hududida bolalar maydonchalarini tiklash va rekonstruksiya qilish;
- Mahallalar o'rtasida bolalarning dam olishini tashkil etish bo'yicha tanlovlar o'tkazish.

Yuqoriga biz mahalla institutlarining ahamiyati va ularning aholi farovonligidagi ro'lini ko'rib chiqdik ushbu institutlarni faoliyatini yanada kengashtirish hamda rivojlantirish maqsadida

inklyuziv rivojlanish konsepsiyasi bilan o‘zaro integratsiyasini amalga oshirishimiz zarur. **“Inklyuziv rivojlanish konsepsiyasining roli va ahamiyati”** Inklyuziv rivojlanish – bu iqtisodiy o‘shish jarayonida ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlarni ta‘minlashga yo‘naltirilgan yondashuvdir. U nafaqat mamlakatning umumiy farovonligini oshirish, balki har bir fuqaroning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda teng huquqlarga ega bo‘lishini ta‘minlashga qaratilgan. O‘zbekiston sharoitida inklyuziv rivojlanish konsepsiyasi mahallalarning mustahkamlanishi, kambag‘allikni kamaytirish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bilan bevosita bog‘liqdir. Mahalla instituti mamlakatimizda o‘ziga xos “demokratiya maktabi” bo‘lib, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish va mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirishda markaziy o‘rin tutadi. “Mahallabay” dasturi kabi davlat siyosatlari aholining eng kam daromadli qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash va ularning turmush darajasini oshirishda samarali mexanizmlarni yaratmoqda. Ushbu dastur orqali aholining iqtisodiy faol qatlamlarini jalb qilish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy yordam ko‘rsatish yo‘llari kengaytirilmoqda. Yangi Konstitutsiyaga ko‘ra, O‘zbekiston “ijtimoiy davlat” sifatida o‘z fuqarolarining asosiy ijtimoiy huquqlarini kafolatlaydi: adolatli ish haqi, ijtimoiy ta‘minot, bepul ta‘lim va tibbiy yordam, yoshlarni va kam ta‘minlangan guruhlarni qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlar inklyuziv rivojlanish siyosatining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv rivojlanish konsepsiyasi milliy iqtisodiyotning barqaror va tengqur o‘shishiga xizmat qiladigan ijtimoiy siyosat va boshqaruv tizimlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega. U nafaqat farovonlikni oshiradi, balki ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi va iqtisodiy o‘shish jarayonida inson kapitalining samaradorligini ta‘minlaydi.

XULOSA.

Ushbu tadqiqot mamlakatimizda kambag‘allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish masalalarini inklyuziv rivojlanish konsepsiyasi asosida atroflicha tahlil qildi. Tadqiqot davomida iqtisodiy o‘shish, mehnat sharoitlarining yaxshilanishi, daromadlarning oshishi, uy-joy sharoitlari va xizmat ko‘rsatish sohalarining farovonlikka ta‘siri batafsil o‘rganildi. Milliy statistika va xalqaro ma‘lumotlar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda kambag‘allik darajasi sezilarli darajada kamayib, aholining real daromadlari va turmush sharoitlari yaxshilangan. Bunday natijalar mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘shishi, mehnat bozorining rivojlanishi hamda ijtimoiy siyosatning samarali amalga oshirilishi bilan bog‘liqdir. Uy-joy va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi yaxshilanishlar, ayniqsa, kambag‘allikni kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, inklyuziv rivojlanish siyosati nafaqat iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantiradi, balki jamiyatning barcha qatlamlarini rivojlanish jarayoniga jalb qilish orqali ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta‘minlaydi. Kelgusida kambag‘allikni yanada samarali kamaytirish uchun daromadlarni oshirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, uy-joy muammolarini hal qilish va sifatli xizmat ko‘rsatishni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur. Shuningdek, ijtimoiy siyosatni yanada takomillashtirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash uchun davlat va nodavlat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish muhimdir. Tadqiqotda olingan tavsiyalar mamlakatimizda kambag‘allikni kamaytirish va aholi farovonligini oshirish yo‘lida muhim amaliy qadamlar bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Davlat statistika qo‘mitasi. (2023). O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari. Toshkent: Davstat.
2. Jahon banki. (2022). Global Economic Prospects. Washington, D.C.: World Bank Publications.

3. United Nations Development Programme (UNDP). (2021). Human Development Report 2021: Tackling Inequalities. New York: UNDP.
4. Karimov, A. (2022). Inklyuziv rivojlanish va uning iqtisodiyotga ta'siri. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
5. World Bank. (2023). Poverty and Shared Prosperity 2023. Washington, D.C.
6. Sobirov, M. (2021). Ijtimoiy siyosat va barqaror iqtisodiy rivojlanish. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
7. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO). (2022). Global Employment Trends. Geneva: ILO Publications.
8. Quadagno J. Theories of the welfare state //Annual Review of Sociology. – 1987. – T. 13. – №. 1. – C. 109-128
9. **Ravallion, Martin** — *The Economics of Poverty: History, Measurement, and Policy* (2016)
10. **Banerjee, Abhijit V. va Duflo, Esther** — *Poor Economics: A Radical Rethinking of the Way to Fight Global Poverty* (2011)
11. Raximov T.S. – “Kambag'allik va uni qisqartirish muammolari”
12. Yusupov R.X. – “Barqaror iqtisodiy o'sish va kambag'allikni kamaytirish yo'llari”

Umida Kakhramonova Gayratovna

Student at Tashkent State University of Economics

Faculty of Economic

kakhramonovaumida05@gmail.com

DIGITAL ECONOMY AND ITS ROLE IN ECONOMIC GROWTH

Умида Кахрамонова Гайратовна

Студентка Ташкентского государственного экономического

универсета Экономический факультет

kakhramonovaumida05@gmail.com

ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ЕЕ РОЛЬ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РОСТЕ

Umida Qahramonova G'ayratovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Iqtisodiyot fakulteti

kakhramonovaumida05@gmail.com

RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI

Abstract

This article examines the impact of the digital economy on modern economic growth. In recent years, digital technologies have developed rapidly and are being integrated into economic systems, causing fundamental changes in production efficiency, employment structures, and global trade relations. Traditional economic models are now being developed by its digital platforms, e-commerce, and digital financial services. The results of the study show that the contribution of these digital sectors to gross domestic product (GDP) growth is increasing significantly, especially in developing countries which are nowadays very essential. The widespread use of digital services, the expansion of the Internet, mobile applications, and electronic payment systems are now increasing economic activity in many sectors. At the same time, the digital economy is creating new jobs that is available for everyone and expanding access to international markets for small and medium-sized businesses. In conclusion, the digital economy has become an integral part of economic development, and it is emphasized about governments that can achieve sustainable economic growth by supporting its sector.

Keywords: Digital Economy, Economic Growth, E-commerce, Digital Finance, GDP, Technology

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние цифровой экономики на современный экономический рост. В последние годы цифровые технологии стремительно развиваются и интегрируются в экономические системы, вызывая фундаментальные изменения в эффективности производства, структурах занятости и глобальных торговых отношениях. Традиционные экономические модели в настоящее время развиваются ее цифровыми платформами, электронной коммерцией и цифровыми финансовыми услугами. Результаты исследования показывают, что вклад этих цифровых секторов в рост валового

внутреннего продукта (ВВП) значительно увеличивается, особенно в развивающихся странах, которые в настоящее время очень важны. Широкое использование цифровых услуг, расширение Интернета, мобильных приложений и электронных платежных систем в настоящее время увеличивают экономическую активность во многих секторах. В то же время цифровая экономика создает новые рабочие места, доступные для всех, и расширяет доступ к международным рынкам для малого и среднего бизнеса. В заключение следует отметить, что цифровая экономика стала неотъемлемой частью экономического развития, и подчеркивается, что правительства могут добиться устойчивого экономического роста, поддерживая свой сектор.

Ключевые слова: Цифровая экономика, экономический рост, электронная коммерция, цифровые финансы, ВВП, технологии

Annotatsiya:

Ushbu maqola raqamli iqtisodiyotning zamonaviy iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganadi. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, iqtisodiy tizimlarga integratsiya qilinmoqda, bu esa ishlab chiqarish samaradorligi, bandlik tuzilmalari va global savdo munosabatlarida tub o'zgarishlarga olib keldi. An'anaviy iqtisodiy modellar endi raqamli platformalar, elektron tijorat va raqamli moliyaviy xizmatlar tomonidan ishlab chiqilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu raqamli tarmoqlarning yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishiga qo'shgan hissasi, ayniqsa, bugungi kunda juda muhim bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda sezilarli darajada oshib bormoqda. Raqamli xizmatlarning keng qo'llanilishi, internet, mobil ilovalar va elektron to'lov tizimlarining kengayishi bugungi kunda ko'plab sohalarda iqtisodiy faollikni oshirmoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot hamma uchun mavjud bo'lgan yangi ish o'rinlarini yaratmoqda va kichik va o'rta biznes uchun xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismiga aylandi va uning sektorini qo'llab-quvvatlash orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erisha oladigan hukumatlar haqida alohida ta'kidlanadi.

Tayanch so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, elektron tijorat, raqamli moliya, YaIM, texnologiya

Introduction

In recent years, the rapid development of technology has had a significant impact on all aspects of human life that covers the economy. In particular, the introduction of digital technologies into everyday economic processes has led to the emergence of the concept of the "digital economy". The digital economy is a complex system that includes all economic activities that is carried out using digital technologies, especially the Internet. It has fundamentally changed the processes of production, supply and consumption of products and services that are being essential nowadays in terms of economics.

Today, the digital economy has become a key factor in economic growth, innovation and job creation that not only in developed countries, but also in developing countries. In countries such as Uzbekistan, digital transformation is one of the priorities of national economic policy. The main advantage of the digital economy is that it automates traditional economic activities based on modern technologies, reduces costs and increases efficiency. At the same time, the digital economy creates opportunities for the emergence of new markets, innovative products and services, as well as new business models [1].

In the early years, the digital economy existed only within IT companies and technology giants, but today it is actively used in almost all sectors, including industry, agriculture, transport, healthcare,

education and even public administration. This is leading to the development of the economy on a digital basis. Businesses are now widely using digital marketing, e-commerce, digital payment systems, artificial intelligence and cloud technologies.

This article is aimed at analyzing the contribution of the digital economy to economic growth. The main goal is to deeply analyze how the introduction of digital technologies affects the growth of gross domestic product (GDP), employment, innovative activity and competitiveness of countries. The article examines successful practices of the digital economy on the example of developed and developing countries, as well as existing problems and ways to overcome them.

In addition, the digital economy is accelerating global economic integration that is really essential for country. Today, companies have the opportunity to access global markets via the Internet, regardless of geographical boundaries. There are technologies such as e-commerce, remote work, cloud computing, artificial intelligence (AI), and big data analytics that are important components of the digital economy. These technologies are optimizing production processes by improving the quality of customer service, and that creates innovative products for production in terms of economy [2]

The digital economy is also creating new professions and industries. For example, there is an increasing demand for new jobs such as programmers, data analysts, digital marketing specialists, artificial intelligence engineers, and cybersecurity specialists. This also affects the education system and it requires the development of digital skills to be more aware of everything that happens to our country development and wellnesses.

The digital economy also offers new opportunities for countries to address socio-economic equality issues. For example, people living in remote areas are also gaining access to education, healthcare, or financial services through online services and its affordability. However, there are also problems such as underdeveloped digital infrastructure, low digital literacy, and technological inequality, and addressing these needs to be an important area of state policy of the population, any country can achieve sustainable economic development. Therefore, it is of great importance to study this topic in depth and come to scientifically based conclusions.

Methodology

This scientific article uses a qualitative research approach to study the impact of the digital economy on economic growth. Through a qualitative approach, an analysis was carried out based on available scientific sources, international economic reports, articles on the digital economy, and statistical data. The main goal was to assess the contribution of digital economic activities and technological development to the gross domestic product (GDP) of countries and to identify the main directions of digital transformation [3]. The study used several reliable sources, including statistical data published by the World Bank, the United Nations, the International Monetary Fund (IMF), the McKinsey Global Institute, the OECD, and other international organizations. The relationship with economic growth was studied based on indicators provided in these sources, including the level of digital infrastructure, internet usage, digital payments, e-commerce growth, and the impact on employment.

Literature Review

Many scientific studies conducted in recent years emphasize about digital economy that has a significant positive impact on the economic development of countries. According to a report that is published by the OECD (2020), digital transformation helps to ensure inclusive growth, as it facilitates access to global markets for small businesses and new entrepreneurs [4]. This creates the basic notion for an equitable distribution of economic opportunities and address challenges. Another

study that is an analysis conducted by the World Bank (2021) and it focuses on the role of the digital financial system in increasing financial inclusion. Through this, even the poorest and most remote segments of the population are gaining access to banking services and facilities. For example, mobile applications and electronic payment systems are providing a wide range of people to use financial services. At the same time, there are also significant obstacles to the development of the digital economy. In particular, the “digital divide” - that is, the segments of the population that do not have access to digital technologies are unable to use the opportunities of the digital economy. In addition, cybersecurity threats remain a pressing problem. Theft of confidential information, fraud and attacks on digital systems negatively affect many organizations and users [5].

Results and Discussion

The analysis of this study shows that countries that have implemented high-level digital technologies have a significant advantage over other countries in terms of economic growth and stability. In particular, countries that have invested in digital infrastructure (e.g., broadband Internet, mobile networks, digital payment systems) have achieved a significant increase in gross domestic product (GDP), the creation of new jobs facilities, and improved economic efficiency towards development of a country. There are various examples including Estonia, South Korea, Singapore, and the Netherlands. These countries have actively pursued digital state policies and widely implemented technological solutions in public administration and the private sector. This has increased their economic competitiveness and helped to attract large amounts of foreign investment [6]. This research analysis shows that countries that have implemented high-level digital technologies have a significant advantage affects over other countries in terms of economic growth and stability. In particular, countries that invested in digital infrastructure have achieved a significant increase in gross domestic product (GDP), the creation of new jobs, and increased economic efficiency. Countries such as Estonia, South Korea, Singapore, and the Netherlands are vivid examples of this. These countries have actively implemented digital state policies and widely introduced modern technological solutions into the activities of public administration and the private sector. As a result, they have not only increased their economic competitiveness, but also actively attracted foreign investment.




Figure 1: OECD (2020)

The chart above shows the percentage of the digital economy in gross domestic product (GDP) in some developed countries. According to the analysis of the graph, South Korea leads in the share of the digital economy — this indicator is 10% of the country's GDP. This is explained by the attention paid to the development of South Korea's advanced technological infrastructure, broadband Internet networks and the IT sector. Estonia and Singapore also have high indicators, with indicators of 8.5% and 9.2%, respectively. While Estonia has digitized many government services through the e-Government model, Singapore is actively supporting digital finance and digital trade infrastructure. In the Netherlands, this indicator is 8.1%, which is also among the high results. Here, e-commerce and digital logistics systems are especially developed. The average indicator of OECD countries in the diagram is 6.3%, which looks slightly lower against the background of the advanced countries listed above [7]. Countries that are above this average value are distinguished by the fact that they have attracted more investment in the digital economy and have effectively implemented digital strategies. In general, it can be concluded from the graph that countries that have paid more attention to the digital economy are economically competitive and are developing faster in innovative sectors. These experiences are also important for Uzbekistan, and through the development of digital technologies it is possible to increase GDP and achieve economic stability.




Figure 2: International Telecommunication Union (ITU)

The column chart that is titled "Internet penetration rate by region (%)" allows us to compare the rates of Internet access in different regions of the world. This graph clearly shows the existence of a global digital divide: while North America and Europe are leading, Africa and South Asia are demonstrating far behind. Internet access determines not only technological development, but also economic growth, education and health opportunities. According to the graph, North America leads the way with an internet penetration rate of 89%. This indicator is explained by the development of infrastructure, the relative affordability of services and the effectiveness of digital policies. Next in line is Europe with an indicator of 85% [8]. The digital market and technological integration supported by the European Union are the basis for this. Central Asia (72%) and East Asia (76%) have moderately high levels of connectivity. In these regions, there are countries such as China and

Kazakhstan have invested heavily in internet infrastructure. However, there shows disparities that remain between urban and rural areas, and between high and low-income groups in the figure above. The internet penetration rate in Africa is only 43%, the lowest in the region. This is due to the lack of infrastructure, high costs of internet services, intermittent electricity supply and low levels of digital literacy. In South Asia, this is a rate is around 55%, and significant progress is still needed. Although countries such as India have implemented large-scale programmes such as “Digital India”, access to the internet remains limited for rural and socially disadvantaged populations.

This gap is called the “digital divide.” It includes not only internet access, but also the skills, equipment, affordability, and ability to use digital technologies effectively in terms of economics. A country’s level of digital connectivity directly determines its active participation and consideration in the digital economy. For example, countries with higher levels of access have greater access to e-commerce, online education, digital health, and remote work. This gap has major social and economic consequences. Areas with lower internet access are excluded from the benefits of the digital economy—leading to increased poverty, educational inequality, and slower innovation growth [9].

This graph should serve as a clear signal for countries: investing in digital infrastructure, reducing the cost of services and increasing digital literacy of the population is an urgent task. Programs targeting women, youth and people in remote areas play a particularly important role. In partnership with international organizations such as the World Bank and the International Telecommunication Union (ITU), there are such countries that can further expand internet services and achieve digital equality. By reducing the digital divide, the digital economy has a key factor in achieving the UN Sustainable Development Goals, especially Goal 4 (Quality Education), Goal 9 (Industry, Innovation and Infrastructure) and Goal 10 (Reduced Inequalities).

Sector	2020 Usage (%)	2023 Usage (%)	Growth Rate (%)
E-commerce	48%	68%	+20%
Online Banking	56%	74%	+18%
E-learning Platforms	35%	62%	+27%
Telemedicine	22%	49%	+27%
Cloud Services	40%	63%	23%

Figure 3:

The table below shows a significant increase in the use of digital services between 2020 and 2023. This analysis highlights the growing role of the digital economy globally, how it affects economic growth, and which sectors are in high demand for digital services. First, e-commerce (electronic commerce) has grown from 48% in 2020 to 68% in 2023. This growth of 20% reflects the shift of consumers from traditional sales channels to online shopping in the post-pandemic era. Shopping through e-commerce has not only provided convenience, but also provided an opportunity to connect with global markets. This has allowed small and medium-sized enterprises (SMEs) to build a new customer base [10].

In second place, online banking grew from 56% to 74%. This represents a positive change of 18%. The popularity of digital financial services has reduced the need to visit bank branches, improved security systems and made payments faster. This process has increased the level of financial inclusion and provided banking services to a wider segment of the population. The use of e-learning

platforms has increased from 35% to 62%, an increase of 27%. This change confirms the powerful impact of digital technologies, especially in the education sector. Online lessons, courses and certification opportunities have opened new doors not only for students, but also for those who want to learn throughout their lives.

Great progress has also been made in the field of telemedicine. The figure, which was shown at 22% in 2020, has reached at 49% by 2023. This has been particularly useful in providing skilled medical services remotely to people living in rural areas. Telemedicine has taken on an important role in the healthcare system since the pandemic.

The last sector — cloud services — also achieved significant growth. There was a positive change of 23%, increasing from 40% to 63%. These services have become useful for businesses in storing and analyzing information, as well as reducing technical costs. In general, this analysis shows that the demand for digital services is increasing year by year. This once again proves the need to develop digital infrastructure, ensure information security and increase digital literacy. On this basis, countries can set the digital economy as a strategic direction and move towards sustainable growth.

Conclusion

The digital economy is no longer just a sector, but a transformative force that has a powerful impact on the entire global economy. The economic development of countries is now closely linked to how effectively they adopt and integrate digital technologies. Therefore, governments and businesses need to pay serious attention to digital infrastructure, education systems, and modern regulatory frameworks. This will not only increase economic efficiency, but also strengthen global competitiveness. In short, future sustainable economic growth will depend on the level of full and rational implementation of digital technologies. However, to fully exploit the potential of the digital economy, a number of important conditions are necessary: a stable internet network, increasing the digital literacy of the population, reducing technological inequality, and ensuring information security. Developing countries in particular need to demonstrate strong political will and investment activity in this regard. The economy of the future is a digital economy. Those who actively implement digital solutions today will achieve innovative development and sustainable growth tomorrow. Therefore, every country must recognize digital transformation as a priority.

Reference

- 1.OECD. (2020). *OECD Digital Economy Outlook 2020*. OECD Publishing.
- 2.World Bank. (2021). *Digital Financial Services*. Washington, DC: World Bank.
- 3.UNCTAD. (2022). *E-Commerce and Development Report 2022*. United Nations Conference on Trade and Development.
- 4.McKinsey Global Institute. (2021). *The Digital Future of Work: Reshaping Jobs and the Economy*.
- 5.International Telecommunication Union (ITU). (2023). *Measuring Digital Development: Facts and Figures 2023*.
- 6.IMF. (2021). *The Role of Digitalization in the Post-Pandemic Recovery*. International Monetary Fund.
- 7.World Economic Forum. (2022). *Digital Transformation: Powering the Great Reset*.
- 8.European Commission. (2022). *Digital Economy and Society Index (DESI) 2022*.
- 9.Accenture. (2021). *Digital Investment and Economic Growth: The Impact of Tech Infrastructure*. Accenture Strategy Reports.
- 10.Asian Development Bank. (2021). *Harnessing Digital Technology for Inclusive Growth*.

URINOV BOBUR NASILLOYEVICH

Innovatsion menejment kafedrası mudiri

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

b.urinov@tsue.uz

**YAXSHI KORPORATIV BOSHQARUV VA KORPORATIV IJTIMOY MAS'ULIYAT
STRATEGIYALARINI BIRLASHTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISH
MAQSADLARIGA ERISHISH**

УРИНОВ БОБУР НАСИЛЛОЕВИЧ

Заведующий кафедрой Инновационного менеджмента

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

b.urinov@tsue.uz

**ИНТЕГРАЦИЯ СТРАТЕГИЙ ХОРОШЕГО KORPORATИВНОГО
УПРАВЛЕНИЯ И KORPORATИВНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ДЛЯ
ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ**

URINOV BOBUR NASILLOYEVICH

Head of Innovative management department

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOCMIS

b.urinov@tsue.uz

**INTEGRATING GOOD CORPORATE GOVERNANCE AND CORPORATE
SOCIAL RESPONSIBILITY STRATEGIES TO ADVANCE THE SUSTAINABLE
DEVELOPMENT GOALS**

Annotatsiya

Ushbu maqola Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga (BRM) moslashtirilgan yaxshi korporativ boshqaruv (YKB) amaliyotlarini korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) strategiyalari bilan integratsiyalash uchun innovatsion modelni taklif etadi va asoslaydi. O'zbekiston misolida olib borilgan tadqiqotda, aholining KIMga yondashuvi hali ham zaif darajada bo'lib qolayotgani ta'kidlanadi. Shu munosabat bilan, boshqaruv tuzilmalari va BRMga yo'naltirilgan ta'sirni baholash uchun KIM Strategik Reyting Indeksini (KIMSRI) konsepsiyasi taklif etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, strategik va BRMga bog'langan KIM tashabbuslarini amalga oshirayotgan kompaniyalar investorlar ishonchi va kompaniya qiymatining (Tobin Q) oshishi bilan ajralib turadi. Natijalar rivojlanayotgan mamlakatlardagi kompaniyalari uchun legitimlik, obro' va barqaror samaradorlikni kuchaytirishga xizmat qiluvchi boshqaruv yo'nalishlarini taklif etadi.

Tayanch so'zlar: Korporativ ijtimoiy mas'uliyat, Yaxshi korporativ boshqaruv, Barqaror rivojlanish maqsadlari, ESG, O'zbekiston, KIM strategiyasi, BRM integratsiyasi, Tobin Q, Umumiy qiymat yaratish (CSV).

Аннотация

В статье представлена и теоретически обоснована инновационная концептуальная модель интеграции практик хорошего корпоративного управления (ХКУ) со стратегиями корпоративной социальной ответственности (КСО), соответствующими Целям устойчивого

развития (ЦУР). На примере Узбекистана показано, что восприятие КСО среди населения и корпоративных стейкхолдеров остается недостаточно сформированным. В качестве инструмента оценки управленческих структур и их стратегической направленности на достижение ЦУР предложен концепт Стратегического рейтингового индекса КСО (СРИКСО). Результаты эмпирического анализа показывают, что компании, реализующие КСО-подходы, прямо интегрированные с ЦУР, демонстрируют более высокий уровень доверия со стороны инвесторов, а также рост рыночной стоимости, измеряемой через коэффициент Тобина (Tobin's Q). Выводы исследования содержат практические рекомендации для совершенствования корпоративного управления в развивающихся странах с целью повышения институциональной легитимности, укрепления репутации и устойчивого создания корпоративной ценности.

Ключевые слова: Корпоративная социальная ответственность (КСО), Хорошее корпоративное управление (ХКУ), Цели устойчивого развития (ЦУР), ESG-индикаторы, Узбекистан, Стратегический индекс КСО, Интеграция ЦУР, Коэффициент Тобина Q, Совместное создание ценности (CSV).

Abstract

This study introduces and theoretically substantiates an innovative framework for the integration of Good Corporate Governance (GCG) practices with Corporate Social Responsibility (CSR) strategies, aligned with Sustainable Development Goals (SDGs). Using Uzbekistan as a contextual case, the analysis reveals that public engagement and understanding of CSR remain underdeveloped. To address this gap, the research proposes the concept of a Corporate Social Responsibility Strategic Rating Index (CSRSRI), designed to evaluate the governance architecture and its strategic alignment with SDG-oriented impacts. Empirical findings demonstrate that companies implementing CSR initiatives linked explicitly to the SDGs tend to exhibit higher levels of investor confidence and enhanced firm valuation, as measured by Tobin's Q. The outcomes offer practical implications for governance reforms in developing economies, providing a pathway for strengthening institutional legitimacy, corporate reputation, and sustainable value creation.

Keywords: Corporate Social Responsibility (CSR), Good Corporate Governance (GCG), Sustainable Development Goals (SDGs), ESG Indicators, Uzbekistan, CSR Strategic Index, SDG Integration, Tobin's Q, Creating Shared Value (CSV).

Kirish

So‘nggi yillarda korporativ barqarorlik tamoyillarini biznes-modellarga integratsiyalash obro‘ orttirish vositasidan global zaruratga aylangan. Dunyo hozirda iqlim o‘zgarishi, ijtimoiy tengsizlik, gender tafovuti va barqaror bo‘lmagan iste‘mol kabi jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Bu muammolar davlat va xususiy sektor tomonidan uyg‘unlashtirilgan yondashuvni talab qiladi. Davlatlar BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) bilan milliy kun tartibini muvofiqlashtirar ekan, kompaniyalardan endi faqat foyda olish emas, balki jamiyatga faol hissa qo‘shish kutilmoqda.

Hozirgi global muhitda kompaniyalarga nisbatan foyda maksimallashtirishdan tashqari, ijtimoiy va ekologik mas‘uliyatlarni ham o‘z zimmasiga olish talabi kuchaygan. BMTning Global Compact BRM Hisobotiga (2023) ko‘ra, yirik transmilliy korporatsiyalarning 82% dan ortig‘i BRMga tegishli KPI'larni o‘z strategiyalariga kiritgan. ESG (Ekologik, Ijtimoiy, Boshqaruv) hisobot standartlari 50 dan ortiq fond birjalari tomonidan, jumladan Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va Lotin Amerikasi davlatlarida joriy etilgan. Yirik investorlar – BlackRock, Vanguard, Norvegiya Pensiya fondi – trillionlab dollar mablag‘ni ESG va KIM faoliyatlari yuqori bo‘lgan kompaniyalarga

yo‘naltirmoqda. Global Barqaror Investitsiyalar Alyansi (GSIA) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda barqaror investitsiyalar hajmi 35 trillion AQSH dollaridan oshib, barcha professional boshqariladigan aktivlarning 36% ini tashkil qilgan.

Xalqaro miqyosda Porter va Kramer (2011) tomonidan ilgari surilgan Umumiy Qiymat Yaratish (CSV) konsepsiyasi korporativ foyda maqsadlarini ijtimoiy va ekologik natijalar bilan uyg‘unlashtirish uchun asosiy yondashuvga aylandi. Unilever, Danone, Nestlé singari kompaniyalar global barqarorlik maqsadlari bilan uyg‘unlashtirilgan strategik KIM tashabbuslari orqali brend obro‘si, bozor ulushi va aksiyalar qiymatini bir vaqtning o‘zida oshirganini namoyon etmoqda. Harvard Business Review (2022) ma‘lumotlariga ko‘ra, ijtimoiy mas‘uliyatli kompaniyalar, o‘rtacha, bozor kapitallashuvida 10–15% yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan.

Ushbu global o‘zgarishlar fonida O‘zbekiston muhim burilish nuqtasida turibdi. Mamlakat iqtisodiy liberallashtirishni kuchaytirar, fond bozor infratuzilmasini rivojlantirar va 2030 yilga mo‘ljallangan “Yashil Iqtisodiyotga O‘tish Strategiyasi”ni tatbiq etar ekan, KIM va yaxshi boshqaruv tamoyillarini institutsional asosda joriy etish dolzarb masalaga aylanmoqda. Biroq, Moliya vazirligining (2023) ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarining 70% dan ortig‘ida hali ham rasmiy KIM strategiyalari mavjud emas. Amaldagi faoliyatlar ko‘pincha epizodik xayriyalar va homiylik shaklida bo‘lib, BRM majburiyatlari yoki uzoq muddatli qiymat yaratish bilan bog‘liq emas.

Bu holat bir vaqtning o‘zida muammo ham, imkoniyat hamdir. Yaxshi korporativ boshqaruvni BRM bilan uyg‘unlashtirilgan KIM strategiyalari bilan birlashtirish orqali o‘zbek kompaniyalari sarmoyadorlar uchun jozibadorligini oshirishi, manfaatdor tomonlar bilan aloqalarni kuchaytirishi va milliy taraqqiyot maqsadlariga amaliy hissa qo‘shishi mumkin. Ayniqsa, qo‘shni Qozog‘iston va Gruziyada ommaviy kompaniyalar uchun ESG hisobotlari majburiy bo‘lib qolgan bir paytda, bu yondashuv kompaniyalarni mintaqaviy bozorda raqobatbardosh qilish imkonini beradi.

Shu sababli, ushbu maqolaning asosiy maqsadi — yaxshi boshqaruv tamoyillari va BRM asosidagi strategik KIM integratsiyasi modelini taklif qilish orqali mavjud tafovutni bartaraf etishdan iborat. Bu yondashuv nafaqat o‘z vaqtida, balki O‘zbekistonning yangi paydo bo‘layotgan iqtisodiyotida barqaror korporativ transformatsiya, sarmoyadorlar ishonchi va obro‘ kapitalini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Korporativ ijtimoiy mas‘uliyat (KIM) va yaxshi korporativ boshqaruv (YKB) o‘zaro kesishgan jihatlari global barqarorlik munozaralarida asosiy mavzulardan biriga aylangan. Ayniqsa, 2030 yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish kun tartibini ilgari surishda xususiy sektor muhim haydovchi kuch sifatida qaralmoqda. Akademik va siyosiy adabiyotlar kompaniyalar jamiyat va ekologik tizimlardan ajralgan holda faoliyat yuritmasligi, balki ularning tubida faoliyat olib borishi va strategik qarorlarining rivojlanish natijalariga uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi.

An’anaviy yondashuvda KIM korporativ xayriya — ya’ni homiylik, sovg‘alar, vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladigan ijtimoiy loyihalar bilan bog‘langan edi. Biroq, so‘nggi yillarda ushbu tor yondashuv tanqid ostiga olinmoqda va tadqiqotlar KIMni kompaniyaning qiymat yaratish tizimining ichki elementi sifatida ko‘rishni taklif qilmoqda. Karrollning KIM piramidasi (1991) va Yevropa Komissiyasining (2011) izohlari asosida KIM — bu iqtisodiy, huquqiy, axloqiy va ixtiyoriy majburiyatlar majmuasidir va ular bevosita biznes faoliyatiga integratsiyalashgan bo‘lishi kerak.

KIMning reaktiv modeldan strategik yondashuvga o‘tishi Porter va Kramer (2011) tomonidan taklif etilgan Umumiy qiymat yaratish (CSV) konsepsiyasida eng yaqqol namoyon bo‘ladi. CSV yondashuvi shuni ta’kidlaydiki, kompaniyalar ijtimoiy investitsiyalar tufayli emas, aynan shu

investitsiyalar orqali uzoq muddatli foydalilikka erishadilar. Empirik tadqiqotlar Nestlé, Unilever, Danone kabi CSV yondashuviga asoslangan kompaniyalar raqobat ustunligi, mijozlar sadoqati va uzoq muddatli daromadlar nuqtai nazaridan sezilarli natijalarga erishganini ko'rsatmoqda.

ESG (Ekologik, Ijtimoiy, Boshqaruv) yondashuvlarining paydo bo'lishi ayniqsa ommaviy kompaniyalar orasida KIMni institutsionallashtirishga xizmat qildi. ESG indikatorlari kompaniyaning ekologik izlari, ijtimoiy ta'siri va boshqaruv sifati darajasini o'lchaydi — ya'ni kompaniyaning jamiyatga qo'shgan hissasi va institutsional yetukligini raqamli ko'rsatkichlar orqali ifodalaydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mas'uliyati bo'lgan Investitsiyalar tamoyillari (UNPRI) va Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy axborot bo'yicha ishchi guruhi (TCFD) global miqyosda ESG mezonlarini standartlashtirishda muhim rol o'ynadi.

Empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ESG ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan kompaniyalar moliyaviy inqirozlarda bardoshlilik yuqori, kapital jalb qilish xarajatlari past va uzoq muddatli qiymatlash bo'yicha raqobatchilaridan ustun turadi. Masalan, Bloomberg ESG tahlili (2023) yuqori ESG ko'rsatkichlariga ega kompaniyalar pastki kvintilga kiruvchi kompaniyalarga qaraganda 26% yuqori o'rtacha bozor kapitallashuviga ega ekanligini aniqlagan. Sustainalytics (2023) ma'lumotlariga ko'ra, 90% dan ortiq institutsional investorlar ESG risk ko'rsatkichlarini investitsiya portfellarini shakllantirishda hisobga oladi.

Bu natijalar ESG hisobotlarini shunchaki shaffoflik vositasi emas, balki boshqaruv vositasi sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi. ESG hisobotlari kompaniyaning hisobdorligi, manfaatdor tomonlarga munosabati va axloqiy yo'nalishini ifoda etadi.

Freeman tomonidan ishlab chiqilgan manfaatdor tomonlar nazariyasi (1984) KIMni boshqaruvga integratsiyalashning muhim nazariy asosini taqdim etadi. Bu nazariya kompaniyalar nafaqat aksiyadorlar, balki kengroq manfaatdor tomonlar — xodimlar, mijozlar, yetkazib beruvchilar, mahalliy jamoalar va kelajak avlodlar oldida ham majburiyatlarga ega ekanligini ta'kidlaydi. Bu yondashuvga ko'ra, inklyuziv qaror qabul qilish va manfaatdor tomonlar bilan mazmunli muloqotlar axloqiy majburiyat emas, balki strategik zaruratdir.

So'nggi yillarda bu yondashuv hatto an'anaviy moliyaviy institutlar orasida ham keng tarqalmoqda. Masalan, AQSHning yirik kompaniyalari rahbarlari ishtirokidagi "Business Roundtable" (2019) korporatsiyalar maqsadini faqat aksiyadorlar foydasiga emas, balki barcha manfaatdor tomonlar foydasiga xizmat qilish deb qayta belgilagan. Yevropada esa "Korporativ barqarorlik hisobotlari bo'yicha direktiva" (CSRD) kompaniyalarni manfaatdor tomonlar bilan aloqalar va barqarorlik risklarini yoritishni majburiy qiladi — bu esa manfaatdor tomonlar boshqaruvi sari aniq huquqiy siljishni anglatadi.

So'nggi yillarda ko'plab tarmoqlararo tadqiqotlar korporativ boshqaruv, KIM va BRM o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni o'rganmoqda. BRM — bu biznes strategiyalarini global rivojlanish ustuvorliklari bilan uyg'unlashtirish uchun universal yo'l xaritasini taklif qiladi. Bu ustuvor yo'nalishlarga sifatli ta'lim (BRM 4), gender tengligi (BRM 5), munosib mehnat (BRM 8), mas'uliyatli iste'mol (BRM 12) va iqlim bo'yicha chora-tadbirlar (BRM 13) kiradi.

BMTning Global Compact tashkiloti (2023) ma'lumotlariga ko'ra, yirik transmilliy kompaniyalarning 80% dan ortig'i hech bo'lmaganda bitta BRM bo'yicha hisobot tayyorlaydi va ko'pchilik hukumatlar yoki NNTlar bilan strategik sherikliklar tuzib, ta'sir doirasini kengaytirmoqda. Jahon Iqtisodiy Forumi (2022) ma'lumotlariga ko'ra, BRMga uyg'unlashtirilgan korporativ maqsadlarga ega kompaniyalar obro'sini, risklarni boshqarish salohiyatini va innovatsion imkoniyatlarini kuchaytirgan.

Biroq, rivojlanayotgan bozorlar kontekstida bunday integratsiya parokanda va tizimsiz ko'rinishda qolmoqda. OECD (2023) tadqiqotiga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda BRMdan xabardorlik ortib borayotgan bo'lsa-da, amalda ularni amalga oshirish sustligi boshqaruv tuzilmalarining zaifligi, hisobot berish imkoniyatlarining yetishmasligi va normativ rag'batlantirishning yo'qligi bilan izohlanadi. Shu sababli KIM, boshqaruv va BRMni uyg'unlashtirish nafaqat nazariy zarurat, balki amaliy innovatsiyadir.

O'zbekiston BRMni milliy siyosat darajasida qabul qilgan bo'lsa-da (xususan, "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi, 2023–2030"), kompaniyalar darajasida bu maqsadlarga nisbatan e'tibor sustligicha qolmoqda. Moliya vazirligining Monitoring Hisobotiga (2023) ko'ra:

- 70% dan ortiq ro'yxatga olingan kompaniyalarda rasmiy KIM strategiyalari mavjud emas;

- Faqat 20% kompaniyalar barqarorlik yoki ESG hisobotlarini tayyorlaydi;
- KIM faoliyati boshqaruv tizimlari yoki strategik hujjatlar bilan bog'lanmagan.

Bu tafovutdan xulosa qilish mumkinki, parokanda ezgulik harakatlaridan milliy va xalqaro BRM kun tartibiga uyg'unlashtirilgan integratsiyalashgan boshqaruv modeliga o'tish zarur. Ushbu maqolada taklif etilgan KIM Strategik Reyting Indeksi (KIMSRI) ana shu tafovutga javoban ishlab chiqilgan bo'lib, BRMga yo'naltirilgan KIM faoliyatini baholash va rag'batlantirish bo'yicha tizimli metodologiyani taklif etadi.

Tadqiqot metodologiya

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) strategiyalari, barqaror rivojlanish integratsiyasi va kapital qiymati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni baholash uchun miqdoriy-analitik yondashuv normativ taqqoslash bilan birgalikda qo'llaniladi. Metodologiya global ilg'or amaliyotlar va mahalliy institutsional realiyalar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, kontekstual moslik va xalqaro qiyosiylikni ta'minlaydi.

Tadqiqot quyidagi uch asosiy nazariy yondashuvga tayangan:

- Umumiy qiymat yaratish (CSV) – biznesning iqtisodiy maqsadlarga erishish bilan birga jamiyatga foyda yetkazishdagi roli (Porter & Kramer, 2011);
- Manfaatdor tomonlar nazariyasi – inklyuziv boshqaruv va uzoq muddatli ishonchni shakllantirish zarurligi (Freeman, 1984);
- ESG integratsiyasi modellari – shaffoflik va hisobdorlikni barqarorlikka yo'naltirilgan korporativ boshqaruvning ajralmas o'lchovlari sifatida talqin qilish.

Ushbu nazariyalar boshqaruv tuzilmasi va KIM strategiyasiga birgalikda e'tibor qaratishni oqlaydi hamda KIM Strategik Reyting Indeksi (KIMSRI)ni ishlab chiqish uchun kontseptual asos yaratadi.

Yaxshi korporativ boshqaruv va BMT Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) bilan qanday darajada integratsiya qilinganligini baholash uchun KIMSRI – sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan ko'p o'lchovli indeks ishlab chiqildi. KIMSRI kompaniyaning KIM strategiyasining yetukligi, strategik mosligi va ta'sir yo'nalishlarini aks ettiradi.

Indeks quyidagi to'rtta asosiy o'lchov asosida tuzilgan:

O'lchov	Tavsif	Baholash diapazoni
1. Strategik KIM hujjatining mavjudligi	Rasmiy, direktorlar kengashi tomonidan tasdiqlangan KIM yoki ESG strategiyasi mavjudligi	0–10
2. BRM loyihalari bilan	BRMga bog'langan KIM tashabbuslari soni, ahamiyati	0–40

integratsiya	va ko'lam	
3. ESG/KIM hisobotlari amaliyoti	Nomoliyaviy axborotlarning mavjudligi, chastotasi va shaffofligi	0–30
4. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik	Ichki/tashqi manfaatdor tomonlarning rejalashtirish, fikr almashish va ta'sirni baham ko'rishdagi ishtiroki	0–20

KIMSRI maksimal bali = 100 ball

O'zbekistonning milliy taraqqiyot konteksti va xalqaro ustuvorliklardan kelib chiqib quyidagi BRMLar ustuvor deb belgilandi:

- BRM 5 – Gender tengligi
- BRM 8 – Munosib mehnat va iqtisodiy o'sish
- BRM 12 – Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish
- BRM 13 – Iqlim bo'yicha chora-tadbirlar
- BRM 16/17 – Tinchlik, adolat, institutlar va hamkorlik

Model O'zbekistonning strategik sohalari o'ld 10 ta aksiyadorlik jamiyatini tanlab olingan namunaviy guruhga tatbiq etildi:

Sektor	Misol kompaniyalar
Moliyaviy xizmatlar	Agrobank, Kapitalbank
Ishlab chiqarish/FMCG	UzAuto Motors, Coca-Cola Uzbekistan
Energetika	Lukoil Uzbekistan
Telekommunikatsiya	Uztelecom, Ucell
Sanoat/Logistika	O'zbekneftgaz, O'zbektemiryo'l, Artel Group

Tanlab olish mezonlari:

- Ommaviy ro'yxatdan o'tgan yoki davlat ulushi mavjudligi;
- 2020–2023 yillar uchun yillik moliyaviy hisobotlar mavjudligi;
- Kamida bitta hujjatlashtirilgan KIM faoliyatining mavjudligi;
- Tarmoqlararo umumlashtirish uchun sektor bo'yicha diversifikatsiya.

Asosiy ma'lumot manbalari:

- Kompaniyalar veb-saytlari va KIM/ESG hisobotlari;
- Moliyaviy yillik hisob-kitoblar (audit qilingan);
- Moliya vazirligining ochiq ma'lumotlar registri;
- Kapital Bozorini Rivojlantirish Agentligi (CMDA)ning barqarorlik paneli;
- Manfaatdor tomonlar bilan aloqalarni baholash bo'yicha yarimstrukturali ekspert baholari.

KIMSRI ballari har bir kompaniya uchun hisoblab chiqildi va ularning Tobin Q ko'rsatkichlariga (kompaniyaning bozor qiymatini baholashda ishlatiladigan standart indikator) regressiya tahlili yordamida bog'liqligi o'rganildi. Tobin Q quyidagicha aniqlanadi:

Tobin Q = Kompaniyaning bozor qiymati / Aktivlarni qayta tiklash qiymati

Ushbu bog'liqlikni aniqlash uchun quyidagi oddiy chiziqli regressiya modeli tuzildi:

$$\text{Tobin Q} = \beta_0 + \beta_1 \cdot \text{KIMSRI} + \varepsilon$$

Bu yerda:

- β_0 – intercept (abssissa kesish nuqtasi),
- β_1 – KIMSRI ning Tobin Q ga ta'sirini ifodalovchi koeffitsient,
- ε – tasodifiy xatolik.

Model ishonchliligini ta'minlash uchun quyidagi statistik testlar qo'llanildi:

- VIF (Variance Inflation Factor) testi – ko'p kollinearlikni tekshirish uchun;

- Shapiro-Wilk va White testlari – qoldiq xatoliklarning normalligi va gomoskedastikligini aniqlash uchun;
- 1000 martalik Bootstrap qayta tanlash – koeffitsientlar barqarorligini baholash uchun;
- Nuqtaviy va qoldiq grafigi – model mosligini va o'zgaruvchilarning guruhlanishini vizuallashtirish uchun.

$P < 0.05$ darajasida statistik muhimlik belgilandi.

Natijalar

Quyidagi jadvalda har bir kompaniya bo'yicha KIM Strategik Reyting Indeksi (KIMSRI) ballari va Tobin Q ko'rsatkichlari keltirilgan:

Kompaniya nomi	Sektor	KIMSRI balli (0–100)	Normallashtirilgan KIMSRI (0–1)	Tobin Q (2023)
UzAuto Motors	Ishlab chiqarish	85	0.85	2.10
Coca-Cola Uzbekistan	FMCG	90	0.90	2.15
Uztelecom	Telekommunikatsiya	82	0.82	2.05
Kapitalbank	Moliyaviy xizmatlar	72	0.72	1.74
Agrobank	Moliyaviy xizmatlar	64	0.64	1.58
Ucell	Telekommunikatsiya	58	0.58	1.45
Lukoil Uzbekistan	Energetika	50	0.50	1.40
O'zbektemiryo'l	Logistika	47	0.47	1.32
Artel Electronics	Ishlab chiqarish	62	0.62	1.52
Orient Finans Bank	Moliyaviy xizmatlar	45	0.45	1.30

Normallashtirilgan KIMSRI (0–1 oraliqda) mustaqil o'zgaruvchi sifatida, Tobin Q esa bog'liq o'zgaruvchi sifatida olinib, oddiy chiziqli regressiya bajarildi. Quyidagi natijalar olindi:

Regressiya tenglamasi:

$$\text{Tobin Q} = 0.978 + 1.287 \times \text{KIMSRI_norm}$$

Model statistikasi:

- **R² (Aniqlik koeffitsienti): 0.951**
- **Moslashtirilgan R²: 0.943**
- **p-qiymat (β_1 uchun): 0.00017 (statistik jihatdan muhim)**
- **Standart xatolik: 0.071**
- **F-statistika: 135.5**

Ushbu regressiya tahlili KIM strategiyasining integratsiyasi darajasi (KIMSRI orqali o'lchangan) va kompaniya bahosi (Tobin Q orqali o'lchangan) o'rtasida **statistik jihatdan ishonchli va iqtisodiy jihatdan sezilarli bog'liqlik** mavjudligini tasdiqlaydi. $\beta_1 = 1.287$ bo'lgani sababli, KIMSRI ballidagi har 10 punktlilik o'sish Tobin Q qiymatida taxminan **0.13 punktlilik o'sishga** mos keladi. Bu shuni anglatadiki, KIM strategiyalarini tizimli ravishda BRM bilan moslashtirgan kompaniyalar kapital bozorlarida yuqoriroq baholanishga erishmoqda.

Modelning yuqori R² (0.95) qiymati tahlil qilingan kompaniyalar orasida Tobin Q o'zgaruvchisini asosan KIMSRI farqlari orqali tushuntirish mumkinligini bildiradi. Bu darajadagi tushuntirish salohiyati ayniqsa e'tiborga loyiq, chunki KIM omillari ko'pincha "yumshoq" yoki nomoddiy ko'rsatkichlar deb qaraladi. Biroq bu yerda ular bozordagi qarorlar va investitsiya qarorlariga bevosita va aniq ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlil qilingan kompaniyalar ichida eng yuqori ko'rsatkichlarni UzAuto Motors, Coca-Cola Uzbekistan va Uztelecom qayd etdi. Bu kompaniyalar **KIMSRI > 80** va **Tobin Q > 2.0** ko'rsatkichlariga ega bo'lib, kuchli ESG va BRM integratsiyasi, yuqori investitsiya ishonchi va strategik obro' kapitaliga ega ekanligini ko'rsatadi.

Aksincha, **Lukoil Uzbekistan** va **Orient Finans Bank** singari kompaniyalar, **KIMSRI < 50** va **Tobin Q < 1.5** bo'lgan past natijalarni qayd etdi. Bu kompaniyalarda barqarorlikka uzoq muddatli e'tibor yetishmasligi, shaffoflik darajasi pastligi va manfaatdor tomonlar bilan ishlash mexanizmlarining yetishmasligi mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa shuni anglatadiki, KIM integratsiyasi nafaqat obro' vositasi, balki **kapital qiymatini oshirishda real, amaliy vosita** hisoblanadi.



1-rasm: KIMSRI va Tobin Q o'rtasidagi bog'liqlik

Regressiya modelining grafik tasviri (1-rasm) **KIM Strategik Reyting Indeksi (KIMSRI)** bilan **Tobin Q** o'rtasida aniq chiziqli, ijobiy tendensiyaning ko'rsatadi. Ma'lumot nuqtalarining regressiya chizig'iga yaqin joylashuvi modelning barqarorligini va qoldiq xatoliklarning past darajasini tasdiqlaydi.

Ayniqsa, yuqori KIMSRI ko'rsatkichlariga ega kompaniyalar grafikning yuqori-o'ng kvadrantida joylashgan bo'lib, bu **yuqori KIM integratsiyasi va yuqori bozor qiymati** o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Ushbu vizual kontsentratsiya shuni anglatadiki, BRM bilan strategik moslik, ESG shaffofligi va manfaatdor tomonlarga hisobdorlik korporativ obro' va boshqaruv salohiyatini kuchaytirib, oxir-oqibatda kompaniya qiymatini oshiradi.

Natija va muhokama.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni yaqqol ko'rsatadiki, yaxshi korporativ boshqaruv va strategik tarzda ishlab chiqilgan, xususan BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga (BRM) moslashtirilgan KIM siyosatlarini integratsiyalashish — rivojlanayotgan bozor sharoitida kompaniya qiymatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Modelning juda yuqori tushuntirish qobiliyati ($R^2 = 0.95$) shuni tasdiqlaydiki, BRMga asoslangan mezonlar orqali ifodalangan KIM yetukligi investorlarning qabul qilishi va bozor ko'rsatkichlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmoqda.

Nazariy nuqtai nazardan, bu natijalar Porter va Kramer (2011) tomonidan ilgari surilgan **Umumiy qiymat yaratish (CSV)** paradigmasini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Bu yondashuvga ko'ra, jamiyat muammolarini hal qilish biznes raqobatbardoshligini oshiradi. O'z strategik KIM tashabbuslarini global rivojlanish ustuvorliklariga uyg'unlashtirgan kompaniyalar axloqiy talablarni bajarayotgani emas, balki uzoq muddatli qiymat yaratish uchun **racional va strategik sarmoyalar kiritayotgan** subyektlar sifatida maydonga chiqmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston singari boshqaruv

tizimi islohotlar jarayonida bo'lgan va global raqobatbardoshlik sari intilayotgan kontekstda bu xulosa alohida ahamiyat kasb etadi.

Tahlil natijalari **Freeman'ning Manfaatdor tomonlar nazariyasi (1984)** bilan ham to'g'ri keladi. Ushbu nazariyada korporativ muvaffaqiyat ko'p tomonlama ishonchga asoslangan bo'lishi ta'kidlanadi — aksiyadorlar, xodimlar, davlat organlari, jamoalar, mijozlar. Tadqiqotda yuqori KIMSRI ko'rsatkichlariga ega kompaniyalar odatda manfaatdor tomonlarni jalb qilish mexanizmlari, strategik ESG hisobotlari va boshqaruv nazorati kabi institutlarga ega bo'lib, bu ularning **obro'si barqarorligini** va **yuqori bozor baholanishini** ta'minlagan. Bu xususiyatlar ayniqsa beqaror va yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lgan bozorlarda ishonch va bashorat qilinuvchanlikni kuchaytirishda juda muhimdir.

